

83.3.(543)

T 49

Dilfuza To'xliyeva

MAKTAB DARSLIKLARIDAGI MUMTOZ ASARLAR LUG'ATI VA IZOHI



◆ **G'azal** ◆

◆ **Muxammas** ◆

◆ **Tuyuq** ◆

◆ **Ruboiy** ◆

DILFUZA TO'XLIYEVA

**MAKTAB
DARSLIKLARIDAGI
MUMTOZ ASARLAR
LUG'ATI VA IZOHI**



**TOSHKENT
2020**

UDK: 821.512.133.09-1

BBK 83.3(5ŷ)

T-98

To'xliyeva, D.

Maktab darsliklaridagi mumtoz asarlar lug'ati va izohi [Matn]:
Metodik qo'llanma / D.To'xliyeva. – Toshkent: Bayoz, 2020. –
192 b.

Mas'ul muharrir:

Boqijon To'xliyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Qosimjon Sodiqov – filologiya fanlari doktori, professor.

Karomat Mullaxo'jayeva – filologiya fanlari nomzodi,
dotsent.

Ushbu kitob maktab darsliklariga kiritilgan mumtoz lirik asarlar – g'azal, muxammas, ruboiy, qit'a, tuyuq, qasida kabilarni tushinishda o'qituvchi va o'quvchilarga amaliy yordam berish uchun tayyorlandi.

Unda maktab darsligiga kiritilgan, ammo yetarli lug'at va izohlar bilan ta'minlanmagan lirik janrdagi asarlar tahlil etilgan. Ularning har biriga batafsil tushunilishi qiyin so'zlar lug'ati va bugungi tildagi nasriy bayonlar ilova qilingan.

Kitobdan maktab o'qituvchilari, o'quvchilari, olimpiadaga tayyorgarlik ko'ruvchilar, abituriyentlar, shuningdek, mumtoz adabiyot ixlosmandlari foydalanishi mumkin.

IDK: 821.512.133.09-1

IBK 83.3(5ŷ)

ISBN 978-9943-5626-1-5

© BAYOZ, 2020.

© To'xliyeva, D., 2020.

KIRISH


Adabiyotning bosh vazifalaridan biri insonni ma'naviy tarbiyalash, uni kamolotga undashdir. Mumtoz adabiyot bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq turli sabablarga ko'ra bugungi kun o'qituvchisi va o'quvchisi maktab darsliklarida berilgan mumtoz adabiyot namunalarini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Natijada adabiy ta'lim o'z maqsadiga to'la erisha olmayapti.

Mumtoz adabiyot namunalari mazmun-mohiyatini tushunishning mushkulligi, birinchidan, ularda aks etgan ma'no-mazmunning serqatlam ekani bilan, ikkinchidan, tilining murakkabligi bilan, uchinchidan, matn qurilishi, sintaksisida fors yoki arab sintaksisi ayrim elementlarining yetakchilik qilishi bilan izohlanadi. Aytish mumkinki, mazkur uch jihat bugungi kun o'quvchisining mumtoz matnni to'g'ri anglashida hal etuvchi ahamiyatga ega.

Ushbu kitob maktab darsliklariga kiritilgan mumtoz lirik asarlar – g'azal, muxammas, ruboiy, qit'a, tuyuq, qasida kabilarni tushunishda o'qituvchi va o'quvchilarga yordam berish uchun yozildi. Kitobda yuqoridagi uch masala – serqatlam mazmun, lug'at tarkibining xilma-xilligi va murakkab sintaktik qurilishga to'g'ri amaliy yechim ko'rsatishga harakat qilindi.

Qo'lingizdagi kitobda maktab darsligiga kiritilgan, ammo yetarli lug'at va izohlar bilan ta'minlanmagan lirik janrdagi asarlar tahlil etilgan. Ularning har biriga tushunilishi qiyin so'zlar lug'ati va bugungi tildagi nasriy bayonlar ilova qilindi. Lug'at tuzish va nasriy bayonni tayyorlashda esa faqat muallif nazarda tutgan (kontekstdagi) ma'noga tayanildi.

Metodik yordam sifatida taqdim etilayotgan ushbu kitob maktab darsliklaridagi mumtoz lirik asarlar bag'riga jo bo'lgan sir-sinoat, axloqiy-ma'rifiy qarashlarni bugungi kun o'quvchisiga yetkazishda, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda munosib hissa bo'lib qo'shiladi degan umiddamiz.



ADABIYOT

(DARSLIK)

5-SINF



QISM

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

RUBOIYLAR

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Lug'at

1. **Murod** – maqsad, niyat.
2. **Muyassar bo'lmoq** – yetishmoq, hosil bo'lmoq.
3. **Sori** – sari, tomon.

Nasriy bayon

Kishi ko'ngli tilagan murodiga yetsa yoki barcha murodlarni tark etsa, agar bu ikki ish olamda nasib etmasa, bir tomonga boshini olib ketsa yaxshi bo'ladi.

Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarkim, muqim ermasmen.

Lug'at

1. **Beqayd** – bog'lanmagan, bandsiz, erkin.
2. **Siym** – kumush, aqcha, tanga.
3. **Ermash** – emas.
4. **Mol** – narsa, buyum.
5. **Laim** – nokas, past, xasis.
6. **Kobul** – Afg'onistondagi shahar.
7. **Iqomat etti** – turib qoldi, istiqomat etdi, yashadi.

8. **Andoq** – unday.

9. **Muqim** – bir joyda doimiy yashovchi, turuvchi.

Nasriy bayon

Men erkinman va boylikka xirs qo'ygan emasman, qolaversa, mol yig'ishtirib yuruvchi nokas ham emasman. Bobur Kobulda barqaror turib qoldi, dersiz, unday demang, chunki bu yerda doim qolmasman.

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Lug'at

1. **Tole** – baxt, omad, qismat.
2. **Balolig'** – balolik, balo, qiyinchilik.
3. **Ish aylamoq** – ish qilmoq.
4. **Xatolig'** – xatolik, xato, noto'g'ri.
5. **Hind** – Hindiston.
6. **Sori** – sari, tomon.
7. **Yuzlanmoq** – kelmoq, bormoq.
8. **Rab** – Alloh, Tangri.
9. **Netayin** – nima qilay.
10. **Yuz qarolig'** – yuz qoralik, baxtsizlik, uyatli ish.
11. **Ne** – qanday.

Nasriy bayon

Baxtsizlik jonimga balo bo'ldi, har qanday ish qilsam, xatolik bo'ldi. O'z yerim (yurtim)ni tashlab, Hindiston sari keldim, yo Tangrim, bu qanday yuz qoralik bo'ldi.

Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi,
Vaslingg'a yetishmadim, jihat bu erdi:
Ohim tutuni birla ko'zumning yoshidin
Yo'l balchiq edi, kecha qorong'u erdi.

Lug'at

1. **Hajr** – hijron, ayriliq.
2. **Jihat** – tomon, sabab, bois.

Nasriy bayon

Bu tun hajring tufayli ko'ngilda qayg'u bor edi, lekin seni ko'rgani bora olmadim, buning sababi shu ediki, ko'zimning yoshi tufayli yo'l balchiq, ohim tutuni bilan kecha qorong'u edi.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

Lug'at

1. **Jafo** – ozor, sitam.
2. **Hargiz** – umuman, hech ham, hech qachon.

Nasriy bayon

Har kim vafo qilsa, vafo topadi, kimki jafo qilsa, jafo topadi.
Yaxshi kishi hech ham yomonlik ko'rmaydi, kimki yomon bo'lsa, jazo topadi.



Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

Lug'at

1. **G'urbat** – g'ariblik, musofirlik, vatandan uzoqda qolish.
2. **Mehnat** – azob, ranj, mashaqqat.

Nasriy bayon

G'ariblikdagi odamni boshqa bir kishi eslamas ekan, mashaqqatda ko'ngilni shod etmas ekan. Oh, ko'nglim bu g'ariblikda shodlanmadi, albatta, inson musofirchilikda sevinmas ekan.



Ko'pdin berikim yor-u diyorim yo'qtur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Lug'at

1. **Ko'pdin berikim** – ko'pdan beri, anchadan buyon
2. **Yo'qtur** – yo'qdir.
3. **Qaror** – tinchlik, orom, sabot.
4. **Sori** – sari, tomon.
5. **Ixtiyor** – erk, huquq, tanlov.
6. **Birla** – bilan.

Nasriy bayon

Ko'pdan beri yor-u diyorim yo'q, bir lahza-yu bir nafas oromim yo'q. Bu tomonlarga o'z ixtiyorim bilan keldim, ammo qaytib borishga ixtiyorim yo'q.

Ishlar bori ko'nguldagidek bo'lg'usidur!
In'om-u vazifa – bori buyrulg'usidur!
Ul g'alla-yu mahmilki, deb erding, bildim,
Mahmilg'a bo'y-u g'alladin uy to'lg'usidur!

Lug'at

1. **Bo'lg'usidur** – bo'lajak, bo'ladi.
2. **In'om** – hadya, tortiq, sovg'a.
3. **Mahmil** – tuyaning ustiga odamning o'tirishi uchun o'ratiladigan usti yopiq kajava yoki kajavadagi yuk.
4. **Bo'y** – hid, is, ifor.

Nasriy bayon

(Xudo xohlasa,) Ishlaming bari ko'ngildagidek bo'ladi, bari hadya-yu vazifa ham buyiriladi! (Sen) aytgan g'alla-yu kajavani tushundim, (nasib etsa) kajava ifor bilan, uy esa g'alla bilan to'ladi!

Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur,
Ko'zdin uchadur uyqu chu oqshom bo'ladur.
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,
Borg'on sori bu ortadur, ul kam bo'ladur.

Lugʻat

1. **Jism** – gavda, tana, jasad; modda.
2. **Isitma** – isitma kasalligi.
3. **Mahkam boʻladur** – kuchayadi, oʻrnashib oladi.
4. **Chu** – qachonki, vaqtiki; kabi; chunki.
5. **Borgʻon sori** – borgan sari.

Nasriy bayon

Tanamda isitma (kasalligi) har kun kuchayadi, oqshom boʻlishi bilan koʻzdan uyqu qochadi. Ikkisi, yaʼni isitma va uyqu – gʻamim va sabrimga oʻxshaydi, borgan sari bu (gʻamim) ortib, u (sabrim) kam boʻladi.

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!
Sarrishtayi ayshdin koʻngulni zinhor
Uz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!

Lugʻat

1. **Oh** – afsus-nadomat izhori, voy, kishining dard-u alamdagi nolasi.
2. **Tuz oh** – oh tuz, yaʼni oh chekmoq, nola qilmoq.
3. **Sarrishtayi aysh** – aysh, maishat bahonasi, sababi.
4. **Zinhor** – hargiz, har doim.

Nasriy bayon

Oh chek, Bobur, yuz oh chekkin, Bobur. Har doim koʻngilni rohat-farogʻatdan uz, oh, Bobur.

Ey bodi sabo, ayla Xurosong'a guzar,
Mendin degil ul yori parishong'a xabar.
Necha safar o'z ko'nglung uchun qilg'aysen,
Emdi bizing uchun ayla bu yong'a safar.

Lug'at

1. **Bodi sabo** – tong shamoli, mayin shabada.
2. **Xuroson** – Eronning shimoliy-sharqiy qismidagi viloyat nomi; Navoiy davrida hozirgi O'rta Osiyoning janubiy qismlari ham shu nom bilan yuritilgan.
3. **Guzar ayla** – bor, o't, safar qil.
4. **Parishon** – tarqoq, sochilgan.
5. **Emdi** – endi.

Nasriy bayon

Ey tong shamoli, Xurosonga safar qil, mendan bechora yorga xabar ber. Qanchadan-qancha safarlarni o'z ko'ngling uchun qilasan, endi bu tomonlarga biz uchun ham safar qil!

Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz!
Jamiyatingiz borini davlat tutungiz!
Chun gardishi charx bu durur, Tangri uchun
Bir-birni necha kun g'animat tutungiz!

Lug'at

1. **Ahbob** – do'stlar, yorlar.
2. **Farog'at tutungiz** – rohat deb biling.
3. **Jamiyatingiz** – yig'ilishingiz, jamoangiz.
4. **Davlat tutungiz** – davlat, yutuq deb biling.
5. **Chun** – chunki.
6. **Gardishi charx** – falakning aylanishi.

7. **Bu durur** – shudir, shundaydir.

8. **G'animat tutungiz** – g'animat deb biling, qadriga yeting.

Nasriy bayon

Do'stlar, [birga] yig'ilmoqni rohat deb biling! Jamoangiz borligini davlat deb biling! Chunki falakning aylanishi shunday bo'lgach, Tangri uchun bir-biringizni imkon qadar g'animat deb biling!

Kim bor anga ilm tolibi – ilm kerak.

O'rgangani ilm tolibi ilm kerak!

Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo'q,

Men bormen ilm tolibi – ilm kerak.

Lug'at

1. **Ilm tolibi** – ilm talab qiluvchi, ilm olishni istovchi.

2. **Tolib** – talab qiluvchi, izlovchi.

3. **Tolib ilm** – ilm talab qiluvchi, ilm olishni istovchi.

Nasriy bayon

Kim ilm talab qiluvchi bo'lsa, unga ilm kerak. Ilm o'rgangani ilm istovchi, izlovchi kerak! Men ilm talab qiluvchi, lekin ilmi yo'q tolib (izlanuvchi)man, men ilm istovchiman, (shu bois) menga (o'rgangani) ilm kerak!

Har yerda gul bo'lsa – tikan bo'lsa, ne tong?!

Har qandaki may durdidan bo'lsa, ne tong?!

She'rimda agar hazil, agar jid, kechurung,

Yaxshi borida agar yomon bo'lsa, ne tong?!

Lugʻat

1. **Ne tong** – ne ajab, nima boʻlibdi?!
2. **Har qanda** – har qayerda.
3. **May durdi** – mayning tubiga choʻkib qoluvchi quyqasi, l oyqasi; bilimlarning koʻp yoki ozi.
4. **Jid** – jiddiyat, jiddiylilik.

Nasriy bayon

Gul boʻlgan yerda tikanning boʻlishi ajablanarli emas, zero, may bor joyda durdi – quyqasi ham boʻladi. [Agar kishi jiddiy bilim olsa, uning alomati koʻrinadi.] Sheʼrimda xoh hazil, xoh jiddiyat boʻlsa kechiring, axir, yaxshi bor yerda yomonning boʻlishi ajablanarli emas!

Yo qahr-u gʻazab birla meni tufroq qil!
Yo bahri inoyatingda mustagʻroq qil!
Yo Rab, sengadur yuzum qaro gar oq qil,
Har navʼ sening rizong erur, andoq qil!

Lugʻat

1. **Bahri inoyat** – inoyat dengizi, marhamatlar, iltifotlar.
2. **Mustagʻroq** – gʻarq boʻlgan, choʻmgan.
3. **Rab** – Alloh, Tangri.
4. **Har navʼ** – har qaysi, har qanday.
5. **Rizo** – rozilik.
6. **Andoq** – ana shunday, shunday.

Nasriy bayon

Yo meni qahr-u gʻazab bilan xor (yoʻq) qil, yo marhamating dengizida gʻarq qil! Yo Tangrim, yuzumni qaro yoxud oq qilish senga havola, qay biriga rozi boʻlsang, shunday qil! [Men bularning barchasiga roziman]

Ey yel, borib ahbobqa nomimni degil!
Har kim meni bilsa, bu payomimni degil!
Mendin demagil gar unutulg'on bo'lsam,
Har kimki, meni so'rsa, salomimni degil!

Lug'at

1. **Yel** – shamol, shabada.
2. **Ahbob** – do'stlar, yorlar.
3. **Payom** – xabar, darak.

Nasriy bayon

Ey shamol, do'stlarga borib nomimni aytgin! Kimki meni tanisa, bu xabarimni yetkaz! Agar unutilgan bo'lsam, men haqimda so'zlama, kimki meni so'rsa, salomimni ayt!

Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a kuldurmen.
Nisbat yo'qdur, deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elga, vale senga quldurmen!

Lug'at

1. **Haqir** – qadirsiz, e'tiborsiz, xor.
2. **Ijtinob aylama** – qochma, tortinma.

Nasriy bayon

Sen gulsan-u men qadrsiz bulbulman, sen shu'lasen, men esa shu shu'laga kulman. Nisbat (farq) yo'q deb, o'zingni olib qochma, elga shohman, lekin senga qulman!

Jonimda mening hayoti jonim sensen,
Jismimda mening ruhi ravonim sensen.
Boburni seningdek o'zga yo'q yori azizi,
Alqissaki, umri jovidonim sensen.

Lug'at

1. **Hayoti jonim** – jonim tirikligi, manbayi.
2. **Ruhi ravonim** – tirik ruhim, kezuvchi ruhim.
3. **Alqissa** – xullas.
4. **Umri jovidonim** – abadiy hayotim.

Nasriy bayon

Jonimda jonim manbayi sensan, jismimda kezuvchi ruhim sensan. Boburning o'zga seningdek yori azizi yo'q, xullas, abadiy hayotim sensan.

Davron meni o'tkardi sar-u somondin,
Oyirdi meni bir yo'li xonumondin.
Gah boshima toj, gah baloyi ta'na,
Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin.

Lug'at

1. **Davron** – davrlar, zamon, gardish.
2. **O'tkardi** – o'tkazdi.
3. **Sar-u samon** – past-u baland, sinovlar, yaxshi-yomon ishlar.
4. **Oyirdi** – ayirdi.
5. **Xonumon** – uy-joy, oila, barcha narsa.

Nasriy bayon

Davron meni turli sinovlardan o'tkazdi, meni bir yo'la vatanimdan ayirdi. Goh boshimga toj qo'ydi, goh ta'na balosini, eh, boshimga bu davrondan nimalar kelmadi!

Ey, oy yuzung olida quyosh sharmanda,
Shirin so'z-u yaxshi xulqungga men banda,
Hijronda necha noma bila so'zlashaling,
Yo sen beri kel, yo men borayin anda.

Lug'at

1. **So'zlashaling** – so'zlashamiz.
2. **Oy** – yorning istioraviy ifodasi.

Nasriy bayon

Ey (yor), oy yuzing oldida quyosh sharmanda [bo'ladi, uyaladi], men shirin so'z-u yaxshi xulqingga bandaman, oshiqman. Hijronda qachongacha noma bilan so'zlashamiz? Yo sen beri [bu tomonga] kel, yo men u yoqqa boray!

ADABIYOT

(DARSLIK)

6-SINF

II
QISM

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

932 024

AVAZ O'TAR

G'AZALLAR

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositayi robitayi olamiyondur.

G'ayri tilini sa'y qiling bilgani, yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g'ayrat eting, foida kondur.

Ilm-u fan uyig'a yuboringlar bolangizni,
Onda o'qug'onlar bori yaktoyi zamondur.

Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidan oni bag'ri to'la qondur.

Lug'at

1. **Emdi** – endi.
2. **Bani odama** – Odam bolalariga, barcha insoniyatga.
3. **Robitayi olamiyon** – olamlarni bog'lovchi aloqa vositasi.
4. **G'ayri til** – o'zga til, chet til.
5. **Sa'y qiling** – harakat qiling, intiling.
6. **Bilon** – bilgan.
7. **Ondin** – undan.
8. **Onda** – u yerda.
9. **Bori** – bari.
10. **Yaktoyi zamon** – zamon yagonasi, ziyolisi.
11. **Zor o'lmasun** – zor bo'lmasin.

Nasriy bayon

Har tilni bilish endi insoniyatga jondir, til – olamlarni bog'lovchi vositadir.

Yoshlar, chet tilni o'rganish uchun harakat qiling, zero, kim ilm-u hunar bilgan bo'lsa, natija undan ayondir.

Sizga har tilni ona tilidek bilish lozim, xorijiy tilni bilishga g'ayrat qiling, foydasi kon[ga o'xshagan ko'p]dir.

Bolangizni ilm-u fan uyiga [ya'ni maktabga] yuboring, u yerda o'qiganlarning bari zamon yagonasi, ziyolisidir.

Ular ham til bilmay Avazdek zor bo'lmasin, til bilmagani tufayli uning bag'ri to'la qondir.

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O'qusin yoshlarimiz ko'nglini shod etgusi maktab.

Dil-u jon birla el maktab ocharga ijtihod etsin,
Nedinkim, bizni g'am qaydidin ozod etgusi maktab.

Ko'ngullarning sururi, dog'i ko'zlar nuridur farzand,
Alarning umrini, albatta, obod etgusi maktab.

Ota birla onaga farz o'qitmoq bizni majburiy –
Ki bizni yaxshiliq qilmoqqa mu'tod etgusi maktab.

Qayu millatga bizdek gar nasimi inqiroz yetsa,
Anga, albatta, mustahkamlik ijod etgusi maktab.

Bu ne navmidlikdur, maktab ochsak, oqibat bizni,
Aro'si kom ila maqsudga domod etgusi maktab.

Avaz, himmatni qil oliy ocharg'a emdi maktabkim,
Baloyi jahl-u nodonlikni barbod etgusi maktab.

Lugʻat

1. **Millati vayron** – vayron boʻlgan millat.
2. **Ijtihod** – tirishish, harakat qilish.
3. **Nedin** – nimadan.
4. **Gʻam qaydi** – gʻam iskanjasi, gʻam kishani.
5. **Muʻtod etgusi** – odatlantirgusi, odatlantiradi.
6. **Nasimi inqiroz** – inqiroz shamoli, tanazzul.
7. **Navmidlik** – noumidlik.
8. **Aroʻsi kom** – tabʻ kelinchagi, niyat kelinchagi.
9. **Domod etgusi** – yetishtirgusi.
10. **Himmat** – niyat, biror ishga urinish.
11. **Baloyi jahl-u nodonlik** – jahl-u nodonlik balosi.

Nasriy bayon

Maktab ochinglar, u vayron boʻlgan millatni obod qilgusi, yoshlarimiz oʻqisin, maktab [ularning] koʻngilni xursand qiladi.

Xalq dil-u jondan maktab ochishga tirishsin, chunki maktab bizni gʻam kishanlaridan ozod etadi.

Farzand koʻngillar sururi-quvonchi, bugina emas, koʻzlar nuridir. Albatta, maktab ularning umrini obod etadi.

Ota-onaga bizni oʻqitmoq farz – majburiy, chunki maktab bizni yaxshilik qilishga odatlantiradi.

Agar tanazzul shamoli qaysi millatga biz kabi yuzlansa, shubhasiz, maktab oʻsha millatga mustahkamlik, barqarorlik bagʻishlaydi.

Bu qanday noumidlik, agar maktab ochsak, maktab bizni oqibatda orzumiz kelinchagi bilan visolga yetishtiradi.

Avaz, endi maktab ochish uchun himmat – niyatni mahkam qil, zero, maktab jahl-u nodonlik balosini barbod etadi!

Fidoyi xalqim o'lsun tanda jonim,
Bo'lub qurbon anga ruhi ravonim.

Gar o'lsam darbadar mazlumlar uchun,
Budur maqsudi qalbi notavonim.

Mani solsa fano yo'liga davron,
Yurur ustimdin avlodi zamonim.

Umidim: yashasin maktab bolasi,
Alar har biri bir sheri jayonim.

Na yaxshi o'ylakim, ma'qul-u manzur,
Avaz, xalqim uchun to'kulsa qonim.

Lug'at

1. **O'lsun** – bo'lsin.
2. **Ruhi ravon** – tirik ruh, kezuvchi ruh, jon.
3. **O'lsam darbadar** – darbadar bo'lsam.
4. **Mazlumlar** – zulm ko'rganlar, ezilganlar.
5. **Qalbi notavonim** – notavon qalbim, bechora qalbim.
6. **Fano yo'li** – yo'qlik yo'li.
7. **Davron** – davrlar, zamon.
8. **Sheri jayon** – g'azabli, dahshatli, kuchli, dovyurak sher.

Nasriy bayon

Tandagi jonim xalqim uchun fido bo'lsin, unga tirik ruhim qurbon bo'lsin.

Agar mazlumlar uchun darbadar bo'lsam, aslida, bechora qalbimning maqsadi ham shudir.

Davron meni fano – yo'qlik yo'liga solsa (ya'ni qurbon bo'lsam ham mayli), ustimdan zamondosh avlodlarim yuradi.

Umidim shuki, maktab bolasi yashasin, ularning har biri bir dovyurak sherimdir.

Avaz, qanday yaxshi, naqadar ma'qul-u manzur, agar xalqim uchun qonim to'kilsa.

RUBOIY

Biling, ushbu zamon g'amnokidurman,
Kuyib o'rtanmish elning xokidurman.
Avazkim, nazm elin cholokidurman,
Boshin olmoqqa xonning pokidurman.

Lug'at

1. **G'amnok** – g'amli, g'am chekkan.
2. **O'rtanmish** – azobda ezilgan, qiynalgan.
3. **Xok** – tuproq.
4. **Nazm eli** – shoirlar.
5. **Cholok** – ziyrak, chaqqon.
6. **Xon** – shoh, davlat rahbari.
7. **Poki** – sartaroshlarning o'tkir tig'li asbobi, ustara.

Nasriy bayon

Ushbu zamonning g'am chekkan kishisiman, kuyib o'rtangan elning xoki [tugrog'i]man.

Shoirlarning chaqqoni bo'lgan Avazman, xonning boshini olish uchun poki (pichoq, ustara)man.



ADABIYOT

(DARSLIK)

7-SINF

II

QISM



UVAYSIY

G'AZALLAR

Mehnat-u alamlarga muhtalo Uvaysiymen,
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiymen.

Istadim bu olamni, topmadim vafo ahlin,
Barchadin yumib ko'zni muddao Uvaysiymen.

Uz diling taalluqdin, band qil Xudo sori,
To degil kecha-kunduz: «Mosivo Uvaysiymen!»

Kechalar fig'onimdin tinmadi kavokiblar,
Arz to samo uzra mojaro Uvaysiymen.

To ko'rib xarobotin ta'na etma, ey zohid,
Bir nafas emas xoli iqtido Uvaysiymen.

Faqr borgohiga qo'ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo'lsa, jonfido Uvaysiymen.

Vaysiy beriyozat deb sahl tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiymen.

Lug'at

1. **Muhtalo** – duchor bo'lgan, uchragan, giriftor.
2. **Oshno** – hamdam, do'st.
3. **Istadim** – baytda bu so'z "izladim" ma'nosida qo'llangan.
4. **Muddao** – da'vo qilingan narsa; murod, maqsad.
5. **Taalluq** – aloqa, bog'lanish, munosabat.
6. **Mosivo** – ...dan boshqa, ...dan tashqari; baytda ayrilgan, uzilgan ma'nosida.
7. **Kavokib** – yulduzlar.

8. **Arz to samo** – yerdan osmongacha.
9. **Mojaro** – janjal, g'alva.
10. **Xarobot** – vayrona joy; mayxona; baytda "so'fiylar yig'iladigan joy" ma'nosida qo'llangan.
11. **Zohid** – dunyo ishlaridan yuz o'girib, faqat toat-ibodat bilan shug'ullanuvchi shaxs.
12. **Iqtido** – ergashish ortidan borish.
13. **Faqr** – yo'qsillik; dunyodan kechish.
14. **Borgoh** – saroy, qasr.
15. **Vaysiy** – Uvaysiy so'zining o'zgargan shakli.
16. **Beriyozat** – riyozatsiz, mashaqqatsiz.
17. **Sahl tutma** – oson tutma.
18. **Orif** – biluvchi, tanuvchi, ma'rifatli (shaxs).

Nasriy bayon

Mashaqqat-u alamlarga uchragan, dard eli – dardmandlar qayerda bo'lsa, ularga oshno bo'lgan Uvaysiyman.

Bu olamni izlab vafodorlarni topmadim, shu bois barchadan ko'z yumib, faqat maqsadni ko'zlagan Uvaysiyman.

Dilingni dunyo bilan bog'liq aloqalar – tashvishlardan, turli munosabatlardan uz va dilni batamom Xudo bilan band qil, toki kecha-yu kunduz "Mosivo Uvaysiyman", ya'ni "Dunyodan uzilgan Uvaysiyman" degin.

Yulduzlar fig'onim tufayli kechalari tinmadi, men yer-u samo uzra mana shunday mojaro qo'zg'ovchi Uvaysiyman.

Ey zohid, Uvaysiyni xarobotini, ya'ni o'zi kabi ma'rifat talabgori bo'lgan shaxslar bilan yig'ilgan joyiga qarab, ta'na etma, chunki bir nafasi Alloh yodidan xoli (bo'sh) bo'lmagan Uvaysiyman.

Har kim faqr – yo'qsillik saroyiga qadam qo'ysa, bu uchun nafaqat bosh, balki jon fido qiluvchi Uvaysiyman.

Ey orif, Uvaysiy mashaqqatsiz deb oson tutma, zero, ishq aro bedavo dardi nihon bo'lgan Uvaysiyman.

Bukun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.

Musofirman, g'aribman, bekas-u ham benavodurman,
Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim.

Tilimning zikri-yu, ko'nglimni fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim.

Kecha-kunduz yo'lig'a muntazirdurman, tikarman ko'z,
Kelib holim so'ribon ketsa, mehmonimni sog'indim.

Nasibin uzmadi Tangri, ilojin topmag'ay kelsa,
Onam deb bo'lg'usi bag'ri qizil qonimni sog'indim.

Qorong'u bo'ldi olam ko'zima ushbu judolikdin,
Ko'z-u ko'nglum ziyosi mohi tobonimni sog'indim.

Mani bekas Uvaysiy, yig'lagayman ro'z-u-shab tinmay,
Uyimning ziynati, ko'z ravshani, xonimni sog'indim.

Lug'at

1. **Gado** – gadoy, tilanchi; ma'rifat talabgori, bilimga tashna inson.
2. **Shohi davron** – davron shohi.
3. **Musofir** – safarga chiqqan, yo'lovchi.
4. **G'arib** – hech kimi yo'q, boshqa joydan kelgan.
5. **Bekas** – hech kimi yo'q, kimsasiz.
6. **Benavo** – bechora, baxtsiz, noumid.
7. **Zikr** – yodga olish, eslash.
8. **Muntazir** – intizor, kutuvchi.
9. **Tikarman ko'z** – ko'z tikaman, ya'ni kutaman, yo'lini poylayman.

10. **So'ribon** – so'rab.
11. **Nasibin** – nasibasini.
12. **Ro'z-u shab** – kun-u tun.

Nasriy bayon

Ey do'stlar, bu kun jonim bo'lgan farzandimni sog'indim, gado bo'lsam ayb emas, davronim shohini sog'indim.

Musofir, g'aribman, hech kimi yo'q bechoraman, vujudim dardga to'ldi, endi darmonimni sog'indim.

Suyukli farzandim, tilim aytadigan so'z, ko'nglimning esa fikridir, azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim.

Kecha-kunduz yo'liga ko'z tikib intizorman, qaniydi, kelib holim so'rab ketsa, mehmonimni sog'indim.

Tangri nasibasini uzmadi, kelishga ham iloj topolmaydi, shu bois "onam deb" bag'ri qizil qon bo'luvchi farzandimni sog'indim.

Ushbu judolik tufayli olam ko'zimga qorong'u bo'ldi, shu bois ko'z-u ko'nglim ziyosi bo'lgan porloq quyoshimni sog'indim.

Men bechora Uvaysiy kun-u tun tinmay yig'larman, uyimning ziynati, ko'zimning nuri bo'lgan sultonimni sog'indim.

CHISTONLAR

Ul na gumbazdir, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindurub gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlarig'a parda tortig'liq turarlar bag'ri qon.

Lug'at

1. **Gumbaz** – imoratning qubba (aylana) shaklidagi tepa qismi.
2. **Gulgunpo'sh** – qizil kiyimli, qizil (gulgun) kiygan.
3. **Manzil aylabdur** – manzil qilibdi.

Nasriy bayon

U qanday gumbazki, eshigi-yu tuynugidan nishon yo'q? U yerni bir qancha qizil kiyimli qizlar o'zlariga manzil-u makon qilgan.

Gumbazni sindirib, qizlarning holidan xabar olsam, yuzlariga parda tortilgan, bag'rlari qon[ga to'lgan] holda turardilar.

Ul nadurkim, sabzto'nlik, yoz yog'ochning boshida,
Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida.
Barcha qushlarning so'ngoki ichida,
Ul na qushdurkim, so'ngoki toshida.

Lug'at

1. **Nadur** – nimadir.
2. **Sabzto'nlik** – yashil to'nli, yashil kiygan.
3. **So'ngoki** – so'ngagi, suyagi.
4. **Toshida** – tashqarisida.

Nasriy bayon

Yozda yog'och (daraxt) tepasida yashil to'n kiyib turuvchi, ammo barcha xaloyiq oldida qish yalong'och qiladigan narsa nima?

Barcha qushlarning suyagi ichida, biroq u qanday qushki, suyagi tashqarisida?

Ikki mahbubni ko'rdum, bir-birisin ko'rmagan,
Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil sig'magan.

Lug'at

1. **Mahbub** – ma'shuqa, sevgili, yor, do'st.
2. **Qii sig'magan** – ibora, "oraliq juda mustahkam" ekanini anglatish uchun qo'llanadi.

Nasriy bayon

Ikki yorni ko'rdim, bir-birisin ko'rmagan, do'stlar, ikkisining o'rtasiga qil ham o'tmagan.

ZAVQIY

MUXAMMAS

Bu kunlar boshimizda bir sahob o'lsa, ajab ermas,
Munavvar zimnida bir oftob o'lsa, ajab ermas,
Bu davlat suv yuzinda bir hubob o'lsa, ajab ermas,
Ko'rulsa suvrati, asli niqob o'lsa, ajab ermas,
Ochilsa pardalar yuzdin, hijob o'lsa, ajab ermas.

Duoya qo'l ochib, az tahti dil yig'lang, musulmonlar,
Zaif o'ldi, bilurmisiz, bu nuqson birla iymonlar,
Xudoga yalbaringlar, ketmasin ko'ngilda armonlar,
Burodarlar, azizlar, yaxshilar, ahhob, yoronlar,
Duolar Hazratig'a mustajob o'lsa, ajab ermas.

Nasimi jonfizo bemorlarga, ey sabo, yetkur,
Xazon pajmurda bo'lganlarga bir obi havo yetkur,
Qo'y emdi biz bilan begonani, bir oshno yetkur,
Gadomiz, boshlar uzra soyalar solsun, Humo yetkur,
Muqarrardur, zamona inqilob o'lsa, ajab ermas.

Shariat nuri birlan arsai olamni anvar qil,
Bisoti saltanatga ziynati islomni zevar qil,
Amiri adlgustar, hukmron mazlumparvar qil,
Asosi zulm daf'in qil, adolatpesha sarvar qil,
Aduvlar koru bori ehtisob o'lsa, ajab ermas.

Shiori shar' birlan ziynatafzo bo'lsa Farg'ona,
Havosi ruhparvar ham diloru bo'lsa Farg'ona,
Jahon ahlig'a go'yo daf'u savdo bo'lsa Farg'ona,
Tong ermaski, go'yo jannatoso bo'lsa Farg'ona,
Bo'lub tufrog'i anbar, suv gulob o'lsa, ajab ermas.

O'tub bir qarn, ahhobim, jahon obod ko'rgaysiz,
Jahon ahlini qayg'u qaydidin ozod ko'rgaysiz,
Giriftori alam ermas, hamani shod ko'rgaysiz,
Avalgi o'tgan-u ketgan ko'ngilda yod ko'rgaysiz,
Qarig'an chog'da bir ahli shabob o'lsa, ajab ermas.

Bashoratlarni bilsang, Zavqiy olam ogahidindur,
Bu ra'y, albatta, islom ahli bo'lsa, matlabidindur,
Bo'lur bu kanzi maxfiy oshkoro deb Jalidindur,
Degan tarixlari ul Ne'matullohi Validindur,
Bu so'z vallohu a'lam bissavob o'lsa, ajab ermas.

Lug'at

1. **Sahob** – bulut.
2. **Ajab ermas** – ajab emas.
3. **Munavvar** – nurli, ravshan, yorug'.
4. **Zimnida** – o'rtasida, orasida, ichida, ostida.
5. **Hubob** – pufakcha.
6. **Az tahti dil** – astoydil, dildan.
7. **Hijob** – parda, to'siq.
8. **Ahhob** – do'stlar, birodarlar.
9. **Mustajob** – qabul etilgan, ijobat bo'lgan.
10. **Hazratig'a** – bu yerda Allohga.
11. **Nasimi jonfizo** – jon bag'ishlovchi shabboda.
12. **Pajmurda** – so'lg'in, g'amgin.
13. **Obi havo** – tiriklik havosi.
14. **Gado** – yo'qsil, bechora, faqir.
15. **Muqarrar** – tayin qilingan, sobit, muayyan bo'lgan, aniq.
16. **Inqilob** – o'zgarish, isyon.
17. **Arsayi olam** – olam maydoni, ya'ni butun dunyo.
18. **Anvar** – nurli.
19. **Bisot** – to'shama: gilam, palos; mato, asbob-anjom.
20. **Zevar** – ziynat, bezak.
21. **Adlgustar** – adolat qiluvchi.

22. **Mazlumparvar** – zulm ko'rganlarni himoya qiluvchi.
23. **Daf' qil** – qaytar, ketkaz, yo'qot.
24. **Adolatpesha** – adolatni odat qilgan, odillik qiluvchi.
25. **Sarvar** – yetakchi, boshliq.
26. **Aduv** – dushman, yov, raqib.
27. **Kor-u bori** – ishi-yu bor narsalari.
28. **Ehtisob** – nazorat, tekshirish.
29. **Shiori shar'** – shariat shiori, ya'ni qonun ustuvorligi.
30. **Ziynatafzo** – ziynatlovchi, bezak beruvchi.
31. **Ruhparvar** – ruh, jon bag'ishlovchi.
32. **Diloro** – go'zal, ko'ngil bezagi.
33. **Tong ermaski** – ajabmaski.
34. **Anbar** – xushbo'y qora modda.
35. **Gulob** – atirgul suvi, atirgul bargini qaynatib, bug'latib olinadigan xushbo'y suv.
36. **Jannatoso** – jannat kabi.
37. **Qarn** – davr, asr.
38. **Ahbob** – do'stlar.
39. **Qayd** – zanjir, kishan.
40. **Giriftori alam** – alamga yo'liqqan, duchor bo'lgan, muhtalo bo'lgan.
41. **Shabob** – yoshlik, yigitlik.
42. **Ra'y** – fikr, tadbir.
43. **Matlab** – talab, maqsad.
44. **Kanzi maxfiy** – yashirin, maxfiy xazina.
45. **Jali** – Alloh.
46. **Misraning ma'nosi:** yuqorida aytilgan istak amalga oshsa, ajab emas.

Nasriy bayon

Birinchi band.

Bu kunlar boshimizda bir bulut bo'lsa, ajab emas, yorug'lik, ravshanlik tubida oftob bo'lsa, ajab emas. Bu davlat suv yuzidagi

pufakdek beqaror bo'lsa, suvrati ko'rinadigan, aslida esa niqob bo'lsa, yuzdan pardalar ochilib, pardaligi ma'lum bo'lsa, ajab emas.

Ikkinchi band.

Musulmonlar, duoga qo'l ochib chin dildan yig'lang, bilasizmi bu nuqson bilan iymonlar zaif bo'ldi! Xudoga yolvoring, ko'ngilda armonlar qolmasin, birodarlar, Tangri duolarni qabul etsa, ajab emas.

Uchinchi band.

Ey sabo, bemorlarga jon bag'ishlovchi nasim – shabada yetkaz, xazondek so'lg'in bo'lganlarga obi havo – tiriklik havosi yetkaz. Qo'y endi begonani, bizga bir oshna yetkaz, gadomiz, shu bois boshimiz uzra soya solishi uchun Humo qushini yetkaz. Muqarrar, ya'ni aniqki, zamona o'zgarsa, ajab emas.

To'rtinchi band.

Butun olamni shariat nuri bilan ravshan qil, saltanat gilami (palosi)ga islom dini ziynatini bezak qil, adolat qiluvchi, zulm ko'rganlarni himoya qiluvchi hukmdor tayin qil, zulm asosini yo'q qilib, adolatli yetakchi keltir. Ana shunda dushmanlarning qilgan ishi-yu bor narsasi taftish bo'lsa, hisob qilinsa, ajab emas.

Beshinchi band.

Farg'ona shariat shiori bilan ziynat beruvchi bo'lsa, havosi yoqimli va go'zal bo'lsa, jahon ahliga go'yo savdo markazi bo'lib, tuprog'i xushbo'y anbar, suvi gulob bo'lsa, ajabmaski, ana shunda Farg'ona jannatdek bo'lsa.

Oltinchi band.

Do'stlarim, bir asr o'tgach, jahonni obod, jahon ahlini qayg'usiz ko'rasiz. Insoniyatni alamga giriftor bo'lgan holda emas, balki shod ko'rasiz. Avvalgi o'tgan-u ketganni ko'ngilda

yod etib, qarigan chog'da bir yosh yigit bo'lsa, ajab emas.

Yettinchi band.

Bashoratlarni bilsang, Zavqiy olam ahvolini biluvchilardandir, albatta, bu fikr islom ahli talabidan. Tangri bu maxfiy xazinani oshkor qiladi deb, u tarixlarni aytgan Ne'matullohi Validandir. Yana ham Alloh bilguvchi, yuqorida aytganlarim amalga ohsa, ajab emas!

HAJVI AHLI RASTA

Arzim buki, Qori sumalakka,
Yetsun boshi, arz esa falakka.

Gah-gah nazora aylasun ul,
Ibrat ko'zi birla bu Samakka.

Sangmayda nosdonini maxtab,
So'z naqdini urmasun mahakka...

Shokir qora tarz odam o'lmish,
Ming la'nat o'shal qora eshakka.

Ul Shohaziz ayrilib otidin,
O'xshaydi Solih hezalakka.

So'z ta'siri ketmasin, Mo'minshoh
Osh yesa og'iz artmasun fatakka.

Ko'p haddidin oshmasun Nazirbek,
O'xshaydi ul oshqaboq xamakka.

Pul kelmasa, Bonkaboyvachcha
Karnay chaladur bo'lar-bo'makka.

Kofircha degan bir Ahmadjon bor,
Ko'p shug'li baland po'q yemakka.

A'lamni o'g'ullari Oxundjon
Hayf to'n bila salla gungalakka...

Sil aft oriqqina Muhiddin,
Ahvoli ayon bo'lur kuzakka...

Olib borur erdi Qosim oxund
Bizni Qorako'lga handalakka...

Kir ko'ylak o'lubtilar Umarjon
Sotmoq uchun emdi jun jiyakka.

Dovudxo'ja chorbozor qatnar,
Chit moshinasin sotur elakka.

Ul hoji Hasan degan zakiytab',
Yo'q toqatim anga so'z demakka.

Nusrat bila oshnolig'im bor,
Tentakina shatrama-shatakka.

So'fini balosi Abduqodir
Qatig'lig'i o'xshamish danakka...

Qosim shamol andake yengilroq,
O'xshab uchar bandi bodfarakka.

Xalq oni akasini o'xshaturlar
Og'zini tuvak, burnini sumakka...

Ortuqbachani semurturinglar,
O'q bo'lg'usi katta zambarakka.

Ko'r ishtahosin Hojibachcha
Osh solib ichar emish chelakka...

Ellikboshi o'g'li mokiynvor,
Ustod bo'lubti kurkurakka...

Qirq olti kishini fasona qildim,
Kim chiqsa o'qiydi Mo'ymarakka.

Tab'ingning arobasini to'xtat,
Shotisini bog'la g'ildirakka.

Zavqiy osilurg'a himmatidin
Dor bog'ladi bir baland terakka.

Lug'at

1. **Arz** – bayon, ma'lumot, zorlanish.
2. **Qori sumalak** – shaxs nomi.
3. **Arz** – yer, zamin.
4. **Nazora aylasun** – qarasin, nazar tashlasin.
5. **Samak** – Ayyor Samak xalq qissasining bosh qahramoni.
6. **Sangmayda** – nos solib yuriladigan idish nomi.
7. **Nosdon** – nos solib yuriladigan idish.
7. **Naqd** – saylangan, saralangan; qimmatbaho narsa; aqcha.
8. **Mahak** – kumush va oltinlarga surtib, ularning toza yoki qalbakiligini ajratadigan tosh.
9. **Qora tarz** – badxulq, yomon fe'lli, yaramas.
10. **Hezalak** – xotinchalish, nomard.
11. **Fatak** – patak
12. **Xamak** – hali pishib yetilmagan, xom.
13. **Bonkaboyvachcha** – bank egasi yoki bank boshlig'i.
14. **Kofir** – tanimovchi, inkor etuvchi.
15. **Shug'l** – mashg'ulot.
16. **Gungalak** – gung, saqov.

17. **A'lam** – diniy arbob, shariat qoidalari bilimdoni.
18. **Sil aft** – sil kasaliga chalingan inson qiyofasiga o'xshash yuz, bet.
19. **Kuzak** – kuz.
20. **Oxund** – ilmi kishi; mulla, domla.
21. **Jiyak** – biror narsaning gir atrofi; do'ppi, to'n kabi narsalarning chetiga tikiladigan tasma.
22. **Zakiytab'** – ziyrak, farosatli.
23. **Shatrama-shatak** – dali-g'uli, ko'nglida kiri yo'q.
24. **So'fi** – masjidida azon aytuvchi muazzin; faqir, darvishxo'y inson.
25. **Bodfarak** – varrak.
26. **Sumak** – beshikka boylangan chaqaloqning peshobini tuvakka yo'naltiruvchi asbob.
27. **Chelak** – paqir, suv soladigan idish.
28. **Ellikboshi** – mansab nomi; qirq-ellik otliqqa boshliq.
29. **Mokiyonvor** – makiyonsifat, xotinchalish.
30. **Kurkurak** – jarga in qurib, hasharotlar bilan oziqlanadigan qush turi.
31. **Fasona qil** – hikoya qil, ertak qil, afsona so'zla.
32. **Mo'ymarak** – joy nomi.
33. **Shoti** – aravaning ot yoki eshak qo'shiladigan ikki qo'li; aravaning o'qi va g'ildiragidan tashqari yuqori qismi; narvon.
34. **Himmat** – niyat, harakat, urinish.
35. **Dor bog'lamoq** – dor tayyorlamoq, osish uchun arqon hozirlamoq.

Nasriy bayon

Qori sumalakka arzim shuki, boshi yerda bo'lsa, ko'kka yetsin. Goh-goh ibrat ko'zi bilan bu Samakka nazar tashlasin va sangmayda nosqovog'ini maqtab so'z gavharini mahak toshga uravermasin...

Shokir yaramas, badxulq odam bo'lgan, o'sha qora eshakka

ming la'nat. Shohaziz otidan ayrilib, Solih xotinchalishga o'xshab qoldi. Mo'minshoh osh yesa, og'zini fatak (patak)ka artmasin, shunday qilsa, aytadigan so'zining ta'siri qolmaydi. Nazirbek ham ko'p haddidan oshmasin, u o'zi oshqovoqning xamagi – xomiga o'xshaydi.

Bonka (bank) boshlig'i agar pul kelmasa, karnay chalar bo'lar-bo'lmasga. Kofircha degan bir Ahmadjon bor, ahmoqona ishlar qilish bilan ko'p mashg'ul bo'ladi. Oxundjon a'lam – din arbobining o'g'li bo'lsa ham, u soqovga to'n bilan salla hayf...

Silbashara, oriqqina Muhiddinning ahvoli esa kuzga borib ayon bo'ladi. Qosim oxund (mulla) bizni Qorako'lga handalakka olib borar edi...

Umarjon endi jiyakka jun sotish uchun kirko'ylak bo'libti. Dovudxo'ja chorbozorga qatnab, chit mashinasini elakka sotar. Hoji Hasan deganlari zakiytab', u haqda so'z aytishga toqatim yo'q. Dali-g'uli, tentak Nusrat bilan esa oshnoligim bor. Abduqodir so'fining bolasi, qattiqligi danakka o'xshaydi...

Qosim shamol biroz yengilroq, shu bois varrakka o'xshab uchadi. Xalq akasining og'zini tuvakka, burnini sumakka o'xshatadi...

Ortuqbachchani semirtiringlar, Xudo xohlasa, zambarakka o'q bo'ladi. Hojibachchani ishtahasini qara, chelakka ovqat solib icharmish...

Ellikboshining o'gli makiyonsifat (xotinchalish), shu bois kurkurak qushga ustoz bo'libdi...

Qirq olti kishini mayna qildim, kim Mo'ymarakka chiqsa o'qiydi. Tab'ing aravasini to'xtat, shotisini g'ildirakka bog'la. Zavqiy o'z qilmishi tufayli osilishi uchun baland terakka dor tayyorladi.



ADABIYOT

(DARSLIK)

8-SINF



QISM

LUTFIY

G'AZAL

Bu kechar jahonda, soqiy, chu emas vafo nishoni,
Bari aysh birla kechsa kerak ushbu umri foni.

Qadahe keturki, sendek Xizr-u Masih elindin,
Kishiga mayi muravvaq erur obi zindagoniy.

Mayi la'li javharedurki, qilur nashot g'amni,
G'am ila kechurma umrung, topilur chu shodmoniy.

Manga bexabarlig'imdin ne g'ami hisob bo'lg'ay,
Chu boshimda bo'lg'ay ul kun bu sharobi arg'uvoniy.

Qaridi g'amingda Lutfiy, kel agar vafo qilursen, –
Ki kishiga qolmas oxir bu latofati javoniy.

Lug'at

1. **Kechar** – o'tar.
2. **Soqiy** – may quyuvchi; kosagul; komil yo'l boshlovchi.
3. **Chu** – chunki, modomiki; chunonchi; kabi.
4. **Aysh birla** – aysh bilan.
5. **Umri foni** – o'tkinchi umr.
6. **Qadahe** – bir qadah; piyola, kosa; bu yerda orif kishining qalbi.
7. **Xizr** – “obi hayvon” (abadiy tiriklik suvi)ni izlab topgan va undan ichib, doimiy tirik yuruvchi payg'ambarning nomi.
8. **Masih** – Iso payg'ambarning laqabi. Rivoyatlarda Iso o'z nafasi bilan o'liklarni tiriltirish qobiliyatiga ega deyiladi.
9. **Mayi muravvaq** – tozalangan, sof may; bu yerda ilohiy bilimlar ma'nosida.
10. **Obi zindagoniy** – abadiy hayot bag'ishlovchi suv, tiriklik suvi, obi hayot.

11. **La'li javhar** – qizil javhar (qimmatbaho tosh).
12. **Nashot** – suyunish, xursandchilik.
13. **Shodmoniy** – shodlik.
14. **Sharobi arg'uvoniy** – qirmizi may; puxta bilim.
15. **Latofati javoniy** – yoshlik latofati.

Nasriy bayon

Ey may quyuvchi, yo'l boshlovchi [pirikomil], bu o'tar dunyoda vafo nishoni yo'q, foniymiz boshdan oyoq aysh bilan o'tsa kerak.

O'zingdek bo'lgan Xizr-u Masih elidan bir qadah, ya'ni ilohiy bilimlarni keltir, chunki tiniq may inson uchun obi hayotdir.

Soqiy keltirgan may, ya'ni yo'l boshlovchi berayotgan ilohiy bilimlar g'amni shodlikka aylantiruvchi qimmatbaho javhardir, shu bois shodlik topilar ekan, umringni g'amda o'tkazma.

Bexabarligim tufayli menda hisob-kitob g'ami qanday bo'lsin, chunki u kuni (qiyomat kuni, hisob-kitob kuni) boshimda qirmizi may bo'ladi.

Lutfiy g'amingda qaridi, agar vafo qilsang, kel. Zero, yoshlik latofati kishida mangu qolmas!

Holiyokim, davri ishrattur iliktin jomni
Solmag'ilkim, ko'rdu asru bevafo ayyomni.

Husn davroni g'animattur, yigitlik bot kechar,
Yaxshiliqtin banda qilg'il emdi xos-u omni.

Bodaningki, lazzatini bilgay erdi Xizr, agar
Ichgay erdi obi hayvontek mayi gulfomni.

Gar so'ngaktek bo'lmag'aylar ul og'iz, ko'z fikrida, –
Kim og'izg'a olg'ay oxir pista-yu bodomni.

Chun sabo kelsa qilurmen gar o'zumni kuch bila,
Ikkilay chorlab degay to sendin ul dashnomni.

Chun duo qildim raqibg'a, berdi dashnom ul manga,
Hayf emish ablahga qilmak izzat-u ikromni.

Kecha-kunduz chun tilarsen, Lutfiy, ul dilbar yuzin,
Zulftak o't uzra qilg'il doimo oromni.

Lug'at

1. **Holiyo** – hozir, shu paytda.
2. **Iliktin** – ilikdan, qo'ldan.
3. **Jom** – may quyiladigan qadah, kosa, payola, ilohiy bilim.
4. **Solmag'il** – qo'ymagin, tashlamagin.
5. **Asru** – juda ko'p, ortiq, talay, g'oyat.
6. **Ayyom** – davr, zamonlar, kunlar.
7. **Bot** – tez, shitob bilan.
8. **Banda qilg'il** – tobe qilgin, o'zingga bo'ysundir,
yaqinlaringdan qil.
9. **Xos-u om** – barcha, hamma.
10. **Boda** – may, sharob.
11. **Xizr** – “obi hayvon” (abadiy tiriklik suvi)ni izlab topgan va
undan ichib, doimiy tirik yuruvchi payg'ambarning nomi.
12. **Obi hayot** – abadiy hayot bag'ishlovchi suv, tiriklik suvi,
obi zindagoniy.
13. **Mayi gulfom** – gulrang (qizil) may.
14. **So'ngaktek** – suyakdek, ustixon kabi.
15. **Sabo** – mayin shamol, tongda esuvchi yoqimli shabada.
16. **Ikkilay** – ikki martalab, takror.
17. **Dashnom** – so'kish, tanbeh, aybini bo'yniga qo'yib uyaltirish.

Nasriy bayon

Hozir ishrat [ya'ni o'rganish] davri, jomni [ilohiy bilimlarni] qo'lingdan qo'yma (buni g'animat bil), chunki men ko'plab bevafo zamonlarni ko'rdim.

Yoshlik davrlari g'animatdir, yigitlik ham tezda o'tadi, shu bois endi yaxshilik bilan barchani o'zinga mehrli, mushtiq qilgin.

Agar Xizr boda – mayning lazzatini bilganida edi, gulrang mayni obi hayotdek ichgan bo'lardi.

(Kishilar) yorning og'zi, ko'zining fikrida suyakdek (qotib) qolmaydilar, chunki oxir-oqibat pista-yu bodom (og'iz-u ko'z)ni og'izga soladilar.

Sabo kelgach, takror-takror chorlab, dashnomlaringni aytguniga qadar o'zimni kuch bilan zo'rg'a tutib turaman.

Ya'ni, yor raqibni duo qilganim uchun menga dashnom berdi, aytishicha, ablahni izzat-u ikrom qilish hayf emish.

Lutfiy, modomiki kecha-yu kunduz u dilbarning yuzini ko'rishni tilar ekansan, oromingni doimo olov uzra zulfdek (to'lg'anuvchi, behalovat) qilgin.

Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur,
Jahon husnin borin sizga beribdur.

Pari-yu odami mundoq xo'b ermas,
Farishta go'yiyo ko'ktin enibdur.

Quyosh Oydek yuzungning xijlatidin,
Qochib, to'rtinchi ko'k uzra chiqibdur.

Yuzung nogah ko'rib Oydek sog'indim,
Magar hush-u xirad mendin ketibdur?

Xirad ketmay netar mendek gadodin,
Qoshimg'a ul shahi xo'bon kelibdur?

Qilur da'voyi nur ul sham'i majlis,
Magar parvona shomimdin olibdur.

Necha bu Lutfi(y) qulg'a javr etarsen,
Vafo qilkim, jafo haddin oshibdur!

Lug'at

1. **Haq** – Alloh.
2. **Bor etmoq** – yaratmoq.
3. **Pari** – pari; go'zal qiz.
4. **Mundoq** – bunday.
5. **Xo'b** – yaxshi; go'zal.
6. **Go'yiyo** – go'yo.
7. **Ko'ktin** – ko'kdan, osmondan.
8. **Enibdur** – tushibdi.
9. **Xijlat** – xijolatlik, uyalish.
10. **To'rtinchi ko'k** – to'tinchi falak, osmonning to'rtinchi qavati.
11. **Magar** – ammo; shekilli; ...mikan.
12. **Hush-u xirad** – aql-idrok, es-hush.
13. **Shahi xo'bon** – xo'blar shohi, go'zallar sultoni.
14. **Da'voyi nur** – nurlik da'vosi, nur bo'lishga da'vogarlik.
15. **Parvona** – ko'pincha sham va chirog' atrofida aylanuvchi kapalak; oshiq.

Nasriy bayon

Tangri jamolingni yaratgan kunda jahonning bari husnini senga bergan.

Allohning pari-yu odami bunday go'zal emas, go'yo farishta ko'kdan tushganga o'xshaydi.

Quyosh ham oydek yuzingdan xijolat chekib, qochib to'rtinchi

falakka chiqdi.

Oy kabi yuzingni nogoh ko'rib sog'indim, es-u hush mendan ketdimikan?

Go'zallar shohi oldimga kelgach, menday gadodan aql ketmay nima qiladi?!

U majlis sham'i (yor) nurlik da'vosini qilur, ammo parvonani shomimdan olibdi.

Bu Lutfiy qulga har qachon javr etarsan, vafo ham qil, zero, jafo haddan oshibdi!

Ey odami(y)lar joni, parig'a ne bo'lursan?
Bu jism ila gulbargi tariyg'a ne bo'lursan?

Sendin manga nazzora tegar ul daxi gah-goh,
Sen charxi falakning qamarig'a ne bo'lursan?

Raftor ila bir yo'li muningdek dog'i o'xshash,
Ey sarvi sihi, kabki dariyg'a ne bo'lursan?

Yusuf kebi shirindurur asru harakoting,
Sen Misr nabot-u shakarig'a ne bo'lursan?

Sendek saname ko'rman Lutfi(y) chig'atoyda,
Chin so'yla, Xito xo'blarig'a ne bo'lursan?

Lug'at

1. **Pari** – pari; go'zal qiz.
2. **Ne bo'lursan** – nima bo'lasan?, kim bo'lasan?
3. **Jism** – gavda, tana.
4. **Ila** – bilan.
5. **Gulbargi tariy** – yangi ochilgan gul.
6. **Nazzora** – nazar tashlash, ko'z solish, tamosh.

7. **Charxi falak** – falak charxi, falak g'ildiragi, aylanishi; aylanuvchi falak.
8. **Qamar** – Oy.
9. **Raftor** – yurish, qadam tashlash.
10. **Dog'i** – yana.
11. **Sarvi sihi** – tik sarv (daraxti); xushqomat sevgili.
12. **Kabki dariy** – tog' kakligi.
13. **Yusuf** – Ya'qub payg'ambarning o'g'li; go'zalligi bilan mashhur bo'lgan shaxs.
14. **Asru** – juda ko'p, ortiq, g'oyat.
15. **Misr** – mamlakat nomi.
16. **Saname** – bir sanam, go'zal, dilbar.
17. **Chig'atoy** – sarkarda Chingizxon o'g'llaridan ikkinchisi-ning ismi; Chig'atoy hokimlik qilgan Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr hududlari umumiy nom bilan Chig'atoy ulusi deb yuritilgan.
18. **Xito** – Xitoy, Chin.
19. **Xo'b** – yaxshi; go'zal, dilbar.

Nasriy bayon

Ey odamlar joni bo'lgan dilbar, pariga kim bo'lasan?, bu (go'zal) jisming bilan yangi ochilgan gulga nima bo'lasan?

Goh-gohida sen menga yana ko'z tashlarsan, aytchi, sen aylanuvchi falakning Oyiga nima bo'lasan?

Ey sarvqomat yor, go'zal xirom aylash bilan xuddi shunday odati bo'lgan kabki dariy (tog' kakligi)ga nima bo'lasan?

Harakatlaring Yusuf kabi juda yoqimli, sen Misr novvot-u shakariga nima bo'lasan?

Lutfiy Chig'atoyda sendek go'zal ko'rmadi, rost so'zla, Xito(y) dilrabolariga kim bo'lasan?

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,
Ko'zgudek qildi seni o'zini paydo qilg'ali.

Qosh-u ko'zungdin qaro ko'rguzdi bildirmay o'zin,
Fitnae ul boshladi olamni yag'mo qilg'ali.

«Kof»u «nun» naqshi yo'q erdi andakim ushshoq uchun,
Ishq ila husning birikti sho'r-u g'avg'o qilg'ali.

Gavhari yak dona qildi zoti bahrinda seni,
Ahli dillar ko'zini hasratta daryo qilg'ali.

Og'zing-u yuzung sabab bo'ldi azal naqqoshina,
Olami g'aybiy shahodatni huvaydo qilg'ali.

Siz o'tarsiz Oydek ko'z tungluki yonida ruh, –
O'lturur har go'shadin sizni tamosho qilg'ali.

Gar qaro qayg'u nasibim bo'lmasa yuz soridin,
Men kim erdim jon bila zulfungni savdo qilg'ali.

Sensiz emgakdin manga bo'ldi o'lum jon rohati,
Qaydadur, yo Rab, ajal, borsam taqozo qilg'ali.

Chun saloting'a alik bermas ko'zung nazzorasi,
Lutfi(y) qul kimdur visolingni tamanno qilg'ali.

Lug'at

1. **Qilg'ali** – qilgani, qilish uchun.
2. **Fitnae** – bir fitna.
3. **Yag'mo** – talon-taroj, buzg'unlik.
4. **«Kof»u «nun» naqshi** – «Kof» (ك) va «nun» (ن) arab alifbosidagi ikki harfning nomi. Bu ikki harfning qo'shilishidan

“Kun”, ya’ni **“Bo’l”**, “Yaral” ma’nosini anglatuvchi so’z yuzaga keladi. Shoir bu o’rinda Alloh “Kun” (Yaral) so’zini aytganda olam paydo bo’lganiga ishora qilmoqda.

5. Andakim – u yerda, u joydaki.

6. Ushshoq – oshiqlar.

7. Sho’r-u g’avg’o – to’s-to’palon.

8. Yak – bir.

9. Bahrinda – daryosida, dengizida.

10. Ahli dil – pokiza kishilar, ma’rifatli shaxslar; oshiqlar.

11. Azal naqqoshina – azal naqqoshiga, ya’ni Tangriga.

12. Olami g’aybiy – g’aybiy olam, sirli olam, yashirin olam.

13. Shahodat – guvohlik, shohidlik.

14. Huvaydo qilg’ali – oshkor qilgani, ayon qilgani.

15. Ko’z tungluki – ko’z tuynugi; ko’z tegrasi.

16. Go’sha – burchak, chekka, xilvat joy.

17. Yuz soridin – yuz tomondan, yuz tarafdan.

18. Zulfung – kokiling, soching.

19. Emgak – mashaqqat, kulfat.

20. Nazzora – qarash, ko’z solish; tamosho.

21. Tamanno – orzu.

Nasriy bayon

U (ya’ni Alloh) elni shaydo qilish uchun husnni bahona (sabab) qildi, O’zini namoyon etish maqsadida sen (go’zal)ni (o’zi uchun) ko’zgudek qildi.

O’zini bildirmay sening qosh-u ko’zingdan qora ko’rsatdi, U (bu bilan) olamni talon-taroj etish uchun bir fitna boshladi.

Oshiqlarga to’s-to’palon ko’rsatish uchun husning ishq bilan birikkan (yoki sulh tuzgan) azal zamonda hali dunyo yaralmagan edi.

Parvardigor hasratda oshiqlar ko’zini daryo qilgani seni o’z zotining dengizida bir dona gavhar qildi

Og’zing va yuzing sirlar olamini oshkor etishi uchun Allohga

sabab bo'ldi.

Siz (go'zallar) o'tgan chog' ruh har burchakdan sizni tamosho qilmoq uchun oydek ko'z tuynugi yonida o'tiradi.

Agar yuz tomondan qora qayg'u nasibam bo'lmasa, jon bilan zulfingni savdo qilgani (ya'ni jonim uchun zulfingga xaridor bo'lgani) men kim bo'libman?

Sensiz mashaqqat tufayli men uchun o'lim jonning rohati bo'ldi, yo Rab, o'zim tilab borishim uchun ajal qaydadir?

Ko'z qarashing sultonlarga alik bermaydi, shunday ekan visolingni orzu qilgani qul – Lutfiy kim bo'libdi?!

Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi,
O'z haddini bilib, belidin o'lturur quyi.

Zulfi shikastasinda u kun ongladi o'zi,
Oylarda sinmadi bu ko'ngulning bir orzuyi.

Mundoqki yaxshi yerga tushubtur topib qabul,
Shak yo'qki, muqbil ul dudog'ing xoli hinduyi.

Qush og'zi tegsa la'l o'la minqori to'tidek,
Yoqutung uchun onda ko'r oqsa ko'zum suyi.

Ko'rguzmading tushumda biror zulf-u orazin,
Ey baxt, dedikim senga kim, tun-u kun uyi.

Javr etsa, mehr umidi tutarmen hanuzkim,
Bir tavr qolmas odamining xislat-u xo'yi.

Lutfiy boshin evurdi sochi inichka bel ila,
Ul hindu rishta birla magar qildi joduyi?

Lugʻat

1. **Nozuklik ichra** – noziklik borasida, noziklikda.
2. **Tori gisu** – soch tolasi.
3. **Had** – chegara; munosib oʻrin.
4. **Zulfi shikastasinda** – jingalak sochida, soch oʻrimida, soch buramlarida.
5. **Muqbil** – baxtli, iqbolli.
6. **Dudogʻ** – lab.
7. **Xoli hindu** – qora xol.
8. **Javr** – jabr.
9. **Umidi tutarmen** – umid qilarman.
10. **Hanuzkim** – hamon, hali ham.
11. **Bir tavr** – bir xil, birdek.
12. **Xoʻy** – tabiat, odat, qiliq.
13. **Boshin evurdi** – boshini burdi, boshini oʻgirdi.
14. **Inichka** – ingichka, nozik.
15. **Rishta birla** – ip bilan.

Nasriy bayon

(Yorning) beli shu qadar nozikki, sochining tolasi ham bunchalik emas, shu bois oʻz haddini bilib belidan pastda oʻtiradi.

Oʻzi u kun angladiki, bu koʻngilning orzusi oylar oʻtsa ham jingalak (toʻlqinli) sochida tugamadi (sinmadi).

Imkon topib qanday xush joyga tushibdi, shubhasiz, labingning qora xoli baxtlidir.

Qushning ogʻzi tegsa, toʻtining minqoridek laʼl boʻlar, u paytda yoquting uchun koʻzimning suvi oqqanini koʻr.

Bir bor boʻlsa ham tushimda zulf-u orazini koʻrsatmading, ey baxt, kim senga tun-u kun uxla dedi?

Jabr etsa ham hanuz mehrni umid qilaman, zero, odamning xislat-u odati birdek, oʻzgarmay qolmaydi.

Sochi ingichka beli bilan Lutfiyning boshini oʻziga qaratdi (burdi), yoxud u hindu (yaʼni labidagi qora xol) ip bilan jodu qildimi?

Suratingda xomayi sun' erdi tahrir ustina,
Chunki etti ko'zunga, sehr etti tasvir ustina.

Garchi bosh birla tikildi vasfi zulfungda qalam,
Ul qaro tillik ko'rar o'zini taqsir ustina.

Husnugiz oni ne teb kirsun iboratqaki, aql
Dam-badam bexud bo'lur sharhinda taqrir ustina.

Ish agar afsunga yetsa ko'zlaring ashkol ila,
Yuz xatoni yuklagay joduyi Kashmir ustina.

Qosh-u ko'z-u kirpugungning fitnasidin yo'q kalom,
Ul balodin, netayin, kelmasa bir-bir ustina.

Chiqmadi zulfung savodindin ko'ngul yo'l bor uchun,
Muncha umr etib uzun tunlarda shabgir ustina.

Lutfi(y)ni o'lturma sensiz o'lmagan jurmi uchun, –
Kim yurumas bandaning farmoni taqdir ustina.

Lug'at

1. **Xomayi sun'** – yaratish qalami.
2. **Tahrir** – yozish; chizish.
3. **Ustina** – ustiga.
4. **Taqsir** – qusur, xato, nuqson.
5. **Ne teb** – nima deb, ne deb.
6. **Bexud** – hushsiz, o'zidan ketgan.
7. **Taqrir** – tasdiqlash, so'zlash, bayon etish.
8. **Afsun** – sehr, firib, nayrang.
9. **Ashkol ila** – shakllar bilan, suratlar bilan.
10. **Joduyi Kashmir** – Kashmir jodusi. Kashmir sehr-jodusi bilan mashhur shahar va mamlakat nomi.

11. Kiprug – kiprik.

12. Shabgir – kechasi yuruvchi, tun bo'yi uxlamaydigan.

13. Jurm – gunoh, ayb.

14. Savod – qoralik, qorong'ilik.

Nasriy bayon

Yaratish qalami surating (jamoling)ni chizar ekan ko'zingda sehnri tasvirladi.

Garchi qalam zulfing vasfini boshi bilan aytgan bo'lsa ham, u qora tilli (qalam) o'zini nuqsonli deb biladi.

Husningizni qanday qilib ta'riflash mumkin, axir, aql uning ta'rif-u tavsifida dam-badam hushdan ketadi.

Agar ish afsunga yetsa, ko'zlaring turli shakllar (suratlar) bilan Kashmir jodusiga yuz xatoni yuklaydi.

Qosh-u ko'z-u kiprigingning fitnasi tufayli biror so'z aytolmayman, bu balolar tufayli tilim aylanmasa nima qilay?

Ko'ngil tunlarda saharga qadar ko'p umrini o'tkazsa-da, zulfing qorong'uligidan tashqari chiqmadi.

(Ey yor,) Lutfiyni arzimas aybi uchun o'zingsiz qoldirib o'ldirma, zero, bandaning farmoni taqdirni o'zgartira olmaydi.

TUYUQLAR

Ko'z yoshim tuproq ila gar qotila,
Kelmagayman javridin, Haqqo, tila.
G'amzasi o'lturdi-yu ul bexabar,
Men agar o'lsam, ne g'am ul qotila?!

Lug'at

1. **Qotila** – qo'shiladi, qoriladi.
2. **Javr** – jabr, zulm.
3. **Haqqo** – ey Haq, ya'ni "Ey Xudo".
4. **Tila** – tilga.
5. **G'amza** – ko'z ishorasi, ko'z suzib qarash.
6. **Qotila** – qotilga.

Nasriy bayon

Garchi ko'z yoshim tuproq bilan qorishsa ham, ey Xudo, (yorning) jabridan so'z ochmasman. Ko'z suzib nazar tashlashi (meni) o'ldirdi, lekin u (yor) bexabar. Zotan, men o'lsam-da, u qotilga nima g'am?!

Kechti umr-u tushmadim ul yor ila,
Qo'rqaram ko'nglum bu g'amdin yorila.
Bu vafosizliqki, sendin ko'rmisham,
E'tiqodim qolmadi hech yor ila.

Lug'at

1. **Kechti** – o'tdi.
2. **Yor** – suyuqli inson.
3. **Qo'rqaram** – qo'rqaman.
4. **Yorila** – yoriladi.
5. **Ko'rmisham** – ko'rdim.

6. Yor – do'st, sevikli.

Nasriy bayon

Umr o'tdi, ammo u yor bilan emas. Ko'nglim bu g'amdan yoriladi deb qo'rqaman. Sendan ko'rgan bu vafosizlik tufayli hech yorga ishonchim qolmadi.

Ey ko'ngul, yorsiz sanga ne bor bor?
Qaydakim ul zulfi anbarbor, bor.
Chek jafo-u javr-u nozi borini,
Bir kun o'lg'aykim, degaylar: «Bor-bor!»

Lug'at

1. **Bo'r** – yuk; bu yerda tashvish, g'am ma'nosida.
2. **Anbarbor** – anbar hidli, xushbo'y isli.
3. **Chek** – tort (azobni), chida.
4. **Oxirgi “bor-bor” so'zi ko'p ma'noli:** “boravergin”, “ketavergin”, “boraqolgin”, “ket”.

Nasriy bayon

Ey ko'ngil, yorsiz bo'lishdan senga ne hosil? Sen u zulfi anbar hidli (yor) qayda bo'lsa, o'sha yerga bor. Barcha nozi, jafosi-yu jabrini (qo'rqmay, inkor etmay) tort. Zotan, bir kun kelib (o'zgalar) “bor-bor!” (jo'na, ket!) deydilar.

Bir nazar qildim, qul o'ldum Oya men,
Ul sababdin jon-u dilni oyamen.
Gar meni shohimg'a yetkursa Xudoy,
Hazratinda sarguzashtim oyamen.

Lugʻat

1. **Oya** – Oyga.
2. **Oyamen** – ayayman.
3. **Yetkursa** – yetkazsa.
4. **Hazratinda** – huzurida, oldida.
5. **Oyamen** – aytaman.

Nasriy bayon

Men bir nazar tashlab u oyga (yorga) qul boʻldim, shu sababli jon-u dilni ayayman. Agar Xudo meni shohim oldiga yetkazsa, huzurida sarguzashtimni aytaman.

To ishim tushti bir ogʻzi tor ila,
Koʻnglumi asrar gʻami bir tor ila.
Koʻz tutarmenkim, koʻzumning suyidin
Koʻngli, vah, tuxmi muhabbat torila.

Lugʻat

1. **Tor** – tola, ip.
2. **Koʻz tutarmen** – koʻz tutaman, umid qilaman.
3. **Tuxm** – urugʻ.
4. **Torila** – sepiladi, paydo boʻladi.

Nasriy bayon

Bir ogʻzi tor (yor)ga ishim tushgandan beri koʻnglimni (uning) gʻami bir tor bilan asrab keladi. Umid qilamanki, koʻzimning yoshidan koʻnglida muhabbat urugʻi unib chiqadi.

ALISHER NAVOIY

G'AZAL

Qaro ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kebi vatan qilg'il.

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la,
Ittingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Firoq tog'ida topilsa, tufroqim, ey charx,
Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilg'il.

Yuzung visolig'a yetsun desang ko'ngullarni,
Sochingni boshtin-ayoq chin ila shikan qilg'il.

Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone',
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rub, o'lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u, gul bargidin kafan qilg'il.

Navoiy, anjumane shavqi jon aro tuzsang,
Aning boshhoqliq o'qin sham'i anjuman qilg'il.

Lug'at

1. **Mardumliq** – odamlilik, insonlik, odamgarchilik.
2. **Emdi** – endi.
3. **Fan** – bilim; hunar, san'at, kasb.
4. **Mardum** – odamlar, kishilar; qorachiq.
5. **Ravza** – bog', gulbog'; jannat.

6. **Takovar** – yo'rg'a ot.
7. **G'amza** – ko'z ishorasi, ko'z suzib boqish.
8. **Rishta** – ip, tanob.
9. **Rasan** – arqon, arg'amchi.
10. **Firoq** – ayriliq, judolik.
11. **Charx** – osmon, falak.
12. **Ko'hkan** – tosh yo'nuvchi; Farhodning laqabi.
13. **Chin** – sochning jingalasi; tirish, burushiq, ajin.
14. **Shikan** – siniqlik, buralish.
15. **Rafiq** – o'rtoq, yaqin inson.
16. **Gulob** – atirgul suvi, gul bargini bug'latib olinadigan xushbo'y suv.
17. **Anjumane** – bir anjuman, kecha.
18. **Shavq** – qattiq intilish, kuchli havas.

Nasriy bayon

Qora ko'zim (ya'ni qora ko'zli yorim), kel va endi insoniylikni o'zingga odat qil, ko'zimning qorachig'ida gavhar kabi vatan qilgin.

Yuzing guliga ko'ngil bog'ini gulshan etib, qadding niholiga jon gulshanini chaman qilgin.

Yo'rg'a oting oyog'iga bag'rim qonidan xina bog'la, azob tortayotgan jonim rishtasini esa itingga arg'amchi qilgin.

Ey charx (falak), ayriliq tog'ida tuprog'im topilsa, u tuproqni yana loy qilib, u tog'da tosh yo'nuvchi qilib yasagin.

Ko'ngillar (oshiqlar)ni yuzing visoliga yetsin desang, sochingni boshdan-oyoq buram-buram (jingalak) qilgin.

Ey bog'bon, garchi bu bog' tomida ignadan tikanli to'siq qilsang ham, xazon lashkariga monelik qila olmaydi.

Ey do'stim, bordiyu yor yuzida ter (hayajon)ni ko'rib o'lish nasib etsa, xushbo'y gul suvi bilan yuvib, gul bargidan kafan qilgin.

Navoiy, jon shavqi ichra bir anjuman tuzsang, yorning

boshqoli o'qi (kiprigi)ni anjumanning shami qilgin!

Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin,
Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!

Ko'zi qahrinmu deyin, kirpiki zahrinmu deyin,
Bu kudurat ora ruxsori safosinmu deyin?!

Ishq dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,
Bu qatig dardlar aro vasli davosinmu deyin?!

Zulfi dominmu deyin, la'li kalominmu deyin,
Birining kaydi, yana birining adosinmu deyin?!

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Movi(y) ko'nglak uza gulrang qabosinmu deyin?!

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu deyin,
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin?!

Ey Navoiy, dema qosh-u ko'zining vasfini, et,
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?!

Lug'at

1. **Yo** – “yoy” so'zining qisqargan shakli; kamon; egma, qayrilma.
2. **Kirpik** – kiprik.
3. **Kudurat** – g'ussa, dilxiralik.
4. **Ruxsor** – yuz, chehra.
5. **Safo** – yorug'li, ravshanlik; xursandchilik.
6. **Nabard** – urush, jang.
7. **Dom** – tuzoq.
8. **Kalom** – so'z.
9. **Kayd** – makr, hiyla, nayrang.

10. **Ado** – noz, ishva.
11. **Qabo** – uzun va keng to'n.
12. **Charx** – falak, osmon.
13. **Shikanj** – bukilish, buralish; qiynoq, ranj, azob.
14. **Dahr** – dunyo, zamon.

Nasriy bayon

Qoshi kamonligini aytaymi, ko'zi qoraligini aytaymi yoki har birining ko'nglimga yetkazgan dard-u balosini aytaymi?

Ko'zi qahrini deymi, kiprigi zahrini deymi, bu g'am-g'ussa ichra nurli chehrasi haqida deymi?

Ishq dardini aytaymi, hajri azobini deymi, bu qattiq dardlar aro vaslining davosini aytaymi?

Zulfi (sochi)ning tuzog'ini deymi, labidan chiqqan so'zlarni aytaymi yoxud birinchisining azobi, ikkinchisining noz-u ishvasi haqida gapiraymi?

Turfa xolini deymi, qaddi niholini deymi, moviy ko'ylak uzra (yarashgan) gulrangli to'nini deymi?

Charx ranjini deymi, zamon qiynoqlarini deymi va yo har birining jonimga jabr-u jafosini deymi?

Ey Navoiy, qosh-u ko'zini vasfet dema, axir, qoshi kamonligini deymi, ko'zi qoraligini aytayinmi?!

«Kecha kelgumdur», – debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqdim-u, chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimg'a-vu, ul sho'xi badxo' kelmadi.

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro'zgorimdek ham o'lg'anda qorong'u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim, yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.

«Ko'zlaringdin necha su(v) kelgay?!» – deb o'lturmang meni,
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha su(v) kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo'qsa kim qo'ydi qadam
Yo'lg'akim, avvalqadam ma'shuqe o'tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

Lug'at

1. **Debon** – deb.
2. **Sarvi gulro'** – gulyuzli sarv, ya'ni go'zal yor.
3. **Badxo'** – badqiliq, yomon odatli, erka.
4. **Oraz** – yuz, jamol, chehra.
5. **Parivash** – pariga o'xshash, go'zal.
6. **Devonavor** – devonadek, devona kabi.
7. **Tolib** – talab qiluvchi, talabgor; oshiq.
8. **Ma'shuqe** – ma'shuqa, yor, sevgili.
9. **O'tru** – qarshi, ro'para.
10. **Boda** – may, sharob.
11. **Xurram et** – shod, xursand; gullagan, yashnagan.
12. **Ne uchun** – nega, nimaga.

Nasriy bayon

U gulyuzli sarv (ya'ni xushqomat yor) kecha (yoki kechasi) kelaman deb kelmadi, (shu bois) tong otguncha ko'zlarimga uyqu kelmadi.

Dam-badam yo'liga chiqib intizor bo'ldim, jon og'zimga keldi, lekin u sho'x, yomon fe'lli kelmadi.

Agar har taraf yuzidek yorug' bo'lganda (o'zgalar ko'rib

qolmasligi uchun) ehtiyot bo'lgan bo'lsa, kun ro'zg'orimdek qorong'u (zimiston) bo'lganda ham kelmadi.

Ul paridek go'zalning hajri tufayli devonadek yig'ladim, meni ko'rganda kulgisi kelmagan biror kishi bormikan?!

“Ko'zlaringdan qachongacha suv oqadi?!” – deb malomat qilmang meni, chunki ko'zimdan oqqanlarning bari qon edi, bu kecha suv kelmadi.

Sadoqatli talabgor topilmaydi, yo'qsa, kim yo'lga qadam qo'ygan bo'lsa, bir ma'shuqaga duch kelmaydimi?!

Ey Navoiy, may bilan (yoki ilohiy bilimlar ya'ni ma'rifat bilan) ko'ngling uyini shod etgin, negaki, boda (ma'rifat) kelgan uyga qayg'u kelmaydi.

Jong'a chun dermen: «Ne erdi o'lmakim kayfiyati?»

Derki: «Bois bo'ldi jism ichra marazning shiddati».

Jismdin so'rsamki: «Bu za'fingg'a ne erdi sabab?»

Der: «Anga bo'ldi sabab o'tluq bag'irning hirqati».

Chun bag'irdin so'rdum, aytur: «Andin o't tushti manga, – Kim ko'ngulga shu'la soldi ishq barqi ofati».

Ko'ngluma qilsam g'azab, ayturki: «Ko'zdindur gunah, Ko'rmayin ul tushmadi bizga bu ishning tuhmati».

Ko'zga chun dermenki: «Ey tardomani yuzi qaro, Sendin o'lmish telba ko'nglumning balo-yu vahshati».

Yig'lab aytur ko'zki: «Yo'q erdi manga ham ixtiyor, – Kim ko'rundi nogahon ul sho'xi mahvash tal'ati».

Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy, – Kim sanga ishq o'ti-o'q ermish azalning qismati.

Lugʻat

1. **Chun** – vaqtiki, qachonki; chunonchi.
2. **Maraz** – kasallik, dard, illat.
3. **Zaʼf** – kuchsizlik, holsizlik, hastalik.
4. **Oʻtluq** – oʻtli, otashin.
5. **Hirqat** – kuyish, yonish; kuydirish, yondirish.
6. **Barq** – chaqin, oʻt, olov.
7. **Tardoman** – etagi hoʻl; axloqi yomon, fosiq.
8. **Oʻlmish** – boʻlmish, boʻlgan ekan.
9. **Vahshat** – qoʻrqinch, vahshiylik.
10. **Mahvash** – oydek goʻzal, oyyuzli.
11. **Talʻat** – yuz, husn, koʻrinish.

Nasriy bayon

Jonimga “oʻlishimning sababi nima edi” desam, u “jism ichra dardning shiddati (kuchaygani)” deb javob berdi.

Jismdan “bu hastaligingga sabab nima edi” deb soʻrasam, “bunga oʻtli bagʻirning kuyishi sabab boʻldi”, deydi.

Bu bagʻirdan haqda soʻrasam, u “ish barqi (uchquni)ning ofati koʻngulga oʻt yoqdi”, deb aytadi.

Koʻnglimga gʻazab qilsam, “gunoh koʻzda, u (yorni) koʻrmaguncha bizga bu ish tufayli tuhmat yoʻq edi”, deb javob berdi.

Koʻzga aytaman: “Ey yuzi qora-yu qiligʻi yomon, telba koʻnglimning balo-yu qoʻrqinchiga sen sabab emishsan”.

Koʻz yigʻlab dedi: “Menda ham ixtiyor yoʻq edi, chunki u shoʻx malakning jamoli nogahon koʻrindi”.

Ey Navoiy, barcha oʻz uzrini aytdi, endi oʻlguncha kuy, zero, ishq oʻti senga azalning qismati ekan.

Yordin ayru ko'ngul – mulkedurur, sultoni yo'q,
Mulkkim, sultoni yo'q, jismedururkim, joni yo'q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufrog' dekdurkim, gul-u rayhoni yo'q.

Bir qaro tufrog'kim, yo'qtur gul-u rayhon anga,
Ul qorong'u kechadekdurkim, Mahi toboni yo'q.

Ul qorong'u kechakim, yo'qtur Mahi tobon anga,
Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni yo'q.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni oning bo'lmag'ay
Do'zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo'q.

Do'zaxekim, ravzayi rizvondin o'lg'ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastlig' imkoni yo'q.

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor
Hajrdin dardi-yu lekin vasldin darmoni yo'q.

Lug'at

1. **Ayru** – ayri, holi; ayrilgan.
2. **Mulke** – bir mulk, makon.
3. **Mahi toboni** – yorug' oy, to'lin oy.
4. **Sarchashmayi hayvon** – hayot bulog'i, obi hayot.
5. **Ravzayi rizvon** – jannat bog'i.
6. **Xumor** – ichkilik va shu kabilardan keyingi bosh og'rig'i.
7. **Mundoq** – bunday.

Nasriy bayon

Yordan holi ko'ngil sultoni yo'q mamlakat, sultoni yo'q mamlakat esa jonsiz jismdir.

Ey musulmonlar, jonsiz jismdan nima hosil, u gul-u rayhoni yo'q bir qora tuproqqa o'xshaydi.

Gul-u rayhoni yo'q qora tuproq bo'lsa yorug' oyi bo'lmagan qorong'u kechaga o'xshaydi.

Yorug' oyi bo'lmagan qorong'u kecha obi hayot bulog'i – tiriklik suvi bo'lmagan zulmatga o'xshaydi.

Hayot chashmasi bo'lmagan zulmat esa yonida jannat bog'i bo'lmagan do'zaxdir.

Jannat bog'idan noumid bo'lgan do'zax esa mastlik imkoni bo'lmagan xumorga o'xshaydi.

Ey Navoiy, unda shunday uqubatlar borki, hajridan dardi bor-u vaslidan darmoni yo'q.

Ko'rgali husnungi zor-u muhtalo bo'ldum sanga,
Ne baloliq kun edikim, oshno bo'ldum sanga.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko'ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak muhtalo bo'ldum sanga.

Men qachon dedim: «Vafo qilg'il manga», zulm aylading,
Sen qachon deding: «Fido bo'lg'il manga», bo'ldum sanga.

«Qay pari paykarg'a, – dersen, – telba bo'lding bu sifat?»
Ey pari paykar, ne qilsang, qil manga, bo'ldum sanga.

Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, ovora bo'l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.

G'ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.

Lug'at

1. **Ko'rgali** – ko'rgani.
2. **Mubtalo** – yo'liqqan, giriftor, uchragan, tutilgan.
3. **Baloliq** – baloli, balolarga to'la.
4. **Batarrak** – battarroq, ko'proq.
5. **Paykar** – jussa, gavda, haykal.
6. **Jomi Jam** – Jamshid jomi; Jamshid ismli shoh yasatgan tilsimli qadah.
7. **Xizr suyi** – Xizr suvi; obi hayot, tiriklik suvi.
8. **Mudom** – hanuz, hozirga qadar, hali ham.
9. **Soqiyo** – ey soqiy; **soqiy** – may quyuvchi, may tarqatuvchi.
10. **Joh** – amal, mansab-martaba; dunyo tashvishlari.
11. **G'ussa** – g'am, qayg'u.
12. **Chang** – musiqa asbobi; changal, qo'l panjalari, changak.
13. **Navoe** – ovoz, kuy; boylik; bahra, nasib.
14. **Ushshoq** – oshiqilar.
15. **Benavo** – yo'qsil, bechora.

Nasriy bayon

Husningni ko'rish uchun senga zor-u giriftor bo'ldim, u qanday baloli kun ediki, o'sha kun senga oshno bo'ldim.

Necha bor sendan sekin-asta ko'ngil uzishga urindim, vohki, kundan kunga battarroq giriftor bo'laverdim.

Men qachon “vafo qilgin” desam, sen zulm qilding, sen qachon “menga fido bo'lgin” desang, fido bo'ldim.

“Qaysi farishtadek go'zalga bu qadar telba bo'lding?” dersan, ey farishtadek go'zal, menga ne qilsang qil, ammo o'sha pari

sensan.

Ey ko'ngil, nasihatga rioya etmadim, endi ovvora bo'l, yuz balo yetmagandek men ham senga bir balo bo'ldim.

Ey soqiy, dunyo tashvishtarini tark qilib senga gado bo'lguninga qadar hamisha Jamshid jomi bilan Xizr suvi (obi hayot) nasibam edi.

Navoiydek senga asir-u bechora bo'lmaguncha oshiqlar ichra g'am-anduh changalidan biror-bir bahra (nasiba) topmadim; (anduh changi (musiqi asbobi)dan "Navo" nomi bilan yuritiladigan kuy ham topmadim).

Ko'nglung istar yorlar birla hamesha shod bo'l,
Mendin-u, kimdinki, ko'ngling istamas – ozod bo'l.

Garchi sabrim uyi yanglig' aylading vayron meni,
Doimo, yo Rabki, husnung mulkidek obod bo'l.

Men chekib anduh, o'lay, el joni bo'lsun ul Masih,
Sovrul, ey charxi nigun, v-ey dahri dun, barbod bo'l.

Bevafolar zulm-u bedodig'a ermassen harif,
Ey sinuq ko'nglum, agar xud shisha, gar po'lod bo'l.

Tuttum o'lmakdin tirilmak hajrida, tengdur manga
Emdi gar bergil ziloli Xizr, agar jallod bo'l.

Chekma boshkim, emin ermassen xazon yag'mosidin,
Bu chaman ichra agar savsan, agar shamshod bo'l.

Ey Navoiy, olam ahlig'a chu yo'q ermish vafo,
Kel-u, mundin nori bekaslik bila mo'tod bo'l.

Lugʻat

1. **Masih** – Iso paygʻambarning jon bagʻishlash fazilatiga ishora qiladi.
2. **Sovrul** – sovril, yaʼni sovirilib ket, yoʻq boʻl.
3. **Charxi nigun** – teskari osmon, qingʻir falak.
4. **Dahri dun** – pastkash dunyo, razil zamon.
5. **Bedod** – jabr, zulm, adolatsizlik.
6. **Harif** – qarshi, muqobil; sherik; oʻrtoq, ulfat.
7. **Ziloli Xizr** – Xizr suvi, obi hayot.
8. **Chekma bosh** – bosh tortma, rad etma.
9. **Yagʻmo** – talon-taroj, buzgʻunchilik.
10. **Savsan** – gulsapsar, qoʻgʻagul.
11. **Shamshod** – sarvga oʻxshagan xushqomat va chiroyli daraxt.
12. **Mundin nori** – bundan buyon.
13. **Bekaslik bila** – kimsasizlik bilan, yolgʻizlik bilan.
14. **Moʻtod** – odatlangan, oʻrgangan.

Nasriy bayon

Hamisha koʻngling istagan doʻstlar bilan shod boʻl, koʻngling meni-yu kimni istamasa, hammasidan qutil.

Garchi meni sabrim uyi kabi vayron qilgan boʻlsang ham, yo Rab, doimo husning mulkidek obod boʻl.

Men anduh chekib oʻlay, u Masih (yaʼni yor) esa elga jon bagʻishlasin, ey qingʻir falak, hoy pastkash dunyo, sovril-u barbod boʻl.

Ey siniq koʻnglim, gar shisha va yoxud poʻlat boʻlsang ham, bevafor zulm-u adolatsizligiga qarshi turolmassan.

Oʻlmoq va hajringda tiriklik barobardir, shu bois menga xoh obi hayot ber, xoh jallod boʻl – bu farqsizdir.

Bu chaman ichra gar savsan va yo shamshod boʻlsang ham, xazon (fasli)ning talon-taroji, bosqinidan ozod emassan, buni rad etma.

Ey Navoiy, olam ahlida vafo yo'q ekan, kel va bundan buyon
yolg'izlikka odatlan!

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrae andin tilarmen, bahramand etmas.

Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a
Ayon ul zahrchashm aylab, nihon bu no'shxand etmas.

Kerakmas Oy ila Kun shaklikim, husn-u malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o'z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.

Ko'ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.

Ul Oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.

Lug'at

1. **Arjumand etmoq** – aziz etmoq, hurmat qilmoq, loyiq ko'rmoq.
2. **Bahra** – hissa, nasiba; foyda, naf.
3. **Zahrchashm aylamoq** – yomon ko'z bilan qaramoq, xo'mraymoq.
4. **No'shxand etmoq** – shiringina kulmoq, kulib boqmoq.
5. **Chok-chok etmas** – tilim-tilim qilmas, so'kilmas.
6. **Band-band etmas** – bog'lamas, ulamas.
7. **Chobuk** – chaqqon, tezkor, epchil.

8. **Majnunshior** – majnundek, devonadek; oshiq.
9. **Samand** – sarg'ish ot, chopqir ot.
10. **Charx zoli** – falak kampiri; zolim dunyo.
11. **Sarrishta** – ipning uchi, arqon, bahona, asos.
12. **Kamand** – sirtmoq.
13. **Sipand** – isiriq.

Nasriy bayon

Men istagan kishi meni suhbatiga loyiq ko'rmaydi, (tabiiyki) meni istagan kishining suhbatini mening ko'nglim ham pisand etmas.

Mendan foyda istagan kishidan qanday naf ko'ray, axir, undan naf tilasam, u bahramand etmaydi.

Hur-u pari bazmini nima qilay, qatlim yo hayotim uchun hurning o'ldiruvchi nigoh tashlashi, parining esa pinhona jilmaymasligi ayon.

Oy bilan Kun (Quyosh)ning shakli kerakmas, chunki husn-u malohatdan Oy ichimni chok-chok etmas, Kun tanamni butun etmas.

Buzuq ko'nglimdan o'zga yerda ot choptirmaydigan, chaqqon qotildek bo'lgan o'zimning devonam kerak.

Falak kampiridan ko'ngil uz, firibiga aldanma, zero, oxir-oqibat bo'yningga ajal arqonidan boshqasini sirtmoq etmaydi.

U Oy (yor) o'tli yuzini ochsa, ko'z tegmasin deb, Navoiy u o't uzra muhabbat urug'idan boshqa narsani isiriq etmaydi!

Muvofiq kiydilar, bo'lmish magar Navro'z ila bayram,
Chaman sarvi yashil xil'at, mening sarvi ravonim ham.

Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon,
Aning shaydosi – bir dehqon, munga shaydo – bari olam.

Chaman sarvi qolib bebar, mening sarvim bo'lub dilbar,
Ani el aylabon muztar, bu eldin sekretib adham.

Qo'nub ul sarv uza bulbul, chekib gul shavqidin g'ulg'ul,
Bu sarv uzra ochilib gul, anga terdin tushub shabnam.

Qilib ohim sari parvo, bu yon mayl etmading qat'o,
Sabodin, ey qadi ra'no, bo'lur ham sarv gah-gah xam.

Bu bog' ichra may, ey soqiyki, bormen asru mushtoqi, –
Ki anda sarv ham boqiy emas, gul ahli ham mahkam.

Navoiy, ko'yin et manzil, yuz-u qaddig'a bo'l moyil, –
Ki bog' etmas seni xushdil, gul-u sarv aylamas xurram.

Lug'at

1. **Sarv** – tik o'sadigan, hamisha yashil tusdagi daraxt; yor.
2. **Xil'at** – hashamatli kiyim, sarpo.
3. **Sarvi ravon** – yurishlari go'zal yor, sevgili.
4. **Bebar** – hosilsiz, behosil.
5. **Muztar** – majbur bo'lgan, nochor; hayron qolgan.
6. **Sekretib** – sakratib.
7. **Adham** – qora; qora to'riq ot.
8. **G'ulg'ul** – qush ovoziga taqlid; shovqin, sayrash.
9. **Qat'o** – aslo, qat'ian.
10. **Sabo** – yoqimli shamol, Sharqdan esadigan shabada.
11. **May** – ichkilik, boda, sharob; muhabbat; ma'rifat.

12. **Soqiy** – may quyuvchi; ma'rifat tarqatuvchi.
13. **Asru** – juda ko'p, ortiq, talay.
14. **Mushtoq** – intizor, ilhaq.
15. **Ko'yin** – ko'chasini, mahallasini.
16. **Xurram** – shod, xursand.

Nasriy bayon

Chamandagi sarv (daraxti) bilan mening sarv (yor)im ham bir xilda yashil kiyim kiydilar, nima Navro'z kelib bayram bo'ldimi?

Chaman sarvi hayron qolgan, mening sarvim esa javlon qilgan, uning shaydosi bir dehqon bo'lsa, buning shaydosi butun olamdir.

Chaman sarvi hosilsiz qolgan, mening sarvim esa dilbar, shu bois el uni nochor qilgan, ammo mening sarvim el ustidan qora to'riqni sakratib yuradi.

U sarv uzra bulbul qo'nib, gul shavqidan shovqin solsa, bu sarv uzra gul ochilib, unga terdan shabnam tushadi.

Ey xushqomat yor, ohimga bir parvo qilib, bu tomon hech mayl etmading, axir, sarv ham goh-goh shabadadan egilib turadi.

Ey soqiy, bu bog'da judayam mayning mushtoqiman, chunki unda sarv ham boqiy emas, gullar ham barqaror emas.

Navoiy, ko'chasini manzil qilib, yuz-u qaddiga oshiq bo'l, zotan, bog' seni xushdil, gul-u sarv xursand etmas.

To muhabbat dashti bepoyonida ovoramen,
Har baliyat kelsa ishq oshubidin bechoramen,

El netib topqay menikim, men o'zumni topmamon,
Buylakim ishq-u junun sahrosida ovoramen.

Qaysi zaxmimg'a qilursen chora chun men, ey rafiq,
Tiyir boroni baliyatdin sarosar yoramen.

Oh dudi ichra bir uchqun kebi ko'rgan meni,
Bildikim, hijron tuniga kavkabi sayyora men.

Kecha o'rtansam, sahar faryod qilsam, ne ajab,
Ishq aro parvona-u bulbulg'a chun hamkoramen.

Ey xarobot ahli, gar siz mast o'lub, men bo'lmasam,
Ayb emas, ne chunki siz mayxora, men xunxoramen.

Ey Navoiy, bordi deb ahbob ta'jil etma ko'p,
It kebi men erishib ul korvonni boramen.

Lug'at

1. **Baliyat** – balolar.
2. **Oshub** – g'avg'o, fitna, betartiblik, besaranjomlik.
3. **Topmamon** – topmayman, topolmayman.
4. **Buyla** – bunaqa, bunday, xuddi.
5. **Junun** – jinnilik, savdoyilik.
6. **Zaxm** – yara.
7. **Tiyir boron** – o'q yomg'iri; mahbubaning kipriklari va nazari.
8. **Sarosar** – boshdan boshga, boshdan oyyoq.
9. **Yoramen** – yaradorman, jarohatlanganman.
10. **Kavkab** – yulduz, **kavkabi sayyora** – uchar yulduz.
11. **O'rtamoq** – kuymoq; azoblanmoq.

- 12. Xarobot ahli** – mayxona ahli; oshiqlar.
13. Mayxora – mayxo'r, may ichuvchi; ramziy ma'noda oshiq.
14. Xunxora – qon ichuvchi.
15. Ta'jil etmoq – tezroq harakat qilishga undamoq.

Nasriy bayon

Muhabbatning bepayon dashtida ovvoraman, ishq g'avg'osidan har turli balolar kelsa, chorasizman.

El qanday qilib meni topsin, axir, men o'zimni topolmayman, xuddiki men ishq-u devonalik sahrosida ovoraman.

Ey rafiq, qaysi jarohatimga chora qilasan, axir, men balo o'qlaridan boshdan-oyoq yaraman.

Oh dudi ichra meni bir uchqun kabi ko'rgan kishi, men hijron tuniga uchar yulduz ekanimni bildi.

Kechasi o'rtanib, sahar faryod qilsam, ayb emas, chunki ishq aro parvona-yu bulbulga hamkorman.

Ey mayxona ahli, agar siz mast bo'lib, men mast bo'lmasam, buning ajablanadigan joyi yo'q, zero, siz may ichuvchisiz, men esa qon ichuvchi (azob tortuvchi)man.

Ey Navoiy, do'stlar ketdi deb ko'p shoshirma, men ham u karvonga it kabi ergashib boryapman.

Sho'x ikki g'izolingni noz uyqusidin uyg'at,
To uyqulari ketsun, gulzor ichida o'ynat.

Tishlabki, soching o'rdung, ochqanda parishon qil,
Ofoq savodinda jon royihasin butrat.

Kulbamg'a xo'y afshon kel, zulfung qilib oshufta,
Anjum sipahin sindur, ofoq ulusin qo'zg'at.

Oraz quyoshin ochib, ashki qurug'an ko'zni
Ko'p hajrda yig'latding, bir vaslda ham yig'lat.

Bir oh ila kul bo'ldum, ey charx, tilab, topib,
Farhod ila Majnung'a oshiqliq ishin o'rgat.

Xoro tubig'a yotqung, yo'q sud agar yuz yil,
Ko'k atlası ustida jismingni, yotib, ag'nat.

Bazm ichra Navoiy ko'p yig'lar esa, ey soqiy,
Hush eltkuchi doru jomig'a aning chayqat.

Lug'at

1. **G'izol** – g'azol, kiyik. Bu yerda kiyik ko'ziga o'xshash yor ko'zlari nazarda tutilgan.
2. **Parishon qilmoq** – yoymoq, to'zg'itmoq.
3. **Ofoq** – ufqlar, osmon; **ofoq savodi** – tun qorong'iligi.
4. **Royiha** – rayhon.
5. **Butrat** – tarqat, tarat.
6. **Xo'yafshon** – (yomon) odatni tashlamoq.
7. **Oshufta** – parishon, to'zg'igan.
8. **Anjum sipahi** – yulduzlar lashkari.
9. **Ulus** – el, xalq.
10. **Oraz** – yuz.

11. **Ashk** – ko‘z yoshi.
12. **Farhod** – Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni qahramoni; Sharq adabiyotida oshiqlik timsollaridan biri.
13. **Majnun** – Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni qahramoni; Sharq adabiyotida oshiqlik timsollaridan biri.
14. **Xoro** – qattiq tosh, xarsang.

Nasriy bayon

Sho‘x ikki ohuchalar, ya‘ni ko‘zingni noz uyqusidan uyg‘ot, uyqulari ketgach gulzor ichra o‘ynat.

Sochingni tishlab o‘rding, ammo o‘rimlarini ochganda to‘zg‘itgin, go‘yo osmon qorong‘uligida jon rayhoni (ifori)ni tarqat.

Kulbamga sochingni yoyib terlagan bir holda kel, (bu bilan) yulduzlar lashkarini tor-mor etib, falak elini qo‘zg‘at.

Yoshi qurigan ko‘zni hajringda ko‘p yig‘latding, yuzing quyoshini ochib bir vaslda ham yig‘lat.

Ey samo, bir oh bilan kul bo‘ldim, Farhod va Majnunni qidirib topib, ularga oshiqlik ishini o‘rgat.

Yuz yil osmon atlası uzra jisming bilan yotib, uni ag‘nat, baribir hammasi foydasiz, chunki oxir-oqibat tosh (tuproq) tagida yotasan.

Ey soqiy, agar Navoiy bazmda ko‘p yig‘lasa, uning jomiga hushdan ketkazuvchi dori qo‘sh!

QIT'ALAR

Kamol kasbiga dalolat-u nuqsonidin izhori malolat

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o'Imag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Lug'at

1. **Kamol** – yetuklik, mukammallik.
2. **Farz o'Imag'ay** – farz bo'lmaydi, kerak yoki lozim bo'lmaydi.
3. **G'amnok** – g'amli, g'amgin.
4. **Notamom** – noto'liq, chala, nomukammal.
5. **Biaynih** – xuddi, aynan.
6. **Malolat** – malollik, siqilish, og'irlik.

Nasriy bayon

Kamolotni kasb etishga undash va kamolotning nuqsonli bo'lishi tufayli qayg'u yetishidan ogohlantirish.

Kamolot (yetuklik)ni (o'zingga) odat qil, ana shunda olam uyidan g'amgin chiqmaysan.

Zero, jahondan kamolotga erishmay o'tib ketish xuddi hammomga poklanish uchun kirib, yuvinmasdan chiqqanga o'xshaydi.

Falokatdin ayog'ig'a kafsh bo'lmag'anga chun kafsh uchun ayog'i bor, shukr vojibdur

Ulki, iflosdin ayog'inda
Kafsh yo'li azmi chog'i yo'qtur oning,
Shukr qildik boqib birav sori, –
Ki yururg'a ayog'i yo'qtur oning.

Lug'at

- 1. Kafsh** – kavush.
- 2. Azmi chog'i** – yurish payti.
- 3. Iflos** – muhtojlik

Nasriy bayon

**Falokat tufayli oyog'ida kavush bo'lmagan odam kavush
kiyishga oyog'i borligi uchun shukr qilishi lozim.**

Yo'lga chiqar mahal muhtojlik tufayli oyog'ida kavushi
bo'lmagan odam yurish uchun oyog'i bo'lmagan kishiga boqib
shukr qilsin!

Oltun, kumushga hirs man'ikim, tutmog'i ilikni qora qilur va muhabbati – ko'ngulni

Ko'p oltun, kumush sari qo'l sunmog'il, –
Ki tutsang, kafingni qora zang etar.
Ko'ngulda dog'i maylini asrama, –
Ki ko'nglungni dog'i hamul rang etar.

Lug'at

1. **Sunmoq** – cho'zmoq, uzatmoq.
2. **Kaf** – kaft.
3. **Dog'i** – yana, ham; dog'i, qora iz.
4. **Hamul** – xuddi o'sh, o'shanday.

Nasriy bayon

Oltin-kumushga xirs qo'yishni taqiqlash: oltinni ushlab qo'lni qora qiladi va unga muhabbat qo'yish ko'ngilni qora qiladi.

(Ey do'st), oltin-u kumush sari ko'p qo'l cho'zma, chunki ularni ushlab, kaftingni qora zang qiladi.

Ko'ngilda (oltin-u kumushga) mayl dog'ini saqlama, chunki bu dog' ko'nglingni kaftingdek qoraytiradi.

Devonda muhr bosqondin nafsiga shikast yetmagan uchun muhrga shikast bergani

Chun manga lutf etti shah devonda muhr,
Bu edi eldin quyi muhr urmog'im, –
Kim g'ururi nafs sarkash man'iga
Borchadin bo'lg'ay quyi o'lturmog'im.
Chun shikasti nafs hosil bo'lmadi,
Mundin o'ldi muhrni sindurmog'im.

Lug'at

1. **Lutf etti** – marhamat etdi.
2. **Devon** – davlat mahkamasi.
3. **Sarkash** – bebosh, o'jar.
4. **Man'** – taqiq, cheklov.
5. **O'lturmog'im** – o'tirmog'im, o'tirishim.

Nasriy bayon

Devonda muhr bosish orqali nafsini sindira olmagan uchun muhrni sindirgani haqida.

Shoh menga devonda muhrni topshirgan paytlar boshqalardan pastga muhr bosardim, toki barchadan quyi bo'lish orqali o'jar nafsini g'ururini man' etishni istagan edim.

Ammo nafsni yengish nasib etmadi, shu bois muhrni sindirdim.

**Yuqori o'lturmoq talashquchilarkim, hinduyi didbon
alardin yuqoriroqdurur, uchar qo'ng'uz – ilgariroq**

Yuqori o'ltururni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil.
O'lturur safda yuqoriliqdin
O'lturur safda yaxshiroq bilgil.

Lug'at

1. **O'lturur** – o'tirish.
2. **Kishilik** – insonlik, odamiylik, odamgarchilik.
3. **Didbon** – yuqoriroq joyda turib atrofni kuzatadigan nazoratchi; **Himduyi didbon** – hind qo'riqchi; to'ti.

Nasriy bayon

Yuqori o'tirishni talashuvchilar haqida (hayrat bilan) aytish mumkinki, to'ti ulardan yuqoriroq, uchar qo'ng'iz esa ilgariroqdir.

Kim yuqori o'tirishni tilasa, uni insoniylikdan yiroq bil. Safda yuqori o'tirishdan ko'ra safda o'tirishni yaxshiroq bilgil.

Yamon yamonlig'ini qilmasa, yaxshilig'cha bor va bir yaxshilig' qilsa – o'n yaxshi qiliqcha

Har kishikim topsa davron ichra joh-u e'tibor, –
Kim aning zotida bedod-u sitam bo'lg'ay qilig'.
Yaxshilig' gar qilmasa, bori yamonlig' qilmasa, –
Kim yamonlig' qilmasa, qilg'ancha bordur yaxshilig'.

Lug'at

1. **Davron** – davrlar, zamon, olam.
2. **Joh** – mansab, lavozim, martaba.
3. **Bedod-u sitam** – adolatsizlik-u zulm.
4. **Qilig'** – qiliq, qilmish, odat.

Nasriy bayon

**Yomon yomonligini qilmasa, bu ham bir yaxshilik va bir
yaxshilik qilsa, o'n yaxshilik qilganga teng.**

Har kim bu olamda mansab-u martabaga erishsa,
adolatsizlig-u jabr uning odati (qilig'i) bo'ladi.

U yaxshilik qilmaganiga yarasha yomonlik ham qilmasa edi,
zero, uning yomonlik qilmasligi yaxshilik qilgandek gap.

Amir ul-mo'minin Ali karramallohu vajhahu so'ziga tarjimakim – unzur limoqola lotanzur limanqola

Chun g'araz so'zdin erur ma'ni anga,
Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er.
So'zchi holin boqma, boq so'z holini,
Ko'rma kim der ani, ko'rgilkim, ne der.

Lugʻat

- 1. Gʻaraz** – maqsad, niyat.
- 2. Noqil** – soʻzlovchi, notiq.

Nasriy bayon

Moʻminlar amiri hazrat Alining “Unzur limoqola lotanzur limanqola” (kim deganiga emas, nima deganiga boq) soʻzining tarjimasi.

Soʻz aytishdan maqsad, xoh ayol, xoh erkak aytsin, maʼnodir.

Shu bois gapirayotgan odamning holiga emas, gapirayotgan soʻziga eʼtibor qarat, kim soʻzlayotganiga emas, qanday soʻz aytayotganiga diqqat qil.

NODIRA

G'AZALLAR

Qilmag'il zinhor izhor ehtiyoj,
Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj.

Hech kim olamda forig'bol emas,
Har kim o'z miqdoricha bor ehtiyoj.

Ganji husningni(ng) zakotin ber menga,
Sen g'aniysan, menda bisyor ehtiyoj.

Ko'zlarim aylar yuzingni orzu,
Kim erur ko'zguya diydor ehtiyoj.

Mustamand etti meni muhtojlik,
Qildi hojatmanding, ey yor, ehtiyoj.

Gar tilarsen obro' ahhob aro,
Aylama zinhor izhor ehtiyoj.

Qil ravo, albatta, oshiq hojatin,
Boqmag'il, arz etsa ag'yor ehtiyoj.

Bir tarahhum zohir etsang, netgusi,
Qildi husningga meni zor ehtiyoj.

Yor vaslini tilarman, Nodira,
Ayladi ko'nglimni afgor ehtiyoj.

Lugʻat

1. **Forigʻbol** – xotirjam, koʻngli tinch.
2. **Ganj** – xazina, boylik.
3. **Zakot** – boylikning qirqdan bir miqdorida olinadigan diniy soliq.
4. **Gʻaniy** – boy.
5. **Bisyor** – koʻp, ziyoda.
6. **Mustamand etmoq** – gʻamgin qilmoq.
7. **Ahbob** – doʻstlar.
8. **Agʻyor** – dushmanlar.
9. **Tarahhum** – rahm.
10. **Zohir etsang** – koʻrsatsang, namoyon etsang.
11. **Netgusi** – nima qiladi, nima boʻladi.
12. **Afgor** – yaralangan, majruh; oʻrtangan.

Nasriy bayon

Zinhor ehtiyojni tilga keltirma, chunki ehtiyoj aziz elni xor qiladi.

Hech kim olamda xotirjam emas, har kimning ham oʻziga yarasha tashvishi bor.

Sen boysan, mening esa ehtiyojim koʻp, shu bois menga husning xazinasidan zakot (ulush) ber (yaʼni husningni bir koʻrsat).

Chehraning koʻzguga ehtiyoji boʻlganidek koʻzlarim ham yuzingni orzu qiladi.

Muhtojlik meni gʻamgin etdi, ey yor, ehtiyoj hojatmandingga aylantirdi.

Agar doʻstlar ichida obroʻli boʻlishni istasang, zinhor ehtiyojningni aytni.

Albatta, oshiqning hojatini ravo qil, ammo dushmanlar hojatini soʻrasa, parvo qilma.

Bir rahm koʻrsatsang nima boʻladi, axir, ehtiyoj meni husningga zor etdi.

Nodira, yor vaslini tilarman, zero, ehtiyoj ko'nglimni o'rtadi.

Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin,
G'amim cho'x, ey ko'ngul, sen bexabarsen holi zorimdin.

G'uborim ishq vodiysida barbod o'ldi, andog'kim,
Biyobonlarda Majnun to'tiyo izlar g'uborimdin.

Qizil qondur sirishkim, za'farondur chehrayi zardim,
Meni kim ko'rsa farq etmas xazon birla bahorimdin.

Buzuldi ro'zgorim, xonayi ayshim xarob o'ldi,
Na rohat ko'rgamen emdi buzulg'on ro'zgorimdin.

Biyobonlarni izlab topmadim yorim so'rog'ini,
Berurman jon, sabo nogah xabar keltursa yorimdin.

Diyorim ahli mendin yorsiz begona bo'lmishlar, –
Ki men ham yorsiz ozurdamen yor-u diyorimdin.

Gahi yirtib yaqo, gah qon yutub, gohi fig'on ettim,
Nelar o'tdi bu aqshom, Nodira, joni figorimdin.

Lug'at

1. **Fig'on** – oh, faryod, nola.
2. **Gardishi davron** – davr aylanishi, kunlar o'tishi; zamonning o'zgarishi.
3. **Shahsuvor** – ot minishda mahoratli, otga yarashgan; yor.
4. **Cho'x** – ko'p.
5. **G'ubor** – gard, chang.
6. **Biyobon** – cho'l, dasht.
7. **To'tiyo** – mis zangidan hosil bo'lgan kristall (ko'z og'rig'i va ko'zni ravshanlantirish uchun ishlatilgan).

8. **Sirishk** – tomchi; ko‘z yoshi.
9. **Za‘faron** – xushbo‘y sariq gulli o‘simlik.
10. **Zard** – sariq (rang).
11. **Ro‘zgor** – turmush, tirikchilik.
12. **Xonayi aysh** – aysh uyi, farog‘at makoni.
13. **Ozurda** – ranjigan.
14. **Figor** – ezilgan, jarohatlangan.

Nasriy bayon

Ohki, bu aylanuvchi falak meni shahsuvor (yor)imdan ayirdi, ey ko‘ngil, g‘amim ko‘p, sen esa mening xor-u zor holimdan bexabarsan.

G‘uborim ishq vodiysida shamolga uchdi, shu bois Majnun sahroda g‘uborimdan (ko‘ziga surtish uchun) to‘tiyo izlab yuradi.

Ko‘z yoshim qizil qon, sariq yuzim esa za‘faron (guli)dek, kim meni ko‘rsa, xazonim bilan bahorimni farq etmaydi.

Ro‘zg‘orim buzildi, ayshim uyi xarob bo‘ldi, endi buzilgan ro‘zg‘orimdan qanday rohat ko‘raman?!

Sahrolarni izlab yorimning daragini topmadim, agar sabo nogoh yorimdan xabar keltirsa, jon berarman.

Yaqinlarim yorsiz (bo‘lgani uchun) mendan begona bo‘ldilar, zero, men ham yorsiz (bo‘lganim bois) yor-u diyorimdan ranjiganman.

Gohi yoqa yirtib, goh qon yutib, gohida fig‘on ettim, Nodira, ezilgan jonimdan bu oqshom nimalar o‘tdi?!

Bo'ldi ul fursatki, tarki suhbatl olam tutay,
Qon to'kib ko'z mardumidin shevayi motam tutay.

Shah Umar sulton jahondin ketdi ul shavkat ila
Emdi davron ahlidin chashmi muruvvat kam tutay.

O'tti subhi vasl, keldi shomi anduh-u firoq,
Marhabo, ey dog'i hasrat, kelki bazmi g'am tutay.

Bodasiz mino-vu jom oxir nashotafzo emas,
Emdi bodi g'unchayi gul bu chamanda kam tutay.

Qon bo'lur ko'ngul oning davrini yod etkan zamon,
Men nechuk tab'imni shod-u xotirim xurram tutay.

Furqatidin yig'lamoqdin qolmadi ko'z ichra yosh,
Emdi xuni dil ila ko'z safhasin purnam tutay.

Bazmi vaslin ko'rmaganlar furqatidin dog'dur,
Menki ko'rdim davlatin, o'zni nechuk beg'am tutay.

Topmog'im o'lmas muyassar ul guli xandon base,
Gar hama sayri jahon-u arsayi olam tutay.

Ko'nglumi hijron o'ti aylar damo-dam zaxmnok,
Qil madad, ey sabr-u toqatkim, anga marham tutay.

Yodgor ul shohdin qoldi manga durdonasi,
Emdi oni(ng) davlatin shukrini mustahkam tutay.

Nodira, ketti ilikdin shahriyorim domani,
Emdi avlodin duo etmak yo'lin mahkam tutay.

Lugʻat

1. **Mardum** – koʻzning qorachigʻi.
2. **Sheva** – odat, ravish, tarz.
3. **Umar sulton** – Nodiraning turmush oʻrtogʻi, Qoʻqon xoni, “Amiriy” taxallusi bilan sheʼrlar yozgan.
4. **Davron** – davr, zamon.
5. **Chashm** – koʻz.
6. **Mino** – shisha (idish).
7. **Jom** – qadah, may piyolasi.
8. **Nashotafzo** – xursandchilik bagʻishlovchi.
9. **Xotir** – oʻy, fikr, xayol; koʻngil.
10. **Furqat** – ayriliq, ajralish.
11. **Xun** – qon.
12. **Purnam** – sernam.
13. **Xandon** – kuluvchi; shod, masrur.
14. **Arsa** – maydon; sahro.
15. **Zaxmnok** – yarali.
16. **Marham** – malham, yaraga qoʻyiladigan dori.
17. **Doman** – etak, kiyimning quyi qismi.
18. **Ilik** – qoʻl.

Nasriy bayon

Olam ahli bilan aloqa-yu suhbatni tark etadigan fursat boʻldi, endi koʻz qorachigʻidan qon toʻkib, motam tutay.

Shoh Umar sulton shunday shavkat bilan olamdan ketdi, endi zamon ahlidan muruvvat bilan qarash kam boʻlishiga koʻnikay.

Vasl tongi ketdi, anduh-u firoq shomi keldi, marhabo, ey hasrat dogʻi, sen bilan gʻam bazmini tuzay.

Maysiz shisha-yu jom quvonch bagʻishlamas, endi bu chamanda gul gʻunchasining iforidan kam bahramand boʻlay.

Umarxonning davri yodga olingan zamon koʻngil qon boʻlar, men qanday qilib tabʼimni shod, koʻnglimni xursand tutay.

Ayriliqda yigʻlayvergandan koʻzimda yosh qolmadi, endi koʻz

pardasini dil qoni bilan namlab turay.

Vasli bazmini ko'rmaganlar ayriliq tufayli g'amga botgan, men esa davlatini ko'rdim, o'zimni qanday beg'am tutay?!

Garchi butun jahonni-yu olam yuzini sayr etsam ham, tabassumni ko'p qidirganim bilan topib bo'lmas.

Hijron o'ti dam-badam ko'nglimni jarohatlaydi, ey sabr-u toqat, madad bergin, toki jarohatlariga malham qo'yay.

U shoh (Umarxon)dan menga durdonasi (farzandi) yodgor bo'lib qoldi, endi uning davlatiga ko'plab shukrlar qilay.

Nodira, shahriyor (podshoh)im etagi qo'ldan ketdi, bundan buyon avlodini duo qilish ishini mahkam qilay.



ADABIYOT

(DARSLIK)

9-SINF



BOBUR

G'AZALLAR

Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur.

Agar ul qoshi yosiz bog' gashtini orzu qilsam,
Ko'zimga o'qdurur sarv-u ko'ngulga g'uncha paykondur.

Bahor-u bog' sayrin ne qilaykim, dilsitonimning
Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur.

Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor,
Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermaklik osondur.

Boshidin evrulur armoni birla o'ldum, ey Bobur,
Mening na'shimni bori ul pari ko'yidin aylondur.

Lug'at

1. **Tah-batah** – qatma-qat.
2. **Qoshi yo** – qoshi egik, qoshi kamon.
3. **Gasht** – aylanish, kezish, sayr etish.
4. **Sarv** – tik o'suvchi, hamisha yashil, xushbo'y daraxt.
5. **Paykon** – kamon uchidagi metall, boshoq.
6. **Dilsiton** – dilbar, dilni oluvchi, ko'ngilni o'ziga asir etuvchi.
7. **Zulf** – kokil, soch.
8. **Sunbul** – xushbo'y qora rangli o'simlik.
9. **Xiromon** – chiroyli yurish.
10. **Dushvor** – qiyin.
11. **Evrulmoq** – aylanmoq.
12. **Na'shimni** – tobutimni.
13. **Ko'y** – ko'cha, qishloq.
14. **Aylondur** – aylantir.

Nasriy bayon

Mening ko'nglim gulning g'unchasidek qatma-qat qon, agar yuz ming bahor bo'lsa ham ochilishi imkonsiz.

Bordiyu qoshi kamon (yor)siz bog' sayrini orzu qilsam, sarv ko'zimga o'q(dek qadalar), g'uncha esa ko'nglimga paykon(dek sanchilar).

Bahor-u bog' sayriga ne hojat, axir, dilbarimning yuzi gul, sochi sunbul, qomati esa xushqad sarv-ku!

Visoli lazzatidan zavqlanish mushkul, biroq firoqi shiddati (qattiqligi)da jon berish oson.

(Yorning) boshidan aylanish (ziyosat etish) armoni bilan o'ldim, shu bois, ey Bobur, tobutimni u parining ko'chasidan aylantir.

Sendek menga bir yori jafakor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

Bu shakl-u shamoyil bila xud hur-u parisen
Kim, jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.

Ag'yor ko'z olida-u ul yor ayon yo'q,
G'am xori ko'ngul ichra-yu g'amxor topilmas.

Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,
Ko'zni yumub ochquncha, bu gulzor topilmas.

Bobur seni chun yor dedi, yorlig' etgil,
Olamda kishiga yo'q esa, yor topilmas.

Lug'at

1. **Jafokor** – jafo qiluvchi.
2. **Xud** – albatta, haqiqatan.
3. **Jinsi bashar** – odam zoti.
4. **Ag'yor** – begonalar, yotlar, raqiblar.
5. **Xor** – tikan.

Nasriy bayon

Menga sen kabi bir jafokor yor topilmas, senga esa men kabi bir zor vafodor topilmas.

Bu shakl-u shamoyil bilan, haqiqatan, hur-u parisan, chunki odam zoti ichra sendayi topilmas.

Raqiblar (oshiqning) ko'z oldida-yu, yor ko'rinmas, g'am tikani ko'ngil ichra, lekin bir g'amxo'r topilmas.

Ey gul (yor), meni zor etma, chunki ko'z ochib yumguncha husning chamanida bu gulzor qolmaydi.

Bobur seni yor deb atadi, yorlik qilgin, yo'qsa kishiga olamda yor topilmas.

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,
Sening birla chiqishmoqlik dag'i bisyor mushkuldur.

Mizojing nozik-u sen tund, men bir beadab telba,
Senga holimni qilmoq, ey pari, izhor mushkuldur.

Ne osig' nola-u faryod xobolud baxtimdin,
Bu unlar birla chun qilmoq ani bedor mushkuldur.

Manga osondurur bo'lsa, agar yuz ming tuman dushman,
Vale bo'lmak jahonda, ey ko'ngul, beyor mushkuldur.

Visolinkim tilarsen nozini xush tortqil, Bobur
Ki, olam bog'ida topmoq guli bexor mushkuldur.

Lug'at

1. **Dag'i** – tag'in, yana, ham.
2. **Bisyor** – ko'p, g'oyat.
3. **Mizoj** – mijoz, tabiat, hol.
4. **Tund** – shiddatli, qattiq; g'azabli; asov, sarkash, sho'x.
5. **Osig'** – foyda.
6. **Xobolud** – uyqudagi.
7. **Un** – ovoz, sas.
8. **Tuman** – o'n ming.
9. **Bexor** – tikansiz.

Nasriy bayon

Ey yor, garchi sensiz sabr qilmoq mushkul bo'lsa ham, sen bilan chiqishmoqlik undan-da mushkul.

Sen tabi nozik-u darg'azabsan, men esa bir odobsiz telba, ey pari, senga holimni aytib berish mushkuldir.

Mudragan baxtim tufayli nola-yu faryod qilishdan nima naf, baribir bu ovoz bilan yorni uyg'otish mushkuldir.

Agar yuz minglab dushman bo'lsa, menga (ular bilan kurashish) oson, lekin, ey ko'ngil, jahonda yorsiz bo'lish mushkuldir.

Bobur, visolini tilasang, nozini xush qabul qil, zotan, olam bog'ida tikansiz gul topmoq mushkuldir.

MASHRAB

G'AZALLAR

Ishq vodisidin bir kecha men hay-haylab o'ttum,
Monandi nayiston guliga o't qalab o'ttum.

Ofoqni bir lahzada kezdim na ajabdur,
Mino tog'idin akkasifat hakkalab o'ttum.

Ottim fash-u dastorini devonalig' aylab,
Parvonasifat jonimi o'tqa qalab o'ttum.

Bildimki, vafosi yo'q ekan ushbu jahonni,
Mardona bo'lub, balki, etak siltalab o'ttum.

Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi,
"Borg'il nariga!"— deb ketig'a shattalab o'ttum.

Bildimki, oni dushmani makkorayi ayyor,
"Lo!"— tirnog'i birla yuzini tirmalab o'ttum.

Mardoni Xudo dediki: "Dunyo mayi achchig",
Achchig'lig'ini bilmak uchun bir yalab o'ttum.

Nafs kofiri birla tun-u kun qildim urushni,
Tanho qilichi birla urub, qiymalab o'ttum.

Xomush pichog'in har dam oning bo'g'zig'a qo'ydim,
Cho'g' nayzasi birla ko'zini nayzalab o'ttum.

Devonayi Mashrab, bu so'zung dardga davodur,
Oshiq elining ko'nglig'a bir o't qalab o'ttum.

Lug'at

1. **Monand** – kabi, misli.
2. **Nayiston** – qamishzor.
3. **Ofoq** – dunyo.
4. **Mino** – tog' nomi.
5. **Akkasifat** – hakkadek, zag'izg'on kabi.
6. **Fash-u dastor** – salla va pechi.
7. **Parvonasifat** – parvonadek; **parvona** – sham atrofida aylanuvchi kichik kapalak.
8. **Shattalab** – shapatilab, urib, tepib.
9. **Makkor** – makr, hiyla qiluvchi, shum.
10. **Lo** – yo'q.
11. **May** – sharob, boda; ishq.
12. **Kofir** – tanimovchi, inkor etuvchi, islomni tanimaydigan, g'ayri din.

Nasriy bayon

Men bir kecha ishq vodiysidan hayhaylab (shovqin qilib, fig'on chekib) o'tdim, go'yoki qamishzorning guli (momig'i)ga o't qo'yib o'tdim.

Ajablanmang, butun dunyoni bir lahzada aylanib chiqdim, Mino tog'idan ham hakkadek o'tdim.

Devonalik qilib salla-yu pechini otdim, jonimni parvonadek o'tga qalab o'tdim.

Ushbu jahonning vafosiz ekanini bildim, shu bois mardona turib, (bu dunyodan) etak siltab o'tdim.

Dunyo yasanib, jilva qilib oldimga keldi, "nari bor" deb ketiga urib o'tdim.

Uni shum ayyor dushman deb bildim, shu bois "yo'q" degan tirnoq bilan yuzini tirmalab o'tdim.

Xudoning mardlari "dunyoning mayi achchiq" dedilar, achchiqligini bilish uchun (undan) bir yalab o'tdim.

Nafs kofiri bilan tun-u kun urush qildim, yolg'izlik qilichi bilan

urib, qiymalab o'tdim.

Har dam xomushlik pichogini nafsning bo'g'ziga qo'ydim,
(qizdirilib) cho'g' bo'lgan nayza bilan ko'zini nayzalab o'tdim.

Devona Mashrab, bu so'zing dardga davodir, oshiqqlarning
ko'ngliga bir o't qalab o'tdim.

Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar.

Kishig'a ishq o'tidin zarraye yetsa, bo'lur giryon,
Bo'lub besabr-u betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rtar.

Nechuk toqat qilay, do'stlar, bu dard ila bo'lub hayron,
G'amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig'on o'rtar.

Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,
"Nigoro!" deb oting aytsamki, shavqingdin zabon o'rtar.

Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay,
Tilim lol-u ko'zum giryon, so'ngaklarni nihon o'rtar.

Na qattig' kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo'lmoq,
Mening ohim o'tig'a bul zamin-u osmon o'rtar.

Yurakda dard-u g'am qat-qatki, menda qolmadi toqat,
Agar bir zarrasin bul vaqt desam, ishq bayon o'rtar.

Bu dard ila xarob o'ldum, kelib holimni so'rmassan,
Unum chiqsa yurakdin, bu tan-u jon, ustixon o'rtar.

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshig'a solma,
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon o'rtar.

Lugʻat

1. **Oʻrtar** – yondirar, kuydirar.
2. **Taqi** – tagʻin, yana.
3. **Xonumon** – uy-joy; bor-bud.
4. **Giryon** – yigʻlovchi, yigʻlab turgan.
5. **Chunon** – shu qadar, shunchalar.
6. **Figʻon** – nola, oh-u zor, faryod.
7. **Bexonumon** – darbadar, sarson; faqir.
8. **Firoq** – ayriliq.
9. **Nigoro** – ey nigor, yaʼni ey yor.
10. **Shavq** – zoʻr havas, qattiq intilish.
11. **Zabon** – til, lison.
12. **Qayu** – qaysi (soʻroq olmoshi).
13. **Soʻngak** – suyak.
14. **Nihon** – yashirin, pinhon.
15. **Un** – ovoz, sas, tovush.
16. **Ustixon** – suyak, soʻngak.
17. **Mahshar** – toʻplanadigan maydon; qiyomat.
18. **Bihisht** – jannat.
19. **Jovidon** – abadiy, mangu, boqiy.

Nasriy bayon

Agar oshiqligimni aytsam, jon kuyib, jahonga oʻt ketar, bu ishq sirrini bayon etsam, u yana borliqni kuydirar.

Ishq oʻtidan kishiga bir zarra tushsa, (tinmay) koʻz yoshi toʻkar, besabr-u betoqat boʻlib, yurak-bagʻri qattiq oʻrtanar.

Doʻstlar, bu dard bilan hayron qolib, qanday toqat qilay, gʻamim boshqa, alam boshqa, figʻon yuragimni kuydirar.

Men bir bechora yoʻqsil har dam firoqingda tinmay “ey, nigor” deb oting aytsam, shavqingdan tilim kuyar.

Ey jon, vasfingni qaysi til bilan bayon qilay, tilim lol-u koʻzim yoshli, suyaklarni pinhon oʻrtar.

Dilbar, visolingdan judo boʻlmoq qanday ogʻir kun, ohim

o'tidan bu zamin-u osmon kuyar.

Yurakda dard-u g'am qat-qat, shu bois menda toqat qolmadi, bordiyu hozir bir zarrasi haqida aytsam, ishqilimni kuydirar.

Bu dard bilan xarob bo'ldim, kelib holimni so'ramaysan, mabodo yurakdan tovushim chiqsa, bu tan-u jon, suyaklar kuyar.

Ey jon, Mashrab dardini hech kimning boshiga solma, agar qiyomatda oh ursam, abadiy jannatga o't tushar.

OGAHIY

G'AZALLAR

Baland aylab quyoshga poya navro'z,
Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z.

Kelib fayz-u nishot-u aysh birla,
Muhayyo qildi elga voya navro'z.

Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli,
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.

Qilibdur mahliqolarning yuzini
Latofat mus'hafig'a oya navro'z.

Kiyib ahli g'ino yuz rang xil'at,
To'lo boshdin ayoq peroya navro'z.

Hama o'ynab olib qo'lg'a yumurta,
Mening ilgimda yoqtur xoya navro'z.

Diramdur moyasi ishrat ulusg'a,
Vale men bo'lmisham bemoya navro'z.

Janobi shahg'a keldim bu jihatdin,
Ko'zim yoshig'a toya-toya navro'z.

Ki shoyad o'zgalardek Ogahiyini
Tarabnok ayladi beg'oya navro'z.

Lug'at

1. **Poya** – qadr, daraja, bosqich.
2. **Nishot** – shodlik.

3. **Voya** – muqaddima; bahra; istak.
4. **Tarab** – xursandchilik, shodlik.
5. **Tifl** – go'dak, chaqaloq.
6. **Dahr** – dunyo, olam, zamon.
7. **Zol** – kampir.
8. **Magarkim** – ammo, lekin; shekilli, ...mikan.
9. **Doya** – enaga.
10. **Mahliqo** – oyyuzli, go'zal.
11. **Mus'haf** – kitob; Qur'on.
12. **Oya** – oyat, ya'ni nishon, belgi; Qur'on jumlası.
13. **G'ino** – boylik.
14. **Xil'at** – kiyim, hashamatli kiyim, sarmo.
15. **Peroya** – ziynat, bezak.
16. **Yumurta** – tuxum.
17. **Xoya** – tuxum.
18. **Diram** – dirham.
19. **Moya** – mohiyat, narsaning asli; dastmoya.
20. **Ulus** – xalq.
21. **Tarabnok** – xursandlik.
22. **Toya-toya** – toyib-toyib.

Nasriy bayon

Navro'z quyoshning martabasini baland qilib, yer yuzidan soyani ko'tardi.

Fayz-u shodlik, quvonch bilan kelib, elning istagini muhayyo qildi.

Dunyo kampiri shodlik go'dagini dunyoga keltirdi, ammo navro'z unga doya bo'ldi.

Navro'z go'zallar yuzini latofat kitobiga nishon qildi.

Boylar yuz xil sarpolar kiygani tufayli navro'z boshdan oyoq bezandi.

Hamma qo'lga tuxum olib o'ynaydi, menda esa tuxum yo'q.

Xalq ishratining moyasi (sababi) diram (pul), lekin men

bemoya bo'lganman.

Shu bois ko'zimning yoshiga toya-toya shohning huzuriga keldim.

Shoyad, navro'z o'zgalardek Ogahiyini bag'oyat xursand qildi.

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun "nas" kelturur "nun" eltibon "sod" ustina.

Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.

Noz-u ado-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.

Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.

Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin birich bo'lmag'ay,
Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.

Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zor-u noshod ustina.

Lugʻat

1. **Mushkln** – mushk rangli, qora tusli, mushk hidli.
2. **Hayʻat** – shakl, surat; astronomiya.
3. **Chashmi jallod** – jallod koʻz.
4. **Nas** – hukm; aniq dalil.
5. **Nun** – arab alifbosidagi “n” harfining talaffuzi.
6. **Sod** – arab alifbosidagi “s” harfining talaffuzi. Baytda nun va sod harflarining qoʻshilishidan “nas”, yaʼni *hukm* soʻzining hosil boʻlishi nazarda tutilgan.
7. **Oraz** – yuz, chehra.
8. **Payvand boʻlmoq** – ulanmoq; yetishmoq.
9. **Shamshod** – xushqomat va chiroyli daraxt.
10. **Ado** – bayon, ifoda; karashma, noz, goʻzal qiliqlar.
11. **Gʻamza** – koʻz ishorasi, koʻz bilan ishora qilish; noz bilan kiprik suzib boqish.
12. **Dushvor** – mushkul, qiyin.
13. **Bedod** – jabr, zulm, adolatsizlik.
14. **Gardun** – falak, taqdir.
15. **Besutun** – 1) osmon; 2) Erondagi togʻ nomi.
16. **Mehr** – quyosh, oftob.
17. **Xok** – tuproq.
18. **Sulaymon** – shamol va devlarni boʻysundirish qudratiga ega paygʻambar.
19. **Bod** – shamol.
20. **Xayl** – guruh, toʻda, toʻp.
21. **Noshod** – xafa, shod emas, qaygʻuli.

Nasriy bayon

Qora qoshining surati (jallod) ko'zining ustida, bu holat go'yoki "sod" (ص)ning ustiga "nun" (ن)ni to'ntarib, meni qatl etish uchun "nas" (نص) – dalil keltirganga o'xshaydi.

Agar shamshod daraxtiga gul payvand bo'lganini ko'rmagan bo'lsang, (u yorning) zebo qomati bilan chehrasini tamosho qil.

Nozi, so'zi-yu ko'z suzishi dam-badam menga qasd qilar, vohki, bir odamizod ustiga shunchalik ham ofat bo'larmi?

Men xastaga endi jonni asrash mushkul, chunki qotil ko'zi har lahza zulm ustiga zulm etadi.

Shaydo ko'ngil shom-u sahar u yorning gul yuzi shavqi bilan ming xil faryod ustiga bulbuldek yuz navo ham qiladi.

Agar falak mingta ulkan Besutun tog'ini Farhod ustiga tashlasa ham, boshimga yoqqan g'am toshining mingdan biricha bo'lmaydi.

Ey shoh, karam qilganingda yaxshi-yu yomonni teng tut, zero, quyosh nuri vayron-u obod ustiga teng tushadi.

Jahonda necha yil Sulaymondek shamol ustiga taxtingni qurib sayr etsang ham, oxir-oqibat tanang tuprog'i shamolga sovuriladi.

Ogahiy qanday jur'at bilan so'z aytishga og'iz ochsin, axir, u zor-u nochorning ustiga yuzlab g'am lashkari hujum qilgan.

Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo'lub, boshingdin aylansun,
Yangi oy yuz tavozu' ko'rguzub, qoshingdin aylansun.

Agarchi la'l-u yoqut el zamirig'a mufarrihdur,
Hayotafzo iki la'li guharpoishingdin aylansun.

Tan-u jonim hadaf aylab, o'q-u tosh otsang, ey chobuk,
Biri o'qingdin evrulsun, biri toshingdin aylansun.

Raqibing gar erur xasmim, ani yo'ldosh etub kelsang,
Sanga jon sadqa bo'lsun, jism yo'ldoshingdin aylansun.

Chu o'n sakkizga yetti yoshing, ol burqa' jamolingdin
Ki, o'n sakkiz ming olam o'n sakkiz yoshingdin aylansun.

Boqib ko'z uchidin pinhon fosh etding tag'ofillar,
Yo'q-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansun.

Necha qallosh esam ham, ag'niyo ollida bosh egmon,
G'aniylar himmat ichra ushbu qalloshingdin aylansun.

Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahlig'a bergil,
Riyo-vu kizb ahli noning-u oshingdin aylansun.

Ul oy ko'nglig'a qildi, Ogahiy, oh-u yoshing ta'sir,
Bori jon-u jahonim oh ila yoshingdin aylansun.

Lug'at

1. **Sadqa** – sadaqa, xayr-ehson, qurbon.
2. **Tavozu'** – tavoze, odoblilik, o'zini past tutish.
3. **Zamir** – ich, ko'ngil.
4. **Mufarrih** – shodlik keltiruvchi.
5. **Hayotafzo** – hayotni yashnatuvchi.
6. **Guharposh** – gavhar sochuvchi.
7. **Hadaf** – nishon.
8. **Chobuk** – sho'x, o'ynoqi go'zal.
9. **Xasm** – dushman.
10. **Burqa'** – yuz pardasi, hijob.
11. **Tag'ofil** – beparvolik.
12. **Hamul** – o'sha, shunday, xuddi o'zi.
13. **Qallosh** – e'tiborsiz, faqir.
14. **Ag'niyo, g'aniy** – boy, badavlat.
15. **Sidq ahli** – rostlikni sevuvchi, chin so'zli kishilar; haqiqat ahli.

16. Riyo-vu kizb ahli – riyokor va yolg'onchilar.

Nasriy bayon

Yuzing och, buni ko'rgach quyosh sadqang bo'lib, boshingdan aylansin, yangi oy esa tavoze ko'rsatib qoshingdan aylansin.

Garchi la'l-u yoqut el ko'ngliga quvonch keltiruvchi bo'lsa ham, hayotni yashnatadigan ikki gavhar sochuvchi labingdan aylansin.

Ey sho'x, bordiyu tan-u jonimni nishon qilib o'q-u tosh otsang, biri o'qingdan o'grilsin, biri toshingdan aylansin.

Raqibing garchi dushmanim bo'lsa ham, maboda uni yo'ldosh etib kelsang, senga jon sadqa bo'lsin, jismim esa yo'ldoshingdan aylansin.

O'n sakkiz yoshga yetding, jamolingdan pardani ko'tarki, o'n sakkiz ming olam o'n sakkiz yoshingdan aylansin.

Ko'z qiridan pinhon boqib o'zingni beparvodek tutding, bor-u yo'g'im ana o'sha pinhon-u o'zingni tutishingdan aylansin.

Har qancha faqir bo'lmay boylar oldida bosh egmasman, zotan, badavlatlar himmat borasida ushbu faqiringdan aylansin.

Ey saxiy, agar non bilan osh berar bo'lsang, haqiqat ahliga ber, riyokor va yolg'onchilar noning-u oshingdan nari tursin.

Ogahiy, oh-u yoshing ul oyning ko'ngliga ta'sir etdi, barcha jon-u jahonim oh-u yoshingdan aylansin!

TARJI'BAND

I

Dahr uyi bunyodkim, su uzradir, mahkam emas,
Onda kirgan el xavotirdin amon bir dam emas.
Doimo vayronlig' osori oning arkonidin,
Borcha olam ahlig'a ma'lum erur, mubham emas.
Kecha-yu kunduz yog'ar idbor gardi saqfidin,
Yoqmoqi har dam fuzun oning zamoni kam emas.
Bu sifatlig' uy aro har kimki maskan ayladi,
Xotiri oning xavotirdin dami beg'am emas.
Ushbu mehnatxonada gar shoh bo'lsun, gar gado,
Bir nafas aysh-u farog'at jomidin xurram emas.
Onda har kim boshig'a yuz dardu g'am aylab hujum,
Bir kishi yo'q ashki hasratdin ko'zi purnam emas.
Ko'bdur onda ishrat ummidi bila tutg'on makon,
Shohidi maqsudig'a lekin biri hamdam emas.
Borcha zindoni baliyatg'a bo'lubdur muftalo,
Umri ichra bir nafas osuda bir odam emas.
Dahr bir vayronaedurkim, xarob obod erur,
Chiqsa ondin har kishi – g'am bandidin ozod erur.

II

Dahri dun ayyorasikim, yo'q ango mehr-u vafo,
Peshasi kin-u nifoq-u odati – javr-u jafo.
Yo'qturur aslo hamul makkora qotil zotida,
Zarracha rahm-u muruvvat, qatracha sharm-u hayo.
Hiyla domig'a xaloyiqni giriftor etgusi,
Ko'rguzub g'anj-u dalol-u g'amza-yu noz-u ado.
Ishvalar zohir qilur har lahza yuz nayrang ila,
Toki el jon-u dilig'a solg'ay oshub-u balo.
Qaddi shavqi ichradur tanlarga yuz zahmi sinon,
Kirpiki fikridadur jonlarga ming nishi izo.
Zulfining savdosi domida qilib zor-u asir,

Aylagay jumla xaloyiq ro'zg'orini qaro.
Hajr zahri birla aylab elni doim talxkom.
Vasl no'shi birla bir dam aylamas komin ravo.
Qatl etar oxir tuman nokomlig' tig'i bila,
Kimsaki, bo'lmish oning qaydi g'amig'a muftalo.
Dahr bir vayronaedurkim, xarob obod erur,
Chiqsa ondin har kishi – g'am bandidin ozod erur.

Lug'at

1. **Dahr** – dunyo.
2. **Bunyod** – asos, poydevor, tartib.
3. **Osori** – belgisi.
4. **Arkon** – ruknlar, ustunlar, tayanchlar.
5. **Mubham** – yashirin, noaniq, chigal.
6. **Ildor** – baxtsizlik, ishi oldinga yurmaslik.
7. **Saqf** – ship, uy tepasi, gumbaz.
8. **Fuzun** – ko'p, ziyoda, ortiq.
9. **Xotir** – ko'ngil, xayol, botin.
10. **Jom** – may ichiladigan qadah, kosa.
11. **Ashk** – ko'z yoshi.
12. **Purnam** – namli, ho'l.
13. **Shohidi maqsud** – maqsad go'zali; asl maqsad.
14. **Baliyat** – balo, ranj, mashaqqat.
15. **Muftalo** – yo'liqqan, tutilgan, giriftor bo'lgan.
16. **Osuda** – sokin, tinch.
17. **Band** – kishan, bo'g'ov.
18. **Dahri dun** – pastkash dunyo, razil dunyo.
19. **Ayyora** – ayyor ayol, makkor kampir.
20. **Pesha** – hunar, kasb, odat.
21. **Hamul** – o'sha, shunday, xuddi o'zi.
22. **Dom** – tuzoq.
23. **Giriftor etmoq** – yo'liqtirmoq.
24. **Dalol** – qiliq, noz-karashma.

25. **G'amza** – ko'z ishorasi, ko'z bilan ishora qilish; noz bilan ko'z suzib boqish.
26. **Ishva** – nozli, maftun etuvchi harakat.
27. **Zohir qiiur** – ko'rsatar, namoyon etar.
28. **Oshub** – g'avg'o, to'palon, hayajon, qo'rquv.
29. **Shavq** – kuchli havas, intilish, orzu.
30. **Zahmi sinon** – nayza yarasi.
31. **Nishi izo** – ozor nishi, xijolat tikoni.
32. **Savdo** – qora o't, umuman qora; kuchli ehtiros; ishq, orzu.
33. **Talxkom** – achchiq turmush.
34. **No'sh** – totli, shirin ta'm; asal, bol.
35. **Komin** – maqsadini, niyatini.
36. **Nokomlig'** – mahrumlik, bebahralik.
37. **Qayd** – band, bo'g'ov, kishan.

Nasriy bayon

I

Bu olam uyi suv uzra bunyod bo'lgan, shu bois mahkam emas, unga kirgan el bir dam xavotirdan xoli emas.

Olam ahliga doimo uning ustunlaridan vayron bo'lish nishonalari ma'lum, bu yashirin emas.

Kecha-yu kunduz shiftidan baxtsizlik gardi tushar, bu hol tobora ko'payar, sira kamaymas.

Kimki bunday uy ichra o'ziga maskan tutsa, uning ko'ngli bir dam xavotirdan beg'am emas.

Xoh shoh, xoh gado bo'lsin ushbu mehnatxonada aysh-u farog'at jomidan bir nafas xurram emas.

U yerda har kimning boshiga yuzlab dard-u g'am hujum qiladi, shu bois ko'zi hasrat yoshidan namli bo'lgan birorta kishi yo'q.

Ishrat umidida u uyda makon tutganlar ko'p, lekin birortasi o'z maqsadiga erisholmagan.

Barcha balolar zindoniga tutilgan, shu bois u yerda umri

davomida bir nafas osuda bo'lgan odam yo'q.

Dunyo shunday vayronaki, kim undan chiqsa, xaroba obod bo'lur va u g'am bandidan ozod bo'lar.

II

Razil dunyoning makkor kampiri shundayki, unda mehr-u vafo yo'q, uning hunari kin-u nifoq solih, odati esa jabr-u jafo.

Bu makkora qotilning zotida zarracha rahm-u muruvvat, zig'ircha sharm-u hayo yo'q.

U ganj, qiliq, ko'z suzish, noz-u ado ko'rsatib, xaloyiqni hiyla tuzog'iga giriftor etadi.

Har lahza yuz nayrang bilan ishvalar ko'rsatib, elning jon-u diliga hayajon-u balo soladi.

Qaddining shavqi tufayli tanlarda yuzlab nayza jarohati bor, kiprigi xayolidan jonlarga minglab xijolat tikanlari bor.

Zulfining qora tuzog'ida zor-u asir qilib, butun xaloyiq ro'zg'orini qora qiladi.

Hijron zahari bilan doim elni baxtsiz etib, bir dam visol sharbati bilan maqsadiga yetishtirmas.

Kimki uning g'ami kishaniga yo'liqqan bo'lsa, oxir uni behad noumidliklar bilan qatl etar.

Dunyo shunday vayronaki, kim undan chiqsa, xaroba obod bo'lar va u g'am bandidan ozod bo'lar.

TUYUQLARI

G'am yuki to qomatim yo qilmadi,
Ohim o'tig'a falak yoqilmadi,
Qilmadi rahme mango, xud o'zgaga
Bilmadimkim, qildimu yo qilmadi.

Lug'at

1. **Yo qilmadi** – egmadi, bukmadi.
2. **Yoqilmadi** – yonmadi, kuymadi.
3. **Xud** – faqat, yolg'iz, birgina.
4. **Yo qilmadi** – yoki qilmadi.

Nasriy bayon

G'am yuki qomatimni yo qilmaguncha (egmaguncha), ohim o'tiga falak yoqilmadi.

Menga aniq rahm etmadi, bilmadim o'zgaga (rahm) qildimi yo qilmadi.

Do'stlar, hamrohlig' aylab boringiz,
Tundxo' yorim qoshig'a boringiz,
Bir kecha bazmimg'a kelturmak uchun,
Bosh ayoqig'a qo'yub yolboringiz.

Lug'at

1. **Boringiz** – barchangiz.
2. **Tund xo'** – o'jar, noziktabiat.
3. **Boringiz** – boringlar.
4. **Yolboringiz** – yolvoringiz, yolvoring, yalining.

Nasriy bayon

Do'stlar, boringiz (barchangiz) hamrohlik qilib, o'jar yorimning qoshiga boringiz.

Bir kecha bazmimga keltirish uchun oyog'iga bosh qo'yib yolvoringiz.

QASIDA

OGOHNOMA

Shahanshahliq o'lsun muborak sango,
Madadkor Tangri taborak sango.
Zamiringni sabr aylabon shod tut,
Bori kulfat-u g'amdin ozod tut.
Ato so'gidin bo'lma anduhgin,
Ko'ngulni bu g'am birla qilma hazin.
Agarchi bu g'am asru dushvordur,
Vale chekkali banda nochordur.
Eshit bu hazin bandadin ma'rifat
Ki, degum necha manfaatlik nukat.
Ki, to qildi mavjud olamni haq,
Yaratdi bari xayli odamni haq.
Alarg'a qilib yer yuzini makon,
Necha nav' ne'matlar etdi ayon.
Jahon ichra xalq ayladi shohlar,
Qavi qudrat-u sohibi johlar.
Qilib ba'zi lutf-u karam oshkor,
Vale ba'zi zulm-u sitam ixtiyor.
Yetib ba'zidin elga rohat base,
Vale ba'zidin ranj-u mehnat base.
Bo'lub ba'zi tahsini rahmatg'a to'sh,
Vale ba'zi nafrin-u la'natg'a to'sh.
Qilib saltanat barcha o'z komicha,

Surub hukmini ko'ngli oromicha.
Agar yaxshi erdi va gar xud yamon,
Yer ostida bo'ldi borisi nihon.
Na qoldi alarning baridin asar,
Na bo'ldi birining ishidin xabar.
Barisi ko'rub charxi dundin sitam,
Adam sori nochor qo'ydi qadam.
Budur, doyimo charxi zolim ishi
Ki, zulmidin aslo qutulmas kishi.
Qani ul salotini oliymakon
Ki, yer yuziga erdilar hukmron?
...Qani ka'bayi qiblagohing sanin
Ki, erdi shafiq-u panohing saning?
Olur chog'i ilkiga tiyg'-u tabar,
Edi ojiz o'trusida sheri nar.
Ani ham qilib ojiz-u notavon,
Adam kishvari sori qildi ravon.
Kishi shoh bo'lsun va yoxud gado,
Qutulmoq falak zulmidin yo'q ango.
Yuzida yo'q aslo hayodin asar,
Ko'zida yo'q aslo vafodin xabar.
Hayosizdin aslo vafo istama,
Vafosizdin aslo hayo istama.
...Bugun, podshoho, sanga saltanat
Beribdur Xudo ko'rguzub marhamat.
Agarchi bu ish bas og'ir yukdurur,
G'am-u mehnati necha turlukdurur.
O'zungni bu yuk chekkali chog'lag'il,
Kamar belga himmat bila bog'lag'il.
Bu ishda o'zing solma, mardona bo'l,
Jalodatshior-u dalerona bo'l.
Bu ishning kamolig'a tolib esang,
Aning boisi ne ekandur, desang.
Degay bir-bir oni oshuftahol,

Topar saltanat necha ishdin kamol.
Ki, himmat biridur, shijoat biri,
Adolat biridur, siyosat biri.
Jalodat biri, biri g'ayratdudur,
Saxovat biri, biri iffatdudur.
Biri hilm keldi, birisi hayo,
Biri va'dag'a aylamaklik vafo.
Futuvvat biri, sof niyat biri,
Muruvvat biriy-u hamiyat biri.
Biri shar' hukmiga bermak rivoj,
Biri kufr dardiga qilmoq iloj.
Biridur vuquf o'g'rilar holidin,
Alar ilkin kesmak el molidin.
Biri keldi bo'lmoq raiyatnavoz,
Masokin-u mazlumdag'a chorasoz.
Biri tarbiyat birla qilmoq azim
Alarniki, dur nekhohi qadim.
Birisi sipah ko'nglin olmoqdurur,
Karam domi bo'ynig'a solmoqdurur.
Bulardin yetar saltanatg'a nizom,
Bularsiz ul ish topmas aslo tamom.
...Bu so'zlarnikim, man bayon ayladim,
Necha bayt birla ayon ayladim.
Bularga qayu shahki qilsa amal,
Aning mulkiga yetmas aslo xalal.
...Shaho, olam ichra bugun shohsen,
Burundin bu so'zlarga ogohsen.
Umidim budurkim, amal qilg'asen,
Amal aylamakda jadal qilg'asen.
Ko'rub bazli lutfing havosi avom
Hama bo'lsun osudayu shodkom.
Alar ichra ushbu faqir Ogahing,
Demay Ogahingkim, g'ubori rahing.

Lugʻat

1. **Oʻlsun** – boʻlsin.
2. **Taborak** – podsholik, hukmdorlik, qudrat sohibi.
3. **Zamiringni** – borligʻingni.
4. **Soʻg** – motam, aza, musibat.
5. **Anduhgin** – gʻamli, xafa.
6. **Agarchi** – garchi.
7. **Asru** – juda, gʻoyat.
8. **Dushvor** – qiyin, mushkul.
9. **Chekkali** – tortmoq, boshdan kechirgani.
10. **Nukat** – nozik maʼnoli soʻzlar, chuqur maʼnoli soʻzlar.
11. **Haq** – Alloh.
12. **Xayl** – toʻda, jamoa.
13. **Qavi** – kuchli, baquvvat.
14. **Joh** – mansab, martaba.
15. **Sitam** – jabr, uqubat.
16. **Base** – bisyor, koʻp.
17. **Toʻsh** – koʻkrak, koʻks; bu yerda uchramoq, yoʻliqmoq maʼnosida.
18. **Nafrin** – achchiq kulgu.
19. **Kom** – ogʻiz; maqsad, niyat.
20. **Nihon** – yashirin.
21. **Asar** – belgi, nishon, iz.
22. **Charxi dun** – aylanuvchi dunyo, beqaror dunyo.
23. **Adam sori** – yoʻqlik sari, oʻlim tomon.
24. **Salotin** – sultonlar, hukmdorlar.
25. **Shafiq** – shafqatli, marhamatli.
26. **Tiygʻ-u tabar** – xanjar-u bolta.
27. **Oʻtru** – qarshi.
28. **Nar** – erkak.
29. **Notavon** – noqobil, kuchsiz, zaif.
30. **Kishvar** – mamlakat, viloyat.
31. **Turluk** – turli.
32. **Jalodatshior** – mardlik qiluvchi, jasurlik koʻrsatuvchi.

33. **Dalerona** – jasurlarcha, botirlarcha, dadillik bilan.
34. **Tolib** – talabgor, istovchi.
35. **Oshuftahol** – parishonhol, tarqoq, to'zg'igan.
36. **Himmat** – niyat, qat'iy iroda, jahd; saxovat, javonmardlik.
37. **Hilm** – yumshoqlik, muloyim tabiatlik; sabrlik yoki sabr.
38. **Futuvvat** – mardlik, oliyjanoblik; karam, jo'mardlik.
39. **Hamiyat** – or-nomusni saqlash, uni muhofaza etish.
40. **Shar'** – shariat.
41. **Kufr** – kofirlik, islomni tan olmaslik.
42. **Vuquf** – voqif, xabardor.
43. **Raiyatnavoz** – xalqparvar, fuqaroparvar.
44. **Masokin** – miskinlar, kambag'allar.
45. **Mazlum** – zulm ko'rgan, jabrdiyda.
46. **Chorasoz** – chora ko'ruvchi, qutqaruvchi.
47. **Azim** – ulug', buyuk, zo'r.
48. **Nekxoh** – yaxshi niyatli, ezgu o'yli.
49. **Dom** – tuzoq.
50. **Bazl** – ehson, hadiya, baxshish.
51. **Rah** – yo'l.

Nasriy bayon

Shahonshohlik senga muborak bo'lsin, hukmron Tangri senga madadkor [bo'lsin].

Sabr qilib qalbingni shod qil, barcha kulfat-u g'amdan ozod tut.

Ota vafotidan g'amgin bo'lma, ko'ngilni bu g'am bilan hazin qilma.

Garchi bu g'am nihoyatda og'ir bo'lsa ham, banda undan qutilmog'i mushkuldir.

Bu dardli bandadan ma'rifat eshit, zero, senga bir necha manfaatli, chuqur ma'noli so'zlar aytmoqchiman.

Alloh olamni yaratgunga qadar butun odamizodni paydo qildi.

Ularga yer yuzini makon qilib, bir qancha ne'matlar ayon etdi.

Jahon ichra qudrat sohibi va mansab egasi bo'lgan shohlarni

yaratdi.

Shohlarning ba'zilari lutf-u karam ko'rsatdi, ammo ba'zilari zulm-u sitam qildilar.

Ba'zilaridan elga ko'plab rohatlar yetgan bo'lsa, ba'zilaridan behad ranj yetishdi.

Shohlarning ayrimlari tahsin-u rahmat olgan bo'lsa, ayrimlari nafrat-u la'natga uchradi.

Barchasi o'zi xohlagandek saltanat qurib, o'z ko'ngliga yoqqandek hukm surdi.

Xoh yaxshi edi va yoxud yomon, barchasi yer ostida nihon bo'ldi.

Na ularning birortasidan asar qoldi, na birortasining ishidan xabar bo'ldi.

Barchasi o'zgaruvchan, ya'ni o'zgaruvchan dunyodan sitam ko'rib, yo'qlik sari ilojisiz qadam qo'ydi.

Doimo zolim falakning ishi shudir, kishi aslo zulmidan qutilmas.

Qani u yer yuziga hukmron bo'lgan oliymaqom sultonlar?

...Qani seni qiblagoh ka'bang (ya'ni otang), axir, u sening shafiq-u panohing edi.

Qo'liga qilich-u bolta olgan mahal qarshisida qo'rqmas sher ham ojiz edi.

Falak uni ham ojiz-u zaif qilib, yo'qlik mamlakati sari ravona qildi.

Kishi shoh yoki gado bo'lsin, falak zulmidan qutilishi imkonsiz.

Falakning yuzida aslo hayodan asar yo'q, ko'zida esa vafodan xabar yo'q.

Hayosizdan aslo vafo istama, vafosizdan sira hayo istama.

Ey podshoh, Xudo bugun senga marhamat ko'rsatib, saltanat beribdi.

Garchi bu ish juda og'ir yuk bo'lsa ham, g'am-u mashaqqati necha turli bo'lsa ham.

Bu yukni ko'targani o'zingni hozirla, belga kamarni himmat bilan bog'la.

Bu ishda o'zingni olib qochma, mardlardek bo'l, jasurlik qiluvchi-yu botirlardek bo'l.

Humronlik ishining mukammal bo'lishini istasang, buning boisi nima desang,

Bu parishonhol (ya'ni men) saltanat necha ishdan kamol topishini bir-bir aytay.

Bularning biri himmat, biri shijoat, biri adolat bo'lsa, biri siyosat.

Biri jasurlik, biri g'ayratdir, biri saxovat, biri iffatdir.

Biri muloyimlik bo'lsa, birisi hayo, biri va'daga vafo aylamoq.

Yana biri oliyanoblik, biri sof niyat, yana biri muruvvat-u biri hamiyat.

Boshqa biri shariat hukmiga rivoj bermoq bo'lsa, yana biri kufr degan dardga chora qilmoq.

Biri o'g'rilar holidan voqif bo'lish va ularning qo'lini el molidan kesish.

Boshqa biri xalqparvar bo'lish hamda kambag'al-u zulmdan ezilganlarga ko'mak berish.

Biri avvaldan ezgu niyatdan uzoq bo'lgan toifani tarbiya orqali yuksaltirish.

Birisi lashkar ko'nglini olmoq va bu orqali karam sirtmog'ini bo'yniga solishdir.

Yuqorida sanaganlarim bilan saltanatda tartib bo'ladi, sultonlik ishi bularsiz mukammal bo'lmas...

...Men bayon qilgan so'zlarni bir necha baytlarda ayon qildim.

Qaysi shoh bularga amal qilsa, uning mamlakatiga aslo zarar yetmaydi.

... Ey shoh, bugun olam ichra shohsan, ilgaridan bu so'zlardan ogohsan.

Umid shuki, amal qilgaysan va bu ishda jadal qilgaysan.

Omma lutfing ehsoni yuksakligini ko'rib, osuda-yu shodkom bo'lsin.

Ularning orasida ushbu Ogahing, adashdim, Ogahing emas, balki yo'lingning changi ham bor.

FURQAT

G'AZALLAR

Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar.

Nastaran yuvib yuzni, yosuman tuzib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a,
Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan,
Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar.

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog'imkim,
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Lug'at

1. **Fasli navbahor** – bahor fasli, erta bahor.
2. **O'ldi** – bo'ldi.
3. **Zimiston** – qish, qahraton.
4. **Subhidam** – tong chog'i, erta tong.
5. **Sabza** – maysa, yangi yashil tusli maysa.

6. **Xurram** – shod, xursand.
7. **Abri nayson** – ko'klam buluti.
8. **Nastaran** – nasrin; oq yoki qirmizi rangli g'uj-g'uj ochiladigan xushbo'y gul turi.
9. **Yosuman (jasmin)** – gul turi, oq, sariq rangda ochiladigan xushbo'y gul.
10. **Biyobon** – dasht, cho'l.
11. **Qumri** – qush turi.
12. **Giribon** – yoqa.
13. **Savsan** – gulsafsar, qo'g'agul, piyozgullar oilasiga mansub barglari nozik va uzun turli ranglarda chiroyli ochiladigan gul turi.

Nasriy bayon

Do'stlar, sovuqlar ketib, bahor fasli keldi, buni g'animat bilib, gulistonlarni sayr eting.

Tong chog'i shabnam tushib, maysalar xurram bo'ldi, bahor buluti gul uzra kam-kam tomib yog'di.

Nastaran yuzini yuvib, yosuman o'zini to'g'rilab, nargis ko'zini ochib do'stlarning intizoridir.

Bir sahar uyg'oq edim: olamga o't tutashdi, tog'lar larzaga kelib, biyobonlar titradi.

Sarv-u gul ustida qumrilar ku-ku qilib, bulbul chah-chah etib doim oh-u afg'on tortar.

Bulbul subhidam yig'lab xazon fasli haqida kuylagach, g'uncha qon yutib, gul yoqalarini yuz chok etdi.

Vafo ahli savsan tutib qolmadi, ketdilar, parishonlar esa sunbul zulfini ko'k qilib kiydi.

Bu dard bilan nima uchun dimog'im kuymasin, axir, dono ranj-u g'ussada, nodonlar esa shod o'tsa.

UI qaro ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur,
Balki andin dahr eli ortiqcha g'avg'o tortadur.

Qoshlari ostida go'yo ikki fatton ko'zlari
Ikki hindu bachchadurkim yondashib yo tortadur.

Telbalanmish zulfini savdosidin devonalar,
Qayg'a borsa o'lturub yerg'a chalipo tortadur.

Jon ila ko'ngul taloshur, ey sanam, dard-u g'aming,
Birni sol ko'nglimg'aki, jon birni tanho tortadur.

Kokulingdan bo'y olgan bog'ning tuprog'idur,
Bog'bon sotmoqqa doim mushki soro tortadur.

Ne bilur Yusufki noz-u husn ila mag'rurdur,
UI qadarkim ishq dardini Zulayxo tortadur.

Ishqni pinhon tutarg'a bo'lma shaydo, e ko'ngul,
Mushk pinhon bo'lsa bo'yi oshkoro tortadur.

Charxi kajraftorning bir shevasidin dog'man,
Ayshini nodon surib, kulfatni dono tortadur.

Sorug' oltun kasrati ko'ngulni aylaydur qaro,
Chunki safro bo'lsa g'olib, o'zga savdo tortadur.

Bulhavaslar torta olmas nozaninlar nozini,
Furqatiydek bekas-u sho'rida, rasvo tortadur.

Lug'at

1. **Bejo** – notinch, bezovta, noo'rin, noodatiy.
2. **Dahr** – dunyo, olam.

3. **Fatton** – fitna qiluvchi, o'ziga tortuvchi, maftun qiluvchi, jozibali.
4. **Bachcha** – bola.
5. **Yondashib** – birgalashib, qo'shilib.
6. **Yo** – yoy, ya'ni kamon.
7. **Savdo** – qora; ehtiros, kuchli berilish.
8. **Chalipo** – salib, krest, but.
9. **Mushki soro** – sof mushk, toza mushk.
10. **Bo'y** – hid, ifor.
11. **Charxi kajraftor** – razil dunyo.
12. **Sheva** – odat, tarz, ravish.
13. **Sorug'** – sariq.
14. **Kasrat** – ko'plik.
15. **Safro** – sarig'; sarig' o't; tabobatda tanadagi to'rt xilt (suyuqlik)ning biri.
16. **Savdo** – qora; qora o't; tabobatda tanadagi to'rt xilt (suyuqlik)ning biri; kasallik.
17. **Bulhavas** – har narsaga havasmand, yengiltak, beqaror.
18. **Bekas-u sho'rida** – bechora-yu parishon, gangragan.

Nasriy bayon

U qora ko'z (yor) ko'zlariga surmani bejo (haddan tashqari) tortadi, bu tufayli olam eli ortiqcha g'avg'o qiladi.

Qoshlari ostidagi ikki o'ziga maftun qiluvchi ko'zlari go'yo ikki hindu bolaga o'xshaydi, birlashib kamon tortadi.

Devonalar zulfining qoraligi tufayli telba bo'lgan, qayerga borsa yerga o'tirib, salib (krest) chizadi.

Ey sanam, jon bilan ko'ngil dard-u g'amingni talashadi, shu bois birini ko'nglimga sol, toki boshqasini jon tanho tortsin (boshdan kechirsin).

Kokilingdan ifor olgan bog'ning tuprog'idir, bog'bon esa sotmoqqa doim sof mushk tortadi.

Noz-u husn bilan mag'rur bo'lgan Yusuf Zulayxo tortgan ishq

dardining yukini qaydan bilsin?!

Ey ko'ngil, ishqni pinhon tutishga shaydo bo'lma, mushk pinhon bo'lsa ham hidi oshkor bo'ladi.

Afsuski, razil falakning bir odatidan qiynoqdaman, ayshini nodon surib, kulfatini dono tortadi.

Sariq oltinning ko'pligi ko'ngilni qora qiladi, chunki safro (sariq o't) oshib ketsa, o'ziga xastalik chaqiradi.

Beqarorlar nozaninlar noziga chiday olmas, bu azobni Furqatdek bechora-yu parishon, bir rasvo tortadi.

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang,
G'ozadin yuzlarda tob-u, o'smadin qoshlar tarang.

Za'faroniy ko'ylak uzra arg'uvoniy kamzihur,
Ro'ymol og'ushidin peshonaning ahvoli tang.

Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok,
Qo'l bilakzukdin muzayyan, nuqradin og'izda chang.

Gavhar osqon halqalar siymin banogo'shinda band,
Ko'rinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

G'amza birla o'lturur, gah jilvalar birla yurur,
Turfa bir noz, ofarin, purishva tannoz-u satang.

Aql-hush eltar agar tursa, paritek silkinib,
Odamizod ichra ham mundog' bo'lurmi sho'x-u sha'n.

Yo'q qutulmoqlig' manga, ul ofati jon dastidin,
Qasdim qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadan.

Ul parivash ishqidin goh telbadurman, goh sog',
Chunki bordur oramizda gohi sulh-u gohi jang.

Javrlarkim, Furqat, ul sho'xi jafojo' ayladi,
Muncha bedod-u sitam qilmas musulmong'a faran.

Lug'at

1. **G'oz** – yuzga surtiladigan qizil rangli modda, elik.
2. **Tob** – nur, jilo.
3. **Za'faroniy** – sariq tusli, sarg'ish.
4. **Arg'uvoniy** – qizil gulli daraxt.
5. **Kamzihur** – kamzul.
6. **Zebnok** – yasangan.
7. **Muzayyan** – bezangan.
8. **Nuqra** – kumush.
9. **Chang** – gard, zarra.
10. **Siymin** – kumushrang, kumushdek oppoq.
11. **Banogo'sh** – quloq teshigi.
12. **Subhi sodiq** – yorug' tong, haqiqiy tong.
13. **G'amza** – ko'z ishorasi, noz bilan ko'z suzish.
14. **Purishva** – ishvali, ko'p ishvali.
15. **Shan** – o'ynoqi.
16. **Payvasta** – tutash; doim.
17. **Mujgon** – kipriklar.
18. **Xadang** – o'q.
19. **Jafojo'** – jafo qiluvchi.
20. **Sitam** – zulm.
21. **Farang** – yevropali ko'zda tutiladi; bu yerda kofir, g'ayridin.

Nasriy bayon

Ko'zlari surmadan qaro, qo'llari xinadan lolarang, g'ozadan yuzlarda jilva, qoshlari o'smadan tarang.

Sariq rangli ko'ylak uzra qizil kamzul, ro'mol og'ushidan peshonaning ahvoli tang.

Barcha nozik barmoqlari oltin uzukdan yasangan, qo'l bilakuzuk bilan ziynatlangan, og'iz [atrofi] esa kumush zarralari

bilan to'la.

Gavhar qadalgan sirg'alar oppoq qulog'iga osilgan, ular sochini qorasida bo'zargan tongdek arang ko'rinadi.

Goh ko'z suzib o'tirar, goh jilva bilan yurar, u go'zalga ofarin, turfa nozlari, ishvalari ko'p tannoz-u satangdir.

Agar paridek silkinib tursa, aql-u hushni uchiradi, odamizod ichra ham shunday sho'x-shaddod bo'larmi?!

U jonning ofati dastidan menga qutilish yo'q, qoshlar qasdim uchun kamon, qalin kipriklar esa o'q.

U parivash ishqi tufayli goh telba, goh sog'man, chunki oramizda goh jang, goh sulh bo'ladi.

Furqat, u jafokash sho'x qilgan javrlar qadar sitamlarni kofir musulmonga ham qilmas.



Biz istig'no eli, qichqirmag'on ma'vog'a bormasmiz,
Agar chandeki xirman aylasa, dunyog'a bormasmiz.

Agar labtashna qolsak filmasal sahroyi olamda,
Malolat zohir etsa mavj uran daryog'a bormasmiz.

Umid etgonimiz aksar saodat bo'tayi haqdin,
Agarchi mis erurmiz, qimmatillog'a bormasmiz.

Hamisha lof urarmiz xalq aro Farg'ona mulkida,
Bag'oyat tab'imiz ozoda deb, har jog'a bormasmiz.

Havo loyig'a botg'an moumanlik do'sti xudbinkim,
O'shandog' kamzarofat maskani a'dog'a bormasmiz.

Biz ellar – faqr elimiz, parcha nong'a sabr aylarmiz,
G'araz dunyo uchun Iskandar-u Dorog'a bormasmiz.

Emasdur oncha as'hobi jahong'a fikrimiz, Furqat,
Vale ketguncha juz andishayi fardog'a bormasmiz.

Lug'at

1. **Istig'no** – ehtiyojsizlik, muhtoj bo'lmaslik; noz, tortinish.
2. **Ma'vo** – manzil, maskan.
3. **Chandeki** – shunchalar, shu qadar.
4. **Labtashna** – chanqoq, zor.
5. **Filmasal** – masalan.
6. **Malolat** – malollik, ko'ngilga og'ir kelishi.
7. **Bo'ta** – bo'taloq, tuya bolasi; farzand, o'gil.
8. **Bag'oyat** – juda, nihoyatda.
9. **Jo** – joy.
10. **Havo** – orzu, havas, mayl.
11. **Moumanlik** – manmanlik.
12. **Kamzarofat** – xushnudlik kam bo'lgan, samimiyati yo'q.
13. **A'do** – dushmanlar, tubanlar.
14. **As'hob** – suhbatdoshlar, hamsuhbatlar.
15. **Juz** – boshqa, o'zga, bo'lak.
16. **Andishayi fardo** – ertangi kun xayoli, oxirat fikri.

Nasriy bayon

Biz ehtiyojsizlardanmiz, shu bois chaqirilmagan manzilga bormasmiz, garchi xirmondek davlat uyib, chorlasalar ham bormasmiz.

Agar chanqoq holda qolsak, masalan, olam sahrosida, mavj urgan daryo malollik, og'rinish ko'rsatsa, unga bormasmiz.

Haqing bandasidan umid etganimiz, asosan, saodatdir, garchi mis bo'lsak-da, qimmat tillaga bormasmiz.

Hamisha Farg'ona mulkida xalq ichida lof urarmiz, nihoyatda tab'imiz ozoda deb har joyga bormasmiz.

Havas loyiga botgan manmanlikning do'sti xudbinlikdir, o'shanday samimiyatdan holi noshudlar maskaniga bormasmiz.

Biz – faqr elimiz, parcha nonga sabr qilamiz, dunyoni o'ylab Iskandar-u Doroning huzuriga bormasmiz.

Furqat, fikrimiz jahondagi barcha suhbatdoshlarga qaratilgan emas, lekin abadiy hayotga ketgunga qadar oxirat fikridan boshqasini qilmasmiz.

MUXAMMAS

Kishi holimni bilmas mehribonidin adashganman,
Vatan overadurmen, do'stonidin adashganman,
Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,
G'aribi ko'yi g'urbat xonumonidin adashganman,
Vayo bir murg'i vahshiy oshiyonidin adashganman.

Bo'lubman oshiqi sho'ridayi bir nozanin dilbar,
Firoqida dilim g'amnok, bag'rim chok, chashmim tar,
Tanam xoshokidin shu'la urar ishq otashi yaksar,
Muhabbat o'tidin kuyg'och, bo'lub bir to'da xokistar,
Fano bodi tegib nom-u nishonidin adashganman.

Kezib dashtu biyobon bahr-u barlar yig'lasam, tong yo'q,
To'kub yosh o'rning'a ko'zdin guharlar yig'lasam, tong yo'q,
Malolat zohir etmang, hamsafarlar, yig'lasam, tong yo'q,
Chekib bulbul kabi afg'on saharlar yig'lasam, tong yo'q
Ki, keldi fasli gul, men gulistonidin adashganman.

Laqab har kimsaga mardum baqadri odatiy derlar,
O'shal kim anjumanda o'tsa umri Suhbatiy derlar,
Fano kuyida kimki mu'takifdur Xilvatiy derlar,
Zamon ahli bu boisdin taxallus Furqatiy derlar,
Necha yildur bir oshubi zamonidin adashganman.

Lugʻat

1. **Do'ston** – do'stlar.
2. **Benavo** – bechora, yo'qsil; baxtsiz.
3. **Ko'y** – ko'cha, mahalla.
4. **G'urbat** – musofirlik, g'ariblik.
5. **Xonumon** – bor-u yo'q, borlig'i.
6. **Murg'** – qush, tovuq.
7. **Sho'rida** – parishon, tentiragan.
8. **Firoq** – ayriliq, hijron.
9. **G'amnok** – g'amli, g'am chekkan.
10. **Chashm** – ko'z.
11. **Tar** – nam.
12. **Yaksar** – butunlay, bir boshdan.
13. **Xokistar** – kul.
14. **Fano bodi** – yo'qolish shamoli; o'lim shabadasi.
15. **Bahr-u bar** – dengiz-u quruqlik.
16. **Tong yo'q** – ajab emas, hayratlanarli joyi yo'q.
17. **Malolat** – malollik, ko'ngilga og'ir kelishi.
18. **Zohir etmoq** – ko'rsatmoq, namoyish etmoq.
19. **Mardum** – xalq.
20. **Suhbatiy** – suhbat qiluvchi, taxallus.
21. **Fano kuyi** – yo'qolish ko'chasi, bebaqolik makoni.
22. **Mu'takif** – xilvat qilmoq, tarkidunyochilik.
23. **Xilvatiy** – xilvatda turuvchi, xilvatnishin, taxallus.
24. **Furqatiy** – ayriliqda qolgan, ajralgan, taxallus.
25. **Oshubi zamon** – zamon g'avg'osi, davr to'paloni.

Nasriy bayon

Biror kishi holimni bilmas, mehribonidan adashganman,
vatandan yiroqda overadirman, do'stlardan adashganman.

Vatansiz baxtsizman, makonidan adashganman, g'urbat
ko'chasing g'aribiman, xonumonidan adashganman.

Yoxud oshiyonidan adashgan bir vahshiy qushman.

Bir nozanin dilbarning parishon oshig'i bo'lganman, firog'ida
dilim g'amli, bag'rim chok, ko'zlarim nam.

Ishq otashi tanam xashagi tufayli lovullab ko'kka shu'la
sochadi, muhabbat o'tida kuygach, bir to'da kul bo'ladi.

Fano – yo'qolish shamoli (shu kulga) tegib, nom-u nishonidan
adashganman.

Dasht-u biyobon kezib, dengiz-u quruqlikda yig'lasam, ajab
emas, yosh o'rniga ko'zdan gavharlar to'kib yig'lasam, ajab emas.

Men bilan hamsafar bo'lganlar, agar yig'lasam, malol olmang,
bulbul kabi saharlari fig'on chekib yosh to'ksam, ajab emas.

Zero, gul fasli keldi, men esa gulistonidan adashganman.

Xalq har kimning laqabini odatiga ko'ra qo'yar, kimning umri
anjumanda o'tsa, Suhbatiy (suhbat quruvchi) derlar.

Kim fano – yo'qolish go'shasida xilvarda o'tirsa, uni Xilvatiy
(yolg'iz o'tiruvchi) derlar, Zamon ahli shu bois menga taxallusni
Furqatiy (ayriliqda qolgan) derlar (Suhbatiy, Xilvatiylar
Furqatning shoir do'stlari edi).

Necha yildir bir zamon g'avg'osidan adashganman.

MUSADDAS

Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek,
O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek,

Kes rishtanikim: qilsun chappaklab otub jasta,
Hajrida alam tortib, bo'ldi jigari xasta.
Tog'larg'a chiqib bo'lsun yori bilan payvasta,
Kel, qo'yma balo domi birla oni pobasta,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Besh kun seni davringda bechora xirom etsun,
Ohular ila o'ynab, ayshini mudom etsun,
Yomg'ur suvi to'lganda, tog' lolani jom etsun,
Haqqingga duo aylab, umrini tamom etsun,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Sargashta bu vodiya bir boshig'a rahm etgil,
Yo'q toqati bandingga, bardoshiga rahm etgil,
Rahm etmasang o'ziga, yo'ldoshiga rahm etgil,
Yig'lab senga termulur, ko'z yoshig'a rahm etgil,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Bechorani zulm aylab, qo'l, bo'ynini bog'labsan,
Har sori chekib-sudrab, o'ldurgali chog'labsan,
Ko'ksini jaf birla lola kabi dog'labsan,
Sot menga, agar qasding olg'uvchi so'rog'labsan,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Yo'q hushi, pari tekkan devonaga o'xshaydur,
Ko'z yoshi yana to'lgan paymonag'a o'xshaydur,
G'am seli bilan ko'ngli vayronag'a o'xshaydur,
Furqatda bu Sa'dull hayronag'a o'xshaydur,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Lug'at

1. **Sayd** – ov, ovlangan narsa, tuzoqqa tushgan o'lja.
2. **Sayyod** – ovchi.
3. **Sayyora** – kezuvcchi; sayyoh.
4. **Dom** – tuzoq.
5. **Nigun** – egilgan, to'ntarilgan; teskari, chappa.
6. **Yora** – yara, jarohat.
7. **Sadpora** – yuzpora, pora-pora.
8. **Xirom etmoq** – chiroyli yurish, noz bilan raqs tushish.
9. **Mudom etmoq** – doimo, har choq; davomli qilmoq.
10. **Rishta** – ip, tanob.
11. **Jasta** – sakragan, irg'ib tushgan.
12. **Payvasta** – tutash; doim.
13. **Pobasta** – oyog'i band qilingan, kishanlangan.
14. **Sargashta** – boshi aylangan, sargardon, hayron.
15. **Band** – bo'g'ov, kishan.
16. **Chekib-sudrab** – tortib-sudrab.
17. **Paymona** – qadah, may piyolasi.

Nasriy bayon

Ey ovchi, o'ljangni qo'yib yubor, u men kabi kezuvcchi ekan, bo'ynidan domini ol, chunki mendek bechora ekan.

Mendek o'z yorini topmasdan ovora ekan, iqboli teskari [qaragan], baxti ham menikidek qora ekan.

Mendek jismi hijron o'qidan ko'p jarohatli ekan, kuygan jigari-bag'ri yuz pora ekan.

Ipni kes, toki bir sapchip chapak chalsin, (yorining) hajrida alam tortib, jigari xasta bo'ldi.

Tog'larga chiqib, yori bilan qovushsin, kel, balo tuzog'i bilan oyog'ini bandi qilma.

Mendek jismi hijron o'qidan ko'p jarohatli ekan, kuygan jigar-bag'ri yuz pora ekan.

Bechora sening davringda besh kun erkin uchsin, ohular bilan o'ynab, ayshini davom ettirsin.

Yomg'ir suvi to'lganda tog'lolani jom qilsin, haqqinga duo qilib, umrini tamomlasin.

Mendek jismi hijron o'qidan ko'p jarohatli ekan, kuygan jigar-bag'ri yuz pora ekan.

Bu vodiya tentiragan, bir boshiga rahm etgin, tuzog'ingga toqati yo'q, bardoshiga rahm etgin.

O'ziga rahm etmasang, yo'ldoshiga rahm etgin, senga yig'lab termular, ko'z yoshiga rahm etgin.

Mendek jismi hijron o'qidan ko'p jarohatli ekan, kuygan jigar-bag'ri yuz pora ekan.

Zulm qilib bechoraning qo'l-u bo'ynini bog'labsan, har tomon tortib-sudrab, o'ldirgani hozirlabsan.

Lola kabi ko'ksini jafo bilan dog'labsan, agar qasding oluvchi so'roqlasang, menga sotgin.

Mendek jismi hijron o'qidan ko'p jarohatli ekan, kuygan jigar-bag'ri yuz pora ekan.

Hushi yo'q, pari tekkan devonaga o'xshaydi, yana ko'z yoshi to'lgan paymona (piyola)ga o'xshaydi.

Ko'ngli g'am seli bilan vayronaga o'xshaydi, Furqat ham bu hayron Sa'dullaga o'xshaydi.

Mendek jismi hijron o'qidan ko'p jarohatli ekan, kuygan jigar-bag'ri yuz pora ekan



ADABIYOT

(DARSLIK)

10-SINF



QISM

YASSAVIY

HIKMATLAR

Ishq da'vosin manga qilma, yolg'on oshiq,
Oshiq bo'lsang bag'ring ichra ko'z qoni yo'q,
Muhabbatni shavqi birla jon bermasa,
Zoye kechar umri oni, yolg'oni yo'q.

Ishq bog'ini mehnat tortib ko'kartmasang,
Xorlik tortib shum nafsingni o'ldirmasang.
Olloh debon ichga nurni to'ldirmasang,
Valloh-billoh senda ishqni nishoni yo'q.

Haq zikrini mag'zi jondin chiqarmasang,
Uch yuz oltmish tomirlaring tebratmasang,
To'rt yuz qirq to'rt so'ngaklaring qul qilmasang,
Yolg'onchidir, Haqqa oshiq bo'lg'oni yo'q.

Nafsdin kechib, qanoatni pesha qilg'on,
Har kim topsa, rozi bo'lib, bo'yin sung'on,
Yaxshilarga xizmat qilib duo olg'on,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q.

Rohat tashlab jon mehnatin xushlaganlar,
Saharlarda jonin qiynab oshlaganlar,
Ho-yu havas moumanni tashlaganlar,
Chin oshiqdir, hargiz oni yolg'oni yo'q.

Ishq dardini bedardlarga aytib bo'lmas,
Bu yo'llarni uqbosi ko'p, o'tib bo'lmas,
Ishq gavharin har nomardga sotib bo'lmas,
Bexabarlar ishq qadrini bilgoni yo'q.

Ishqqa tushding, o'tga tushding, kuyib o'lding,
Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding,
Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding,
Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q.

Boshing ketar bu yo'llarda hozir bo'lg'il,
Ishq yo'lida o'lmas burun zinhor o'lg'il,
Pir etagin mahkam tutib, xizmat qilgil,
Xizmat qilg'on hargiz yo'lda qolgoni yo'q.

Oshiq ermas jononiga jon bermasa,
Dehqon ermas ketmon chopib non bermasa.
Munda yig'lab oxiratda jon bermasa,
Yo'lda qolg'on bo'yi xudo olg'oni yo'q...

Zohid bo'lma, obid bo'lma, oshiq bo'lg'il,
Mehnat tortib ishq yo'lida sodiq bo'lg'il,
Nafsni tepib dargohiga loyiq bo'lg'il,
Ishqsizlarni ham joni yo'q, imoni yo'q.

Ishq savdosi kimga tushsa rasvo qilur,
Partav solib Haq o'ziga shaydo qilur,
Majnunsifat aqlin olib Laylo qilur,
Olloh haqqi bu so'zlarni yolg'oni yo'q.

Qul Xoja Ahmad, jondin kechib yo'lga kirgil,
Andin so'ngra eranlarni yo'lin so'rg'il,
Olloh debon haq yo'lida joning bergil,
Bu yo'llarda jon bermasang imkoni yo'q.

Lug'at

1. **Shavq** – kuchli intilish, qattiq berilish.
2. **Nafs** – yomon va gunoh bo'lgan istak, hol va odatlar, hayvoniy orzular; insoniy ruh, qalb.

3. **Vailoh-bilioh** – Xudo haqi, azbaroyi Alloh.
4. **Nishon** – belgi, alomat.
5. **Zikr** – yodga olish, eslash.
5. **Mag'zi jon** – jon mag'zi, ya'ni qalb, yurak, botin; chin yurak.
6. **Sung'on** – eggan, bukkari, taslim etgan.
7. **Mahshar kuni** – qiyomat kuni.
8. **Mouman** – manmanlik.
9. **Uqbo** – oxirat, mahshar.
10. **Axgar** – yonib turgan olov, laxcha cho'g'.
11. **Hozir bo'lg'il** – tayyor tur, tayyor bo'l.
12. **Pir** – keksa; rahbar, muayyan so'fiylar rahnamosi.
13. **Bo'y** – hid, ifor.
14. **Zohid** – umrini faqat toat-ibodatga bag'ishlagan kishi.
15. **Obid** – ibodat qiluvchi.
16. **Oshiq** – ishqqa muhtalo bo'lgan, muhabbat sohibi.
17. **Partav** – shu'la, nur, yorug'lik.
18. **Eranlar** – erlar, mardlar, aziz avliyolar.

Nasriy bayon

Ey yolg'on oshiq, menga ishq da'vosini qilma, agar oshiq bo'lganingda bag'ring uzra ko'zdan oqqan qon bo'lardi. Bordiyu (oshiq) muhabbat shavqi bilan jon bermasa, uning umri zoye o'tadi, bu yolg'on emas.

Mehnat qilib ishq bog'ini ko'kartirmasang, xorlik tortib shum nafsingni o'ldirmasang, Olloh deb botiningga nurni to'ldirmasang, Xudo haqqi, senda ishqning nishoni yo'q.

Alloh zikrini chin qalbingdan chiqarmasang, uch yuz oltmish tomirlaringni tebratmasang, to'rt yuz qirq to'rt suyagingni qul qilmasang, Haqqa oshiq bo'lganing yolg'ondir.

Nafsdan kechib qanoatni pasha qilgan, barchadan rozi bo'lib bo'yin eggan, yaxshilarga xizmat qilib duo olgan oshiqning qiyomat kuni armoni yo'q.

Rohatni tashlab jon mashaqqatini xushlaganlar, saharlari

jonini qiynab chiniqtirganlar (poklaganlar), hoy-u havas, manmanlikni tashlaganlar – chin oshiqdir, buning sira yolg'oni yo'q.

Bedardlarga ishq dardini aytib bo'lmas, bu yo'llarning oxiri ko'p, shu bois o'tib bo'lmas, har nomardga ishq gavharini sotib bo'lmas, bexabarlar ishq dardini bilgani yo'q.

Ishqqa yo'liqding – o'tga tushding, kuyib o'lding, parvonadek jondan kechib, laxcha cho'g' bo'lding, dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding, agar ishq dardi haqida so'rasang, uning hargiz davosi yo'q.

Bu yo'llarda boshing ketar tayyor turgin, ishq yo'lida o'lmay turib o'lgin, pir etagini mahkam tutib xizmat qilgin, xizmat qilgan hech ham yo'lda qolgani yo'q.

Jononiga jon bermasa oshiq emas, ketmon chopib non bermasa dehqon emas, bu yerda yig'lab oxiratda jon bermasa, (bilgilki u manzilga yeta olmay) yo'lda qolgan, sira Xudoning bo'yini sezgani yo'q...

Zohid bo'lma, obid bo'lma, oshiq bo'lgin, mehnat tortib ishq yo'lida sodiq bo'lgin, nafsni bo'ysundirib, Haqning dargohiga loyiq bo'lgin, ishqsizlarning joni ham, iymoni ham yo'q.

Ishq savdosi kimga tushsa rasvo qilur, Haq shu'la solib o'ziga shaydo qilur, Majnundek aqlini olib Laylo qilur, Oллоh haqqi, bu so'zlarning yolg'oni yo'q.

Qul Xoja Ahmad, jondan kechib yo'lga kirgin, undan keyin mardlar, aziz avliyolar yo'lini so'ra, Oллоh deb haqiqat yo'lida joning bergin, bu yo'llarda jon bermasang, iloji yo'q.

Rabbim yodi ulug' yoddur aytur bo'lsam,
Asal yanglig' suchuk bo'lur tilim mening.

O'zim faqir, qildim muqir, bo'ldim haqir,
Qanot qoqar uchar qushdek ko'nglim mening.

Turlik ayshim, turlik ishim, munglig' boshim,
Irdi jonim, ketdi hushim, oqdi yoshim,

Yozuq bilan to'ldi tugal, ichim-toshim,
Beniyozim ocha bersun yo'lim mening.

Ko'zim tushdi, ko'nglim uchdi, arshqa oshdi,
Umrim kechdi, nafsim qochdi, bahrim toshdi.

Karvon ko'chdi, manzil oshdi, horib tushdi,
Sir ulashdi nedek bo'lg'ay holim mening...

Ichdim sharob, bo'ldum xarob, aslim turob,
Keldim ko'rib, ko'nglim sarob, ishqqa purob,

Haqdin xitob qilsa ko'rmas qullar azob,
Buloq yanglig' oqar ko'zdin yoshim mening.

Tushim uzor, Buroq to'zor, ketsa bozor,
Dunyo bozor ichra kirib, qullar ozar,

Boshim bezor, yoshim sizor, qonim to'zor,
Otim Ahmad, Turkistondur elim mening.

Lug'at

1. **Yod** – es, zikr, xotira.
2. **Suchuk** – chuchuk, shirin.
3. **Faqir** – mol-mulki va unga havasi bo'lmagan kishi.
4. **Muqir** – iqrar etgan, bo'yniga oluvchi.
5. **Haqir** – xor, qadrsiz, e'tiborsiz.
6. **Turlik** – turli.
7. **Munglig'** – mungli, hazin, qayg'uli, g'amgin.
8. **Irdi** – eridi.
9. **Yozuq** – gunoh.
10. **Ichim-toshim** – ichim-u tashqarim, zohir-u botinim.
11. **Beniyozi** – ehtiyojsiz, birovg'a muhtojligi bo'lmagan.
12. **Arshqa** – arshga, ya'ni osmonning eng yuqori qismiga.
13. **Bahr** – dengiz.
14. **Sharob** – may, boda.
15. **Turob** – tuproq, yer.
16. **Sarob** – cho'lda uzoqdagi tovlanishning suvdek ko'rinishi; yolg'on, behuda.
17. **Purob** – suvli, yoshli, yoshga to'la.
18. **Xitob qilmoq** – chaqirmoq, baqirmoq, murojaat qilmoq.
19. **Uzor** – uzar.
20. **Buroq** – Me'roj kechasida Muhammad (a.s.)ni ko'kka olib chiqqan ot.

Nasriy bayon

Rabbim yodi ulug' yoddir, agar aytgudek bo'lsam, tilim asaldek chuchuk bo'lar.

O'zim faqir, iqrar qildim, qadrsiz bo'ldim, mening ko'nglim qanot qoqib uchar qushdek.

Ayshim turli, ishim turli, boshim esa mungli, jonim eridi, hushim ketdi, yoshim oqdi, butun ichim-u tashqarim gunoh bilan to'ldi, ammo ehtiyojsiz (Alloh)im yo'limni ocha bersin.

Ko'zim tushdi, ko'nglim uchdi, arshga oshdi, umrim o'tdi,

nafsim qochdi, dengizim toshdi. Karvon ko'chdi, manzil oshdi, horib tushdi, sir ulashdi, endi mening holim qanday bo'lar...

Sharob ichdim, xarob bo'ldim, aslim tuproq, ko'rib keldim, ko'nglim sarob, lekin ishqqa to'la, Haqdan so'zlasa, qullar azob ko'rmas, balki ko'zimdan buloqdek yoshim oqar...

Tushimni uzar, Buroq to'zib ketar, bordiyu bozorga borsa, qullar dunyo bozori ichra kirib (yo'ldan) ozar, boshim bezor, yoshim sizar, qonim to'zar, otim Ahmad, mening elim Turkistondur.

ATOYI

G'AZALLAR

Ul sanamkim su(v) yaqosinda paritek o'lturur,
G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur.

To magarkim salsabil obina javloni qila,
Keldi jannat ravzasindin obi Kavsar sori hur.

Ul ilikkim suvdin oriqtur, yumas oni suda,
Balki suvni pok bo'lsun deb iligi birla yur.

Emdi bildim rost ermish, balki ko'rdim ko'z bila,
Ulki derlar suv qizi goh-goh ko'zga ko'runur.

Qoshlaring yosin Atoyi ko'rgali husn ichra toq,
Subhidam mehroblarda surayi yosin o'qir.

Lug'at

1. **Sanam** – but, haykal; yor, go'zal ma'shuqa.
2. **O'lturur** – o'tirar.
3. **Salsabil** – jannatdagi buloq nomi; toza, tiniq suv.
4. **Ob** – suv.
5. **Ravza** – bog', gulbog'.
6. **Kavsar** – jannat bulog'i.
7. **Ilik** – qo'l.
8. **Oriq** – toza, pokiza.
9. **Yumas** – yuvmas, yuvmaydi.
10. **Yur** – yuvar.
11. **Yosin** – “yo”sini, ya'ni egikligini, kamonligini.
12. **Mehrob** – masjidida imom sajda qiladigan, tepasi qayrilma joy.
13. **Surayi yosin** – Qur'onning “Yosin” surasi.

Nasriy bayon

Suv yoqasida paridek o'tirgan sanamni juda nozikligi bois suv bilan yutsa ham bo'ladi.

Yoxud salsabil suviga o'ynoqilab, jannat bog'idan Kavsar bulog'i tomon pari keldimikan?

Uning qo'li suvdan pok, shu bois qo'lini suvda yuvmaydi, balki suv tozalansin deb qo'li bilan yuvar.

Endi bildim, suv qizi (parisi) goh-goh ko'zga ko'rinadi deganlari rost ekan, to'g'rirog'i, ko'z bilan ko'rdim.

Atoyi qoshlarningning "yo"sini (egikligini, kamonligini) husn ichra toq (yagona) ko'rish uchun tong sahar ibodatda "Yosin" surasini o'qiydi.

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.

Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum,
Kishi bilmas onikim qoldi qanda.

Chu jonimdin aziz jonona sensan,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.

Manga ul dunyoda jannat ne hojat,
Eshiging tuprog'i basdur kafanda.

Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda.

Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,
Ayog'ing qanda bo'lsa boshim anda.

Tilar el mansabi oliy va lekin
Atoyi sarvi ozodingg'a banda.

Lug'at

1. **Tamanno** – orzu, tilak, havas.
2. **Kafan** – mayit (jasad) ko'mish uchun o'raluvchi mato.
3. **Solib bormoq** – tashlab ketmoq.
4. **Yusufi husn** – Yusufdek husn egasi, go'zal.
5. **Ya'qubtek** – Yoqubdek; Yusufning otasi Yoqub (a.s.)
nazarda tutilmoqda.
6. **Bayt ul-hazan** – g'am uyi, hasrat uyi, g'amxona.
7. **Qanda** – qayerda.
8. **Sarvi ozod** – tik qomat, chiroyli qad.

Nasriy bayon

Chamanda jamoling vasfini qildim, gul esa u yerda uyatdan qizarib ketdi.

Ko'nglim la'l(lab)ingni orzu qiladi, lekin biror kishi uning qayerda ekanini bilmaydi.

Jonimdan aziz janona sensan, shu bois menga sensiz badanda jon kerak emas.

Narigi dunyoda menga jannat kerak emas, o'lgan chog'im eshiging tuprog'idan kafanimga solib qo'yishsa kifoya.

Ey Yusufdek husn sohibi, meni Yoqubdek bu kun g'am uyida qoldirib ketma.

Uzun sochingdan ko'ngilni uzmasman, oyog'ing qayda bo'lsa, boshim o'sha yerdadir.

El oliy mansab-martaba tilaydi, lekin Atoyi go'zal qaddingga asir.

Sensiz bu jahon ayshi alamdur manga, ey do'st,
Shodlig'i ham mehnat-u g'amdur manga, ey do'st.

Lutf-u karamingni sen agar mendin ayasang,
Javr-u sitaming lutf-u karamdur manga, ey do'st.

Diydor ila qoni' emas erdim esa, hajring
Bisyor jafo ayladi, kamdur manga, ey do'st.

Ko'nglum yuzini javr ila chun sendin uyurmon,
Oxir necha bu javr-u sitamdur manga, ey do'st.

Odang'a seni o'xshata bilmonki, parisen,
Nortek yanoqing bog'i Iramdur manga, ey do'st.

Qo'y qissayi Jamshedni jomi ilgingdin,
Gar bo'lsa dame mulkati Jamdur manga, ey do'st.

Og'zingg'a fido jonki, tabassum qilib aytur:
«Har lahza Atoyi ne adamdur manga, ey do'st».

Lug'at

1. **Aysh** – yaxshi turmush, hayot; xursandchilik.
2. **Mehnat** – mashaqqat, uqubat.
3. **Qoni'** – qanoatli.
4. **Hajr** – ayriliq, hijron.
5. **Bisyor** – mo'l, ko'pdan ko'p.
6. **Uyurmon** – o'girmayman, burmayman.
7. **Nortek** – olovdek; anordek.
8. **Bog'i Iram** – Eram bog'i, afsonaviy bog'.
9. **Qissayi Jamshed** – Jamshid qissasi; afsonaviy Jamshid
shohning sarguzashtlari hikoya qilinuvchi asar.
10. **Dame** – bir dam, bir lahza.

11. Mulkati Jam – Jamshid podsholigi.

12. Adam – yo'qlik yoki odam.

Nasriy bayon

Ey do'st, bu jahon ayshi menga sensiz alamdir, shodligi ham mehnat-u g'amdir.

Agar lutf-u karamingni mendan ayasang, jabr-u sitaming men uchun lutf-u karamdir.

Diydoringga qanoat qila olmadim, shu boismi hajring ham juda ko'p jafo qildi, ammo bu ham menga kamdir.

Oxir-oqibat menga har qancha jafo qilsang ham, men jabrlaring tufayli ko'nglim yuzini sendan burmasman.

Ey do'st, seni odamga o'xshata olmayman, sen parisan, olovdek yanog'ing men uchun Eram bog'idir.

“Jamshid qissasi” (kitob) va Jamshid jomini tashla, agar (bizda) bir lahza bo'lsa, ana o'sha men uchun Jamshid podsholigidir.

Jon og'zingga fido bo'lsin, og'zing har lahza tabassum qilib “ey do'st, Atoyi menga kimdir?” deb aytadi.

NAVOIY

G'AZALLAR

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur
Kim, jong'a qaro balo bo'lubtur.

Majmu'i davoni dard qildi,
Dardingki, manga davo bo'lubtur.

Ishq ichra oning fidosi yuz jon,
Har jonki, sango fido bo'lubtur.

Begona bo'lubtur oshnodin,
Begonag'a oshno bo'lubtur.

To qildi yuzung havosi jonim,
Yuz sari anga havo bo'lubtur.

Boqiy topar ulki, bo'ldi foniy,
Rahravg'a baqo fano bo'lubtur.

To tuzdi Navoyi oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo'lubtur.

Lug'at

1. **Majmu'i davo** – davolar majmuasi, muolajalar.
2. **Havo** – havas, orzu.
3. **Yus sari** – yuzi tomon; yuz marta; yanada ko'proq.
4. **Boqiy** – abadiy; manguilik, abadiylik.
5. **Foniy** – o'tkinchi, bebaqolik, vaqtinchalik.
6. **Rahrav** – yo'lovchi, sayohatchi.
7. **To tuzdi** – yozgach, ijod etgach.

Nasriy bayon

Ko'zing qanday balo, qaro bo'libdi yoki jon uchun qora balo bo'libdi.

Darding barcha muolajalarni dardga aylantirdi va o'zi menga davo bo'ldi.

Senga fido bo'lgan har bir jonga ishq ichra yuzlab jonlar fidodir.

(U jonlar) oshnosidan begona bo'lib, begona bilan oshno bo'ldi.

Jonim yuzingni orzu qila boshlagach, u yuz (100) tomonga qarab qidirib uchdi.

Foniy (barcha dunyoviy qaydlardan ozod) bo'lgan inson boqiylik topar, yo'lovchi (solik)ga boqiylik ham fano (vaqtincha) bo'libdi.

Navoiy ishq oyatini yozgach, u oshiqlar orasida navo – qo'shiq bo'libdi.

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrae andin tilarmen, bahramand etmas.

Netay hur-u pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a
Ayon ul zahrchashm aylab, nihon bu no'shxand etmas.

Kerakmas Oy ila Kun shaklikim, husn-u malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o'z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.

Ko'ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir
Ajah sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.

Ul Oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.

Lug'at

1. **Arjumand etmoq** – aziz etmoq, hurmat qilmoq, loyiq ko'rmoq.
2. **Bahra** – hissa, nasiba, foyda.
3. **Zahrchashm aylamoq** – zaharli ko'z bilan qaramoq, xo'mraymoq.
4. **No'shxand etmoq** – shiringina kulmoq, kulib boqmoq.
5. **Chok-chok etmas** – tilim-tilim qilmas, so'kilmas.
6. **Band-band etmas** – bog'lamas, ulamas.
7. **Chobuk** – chaqqon, tezkor, epchil.
8. **Majnunshior** – majnundek, devonadek; oshiq.
9. **Samand** – sarg'il ot, chopqir ot.
10. **Charx zoli** – falak kampiri; zolim dunyo.
11. **Sarrishta** – ipning uchi, arqon, bahona, asos.
12. **Kamand** – sirtmoq.
13. **Sipand** – isiriq.

Nasriy bayon

Men istagan kishi meni suhbatiga loyiq ko'rmaydi, (tabiiyki) mening ko'nglim ham meni istagan kishining suhbatini pisand etmas.

Mendan foyda istagan kishidan qanday naf ko'ray, axir, undan naf tilasam, u bahramand etmas.

Hur-u pari bazmini nima qilay, qatlim yo hayotim uchun hurning o'ldiruvchi nigoh tashlashi, parining esa pinhona jilmaymasligi ayon.

Oy bilan Kun (Quyosh)ning shakli kerakmas, chunki husn-u malohatdan Oy ichimni chok-chok etmas, Kun tanamni

butun etmas.

Buzuq ko'nglimdan o'zga yerda ot choptirmaydigan, chaqqon qotildek bo'lgan o'zimning devonam kerak.

Falak kampiridan ko'ngil uz, firibiga aldanma, zero, oxir-oqibat bo'yingga ajal arqonidan boshqasini sirtmoq etmaydi.

U Oy (yor) o'tli yuzini ochsa, ko'z tegmasin deb, Navoiy u o't uzra muhabbat urug'idan boshqa narsani isiriq etmaydi!

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt,
Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt.

Buki aning ahd-u paymonida men o'lsam dag'i
Yaxshi fursat topsang, ul bad ahd-u paymonimg'a ayt.

Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili
Kufr ila bo'lmish mubaddal, nomusulmonimg'a ayt.

Buki qilmishmen jahon-u jonni aning sadqasi,
Yuz tuman jon-u jahondin yaxshi jononimg'a ayt.

Buki yuz jon sadqasi qilsam pushaymon bo'lmag'um,
Vaslig'a bir va'da qilg'andin pushaymonimg'a ayt.

Buki yuz ming fitnako'zluk bo'lsa paydo onsiniz,
Qilmag'um nazzora hargiz ko'zi fattonimg'a ayt.

Buki chok aylab yoqa, usruk chiqar el qasdig'a,
Men o'lub el jon topar, beboki nodonimg'a ayt.

Dahr bog'i gullari husnin vafosiz erkanin,
Yuzi gul, jismi suman, ko'yi gulistonimg'a ayt.

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo
Bulbuli yo'q erkanin shohi suxandonimg'a ayt.

Lug'at

1. **Sabo** – mayin, yoqimli, sahar paytida esadigan shabada.
2. **Sarvi xiromon** – *sarv* – to'g'ri, tik o'sadigan, qishin-yozin ko'karib turadigan, hidi va ko'rinishi yoqimli bo'lgan daraxt; *xiromon* – o'zini har tomonga tashlab noz bilan yuruvchi; go'zal yurishli nozanin, ma'shuqa.
3. **Gulbargi xandon** – ochilib turgan atirgul; shod-xurram yuruvchi ma'shuqa
4. **Dag'i** – yana, tag'in; ham, hamda.
5. **Bad** – yomon.
6. **Paymon** – va'da, kelishuv.
7. **Zulf** – soch, soch o'rimi.
8. **Zunnor** – but, sanam; xristian diniga mansub bo'lganlarning beliga bog'lanadigan chilviri, belbog'i; **zulfi zunnori** – ma'shuqaning soch o'rimlari.
9. **Kufr** – kofirlik, islomni tanimaslik.
10. **Mubaddal** – almashingan, o'zgartirilgan.
11. **Sadqa** – sadaqa, fido, qurbon.
12. **Onsiz** – usiz, uning yo'qligida.
13. **Nazzora** – qarash, nazar tashlash, ko'z solish.
14. **Fatton** – fitna qiluvchi, maftunkor.
15. **Chok aylab** – yirtib, pora qilib.
16. **Usruk** – mast, sarxush.
17. **Bebok** – qo'rqmaydigan, hayiqmaydigan, tortinmaydigan; hayosiz, parvosiz, bevosh.
18. **Dahr** – dunyo, olam, zamon, davr; dahr bog'i – olam, dunyo, tabiat.
19. **Suman** – yasmin so'zining qisqargani: oq, sariq rangli xush isli gul.
20. **Ko'y** – ko'cha, yo'l; qishloq, mahalla.

21. Suxandon – soʻz ustasi, goʻzal va oʻrinli soʻzlashni uddalay oladigan.

Nasriy bayon

Ey sabo, goʻzal yorimga borib holimni ayt, u shod-xurram yuruvchi dilbarga yigʻlashimning shiddatidan xabar ber.

Bordiyu men unga qilgan ahd-u paymonimda sodiq qolib oʻlsam ham, yaxshi fursat topsang, u vafosizga ayt.

Nomusulmonimga aytginki, uning sochlari oʻrimi tufayli barcha xayr-u savobim kufrga aylandi.

Jon-u jahonni unga qurbon qilganimni yuz ming jon-u jahondan yaxshi boʻlgan jononimga ayt.

Yuz jon fido qilsam pushaymon boʻlmasligimni vasliga bir vaʼda qilganidan pushaymon yorimga ayt.

Agar u yoʻgʻida yuz ming fitnakoʻzli goʻzallar paydo boʻlsa ham, aslo ularga nazar tashlamasligimni koʻzi fitna soluvchimga ayt.

Yoqa yirtib, el qoshiga mast holda chiqar, bundan men oʻlib, el jon topishini qoʻrqmas nodonimga ayt.

Dunyo bogʻidagi gullarning chiroyi vafosiz – vaqtincha ekanini yuzi gul, jismi suman, koʻchasi gulistonimga ayt.

Ey Navoiy, hech bir gulshanning sen kabi xushnavo bulbuli yoʻqligini soʻzga usta shohimga ayt.

QIT'ALAR

**Haq taolo xoni in'omi-yu karami omi borida o'zgadin
nima tilagonning tamayi xomi-yu zoti nofarjomi**

Tengri xonin ochuq aqida qilib,
Xalqdin ro'ziy istagan gumroh
Uyladurkim tengiz qirog'inda
Ro'za ochmoqqa kimsa qozg'oy choh.

Lug'at

1. **Haq taolo** – Alloh.
2. **Xoni in'omi** – in'om dasturxoni.
3. **Karami omi** – ommaga karami, barchaga qaratilgan karam.
4. **Tamayi xomi** – xom tamasi, behuda havasi.
5. **Zoti nofarjomi** – nuqsonli zoti, nomukammal tabiati.
6. **Xon** – dasturxon.
7. **Aqida** – e'tiqod, ishonch; tushuncha; yomonlik, xunuklik.
8. **Ro'ziy** – rizq, nasiba.
9. **Gumroh** – adashgan, yo'lini yo'qotgan.
10. **Uyladur** – shundaydir, go'yoki.
11. **Tengiz** – dengiz.
12. **Ro'za ochmoqqa** – og'iz ochishga, ya'ni ro'zadagi iftorlik.

Nasriy bayon

**Allohning in'om dasturxoni-yu barchaga karami turganda
o'zga bir kishidan narsa tilagan kishining xom tamasi-yu
nomukammal tabiati haqida**

Tangri dasturxonini ochiq tasdiqlay turib, xalqdan rizq-ro'z
umid qilgan gumroh, go'yo, ro'za mahali og'iz ochish uchun
suv topaman deb dengiz qirg'og'ida chuqur kovlagan kishiga
o'xshaydi.

Saxo-vu buxl bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak

Debon bergan kishi erdur va lekin
Demay berganga erlik bil musallam.
Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Debon bermasni xotundin dag'i kam.

Lug'at

1. **Saxo** – saxovat.
2. **Buxl** – baxillik.
3. **Bobida** – haqida.
4. **Nukta surmak** – so'z aytmoq, ma'noni anglatmoq.
5. **Debon** – deb.
6. **Erdur** – erdir, marddir.
7. **Musallam** – xos, munosib.
8. **Ne** – nima.
9. **Dag'i** – ham, yana.

Nasriy bayon

Saxovat va baxillik haqida so'z aytmoq va oralaridagi ikki farqni ko'rsatmoq

Va'da qilib bergan kishi marddir, ammo aytmay turib berganga mardlikni undanda munosib deb bil.

Nima va'da qilib faqat o'shani berganni xotin deb bilgin, so'z berib bermaganni esa xotindan ham battar.

UI bobdakim jahon ahli bevafofur va alardin vafo ko'z tutmoq xatodur

Agar oqil esang, uzgil jahon ahlidin ulfatkim,
Alardin juz jafo kelmas, agar yuz yil vafo qilsang.
Biriga yuz Xito mulki xirojin aylasang isor,
Xatosiz qasdi joning qilg'usidur, gar xato qilsang.

Lug'at

1. **Bobda** – haqida.
2. **Ulfat** – ulfatchilik, aloqa.
3. **Juz** – boshqa, bo'lak.
4. **Xito** – Chin, hozirgi Xitoyning bir qismi.
5. **Xiroj** – soliq, o'lpon.
6. **Aylasang isor** – in'om qilmoq, bag'ishlash.

Nasriy bayon

Jahon ahlining bevafoligi va ulardan vafo kutmoq xatoligi haqida

Agar oqil bo'lsang, jahon ahlidan ulfatchilikni (do'stlik, aloqa) uzgin, chunki yuz yil vafo qilsang ham, ulardan jafodan boshqasi kelmaydi.

Birortasiga yuzta Xitoy mamlakati xirojini tuhfa qilsang ham, mabodo xato qilgudek bo'lsang, shubhasiz, joning qasдини qiladi.

Tavozu' yaxshi, ammo yaxshiroqdur
Agar da'b etsa ani ahli davlat.

Erur ham afv xo'b-u, xo'broq ul –
Ki, zohir bo'lg'ay el topqonda qudrat.

Ato ham turfa ishdur, turfaroq bil,
Agar yo'qdur aning yonida minnat.

Hakim insoni komil debtur ani
Ki, bo'lg'ay zotida bu necha xislat.

Lug'at

1. **Tavozu'** – odoblilik, o'zini past tutish.
2. **Da'b etsa** – odat etsa.
3. **Ahli davlat** – davlatni idora qiluvchilar.
4. **Afv** – kechirim, bag'ishlov.
5. **Xo'b** – yaxshi, ma'qul.
6. **Ato** – ehson, hadiya, baxshish.
7. **Minnat** – qilingan ishni yuziga solish, pesh qilish.
8. **Hakim** – faylasuf, donishmand.

Nasriy bayon

Tavoze yaxshi, ammo tavozeni amaldorlarning odat qilishi yana ham yaxshidir.

Afv (kechirimlilik) ham yaxshi, lekin odamning qudrati ortganda shu fazilatining namoyon bo'lishi yana ham yaxshiroqdir.

Ato qilmoq (ehson) ham g'aroyib ish, biroq uning ham eng yaxshisi yonida minnati bo'lmaganidir.

Hakim (donishmand) zotida yuqoridagi xislatlar bo'lgan kishini komil inson deydi.

Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi ham

«Jahon ganjig'a shoh erur ajdaho»
Ki, o'tlar sochar qahri hangomida.
Aning komi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida.

Lug'at

- 1. Nisbat qilmoq** – o'xshatmoq, qiyoslamok.
- 2. Ranj biymi** – mashaqqat xavfi, vahimasi.
- 3. Hangom** – chog', payt.
- 4. Kom** – tilak, istak, maqsad; tanglay, og'iz.
- 5. Maosh aylamak** – tirikchilik qilmoq, kun ko'rmoq.

Nasriy bayon

Shohni ajdahoga qiyoslashadi, chunki undan ganj (xazina) umidi ham, ranj qo'rquvi ham bor

Shoh jahon xazinasiga ajdahodir, chunki qahri kelganida olovlar purkar.

Unga yaqinlikni niyat qilib yashamoq, xuddi, ajdaho og'zida kun kechirishga o'xshaydi.

Navoiy she'ri to'qquz bayt-u, o'n bir bayt, o'n uch bayt
Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.
Bukim, albatta, yetti baytdin o'ksuk emas, ya'ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.

Lug'at

- 1. Lavh uzra** – yozuv taxtasi ustida.
- 2. Durri maknun** – yashirin dur, yashirilgan inju.

3. **O'ksuk** – past, kam.
4. **Tanazzul** – pastga tushish, tubanlashish.
5. **Rutba** – daraja, martaba.
6. **Gardun** – falak, osmon, ko'k.

Nasriy bayon

Qalam lavh uzra maxfiy injudan ziynat beruvchi Navoiy she'rlari to'qqiz, o'n bir va o'n uch baytlidir.

Albatta, yetti baytdan kam emas, ya'ni (she'rlarining) martabasi yetti falakdan pastga tushmas.

RUBOIYLAR

Farzand ato qullig'in chu odat qilg'ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,
Har kimki atog'a ko'p rioyat qilg'ay,
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilg'ay.

Lug'at

1. **Ato qullig'in** – otaga qullikni, qullik qilishni, otaga ehtiromni.
2. **Rioyat qilg'ay** – e'tiborga olmoq, hurmat qilmoq.
3. **Siroyat** – ichiga o'tish, ta'sir; yuqish, qaytish.

Nasriy bayon

Agar farzand otaga qullik (xizmat)ni odat qilsa, shu odati tufayli saodatga erishadi.

Har kim otasini ko'p hurmat etsa, bu ish unga o'g'lidan qaytadi.

El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,
Ahvolidida idbor nishoni bil oni,
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,
Olam elining yamon yamoni bil oni.

Lug'at

1. **Idbor** – baxtsizlik, ishi oldinga yurmaslik.
2. **Ulus** – el, xalq.
3. **Fe'l** – odat, xislat, tabiat.

Nasriy bayon

Kimdanki el qochsa, uni elning yomoni deb bil, bu ishdan uning ahvolidida baxtsizlik nishoni borligini bil.

Uni fe'l ichra xalq jonining balosi deb bil yoki uni olam elining yomonidan yomoni deb bil.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.

Lug'at

1. **G'urbat** – g'ariblik, musofirlik.
2. **G'arib** – musofir, hech kimi yo'q.
3. **Shodmon** – shod, xursand.
4. **Oshiyon** – uy, makon, in.

Nasriy bayon

G'arib g'urbatda shodmon bo'lmas emish, el ham unga hamdam-u mehribon bo'lmas emish.

Garchi oltin qafas ichra qizil gul o'ssa, u yer bulbul uchun tikonzoridek oshiyon bo'lmas emish.

Ko'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,
Yuz bila so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi,
Eng bila menging yaxshi, saqog'ing yaxshi.
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog'ing yaxshi.

Lug'at

1. **Qabog'** – qovoq.
2. **Dudog'** – lab.
3. **Eng** – yanoq, bet, rux.
4. **Meng** – xol, katta xol.
5. **Saqog'** – iyak, baqbaqa.

Nasriy bayon

Ko'z bilan qoshing yaxshi, qovog'ing yaxshi, yuz bilan so'zing yaxshi, lablaring yaxshi.

Yanoq bilan katta xoling, iyag'ing yaxshi, bir-bir nimani aytardim, boshdan oyog'ing yaxshi.

TURDI FAROG'İY

G'AZAL

Tor ko'ngulluk beklar, man-man demang, kenglik qiling,
To'qson ikki boqli o'zbek yurtidur, tenglik qiling.

Birni Qipchoq-u Xitoy-u, birni Yuz, Nayman demang,
Qirq-u Yuz, Ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.

Kim qo'yubdur, uhdayi o'z mulkungizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to'rt da'vosin etmakni ko'tahlik qiling.

Mardlar maydon chekib, rangin ko'tarib zaxmlar,
Sizga yo'q ul javhar-u yuzga upo-englik qiling.

Lug'at

1. **Tor ko'ngulluk** – tor ko'ngilli.
2. **Bov** – bog', boylam, dasta.
3. **Qipchoq, Xitoy, Yuz, Nayman, Qirq, Yuz, Ming** – urug'lar, qavmlar nomi.
4. **Oyinlik qiling** – odat qiling.
5. **O'ngur, tiriz, yaqo, yeng** – to'nning turli qismlari.
6. **Uhda** – majburiyat, mas'uliyat, javobgarlik.
7. **Ko'tahlik** – qanoatlilik, sabrlilik.
8. **Rangin** – rangdor, tovlanib turadigan; go'zal.
9. **Zaxm** – yara, jarohat.
10. **Upo-englik** – upa-elik, pardoziylik, andoz narsalari.

Nasriy bayon

Tor ko'ngilli beklar, man-man demang, kenglik qiling, bu to'qson ikki urug'li o'zbek yurti – tenglik qiling.

Birovni qipchoq, xitoy, birovni yuz, nayman demang, qirq-u yuz, ming – hammangiz bir bo'lib, bir xonga bo'ysunishni odat qiling.

Bir yoqadan bosh chiqarib, barcha bir to'nga kirib, to'nning turli qismlaridek o'zaro mustahkam bir tan bo'ling.

O'z mulkingizni boshqarishning uddasidan chiqmay turib, sizga ikki, uch, to'rt mulk qilish (yoki bir mulkni shunchaga bo'lish)ni kim qo'yibdi, bu borada qanoatlilik qiling.

Mardlar maydon kechib, turli rangdagi jarohatlar orttiradi, sizda esa bunday jasorat yo'q, shu bois yuzingizga upa-elik surtib oling.

Qatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,
Kelturan amvojg'a bahri talotum Turdiman.

Qirq, Yuz, Ming aqrabolar etdilar mandin nufur,
Ne balo, baxti qaro-yu toliyi shum Turdiman.

Rishtadek ming pech-u tob chashmi so'zondin o'tar,
Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman.

Lug'at

1. **Qatrayam** – qatraman.
2. **Nochiz** – arzimas.
3. **Qulzum** – dengiz.
4. **Kelturan** – keltirgan.
5. **Amvoj** – mavjlar, to'lqinlar.
6. **Bahr** – dengiz.
7. **Talotum** – po'rtana.

8. **Qirq, Yuz, Ming** – urug'lar, elatlar nomi.
9. **Aqrabo** – yaqinlar, qarindoshlar, birodarlar.
10. **Nufur** – nafratlanish; qochish.
11. **Toliyi shum** – shum tole; baxtsiz.
12. **Rishta** – ip, tanob.
13. **Pech-u tob** – to'lg'anish, iztirob; siqilish, qiynalish.
14. **Chashmi so'zon** – ignaning ko'zi, ignaning teshigi.
15. **Bovujud** – shunday bo'lsa-da, shunday bo'la turib.
16. **Mardum** – xalq.

Nasriy bayon

Arzimas qatraman, ammo zoti dengiz Turdiman, daryoni to'lqinlantirgan po'rtanali Turdiman.

Qirq, Yuz, Ming urug'laridagi yaqinlarim mendan nafrat etdilar, bu qanday baloki, baxti qaro, toleyi shum Turdiman.

Ming azob-u uqubat bilan ipdek igna teshigidan o'tuvchi, shunga qaramay xalq ko'zining e'tiborida bo'lgan Turdiman.

MUXAMMAS

Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman,
Rind sarxayli-yu xush ayshi damo-dam surdiman,
Halqayi ushshoqda bazm-u majolis qurdiman,
Mushti xokam davr-u davronlar(ni lekin) ko'rdiman,
Xush dimog' etgan mayi sofi – hariflar, durdiman.

Qilmadim shukronayi, soldurdi tufroq oshima,
Qolmadi juz dard-u g'am hamdam, musohib qoshima,
Haq o'zi rahm aylag'ay ohi sahar ko'z yoshima,
Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima,
Xonumon ovora selobi havodis surdiman.

Nozili hukmi qazo hech kim rad-u man' etmadi,
Barcha bo'yniga solan bu rishtani qat' etmadi,
Ahli hole topmadim boshdin balo daf' etmadi,
Kulfat-u g'urbatni turluk sunnati raf' etmadi,
Xor-u beqadramki mundin ortinib, jabrandiman.

Voqife yo'q, bu musofirlik'da mandin ne o'tar,
Baski yuz ko'yi bila ro'zi kelib, ro'zi ketar,
O'zmag'ay mundin balo-yu bo'lmagay mundin batar,
Aqrabolar suhbatimdin or etar, qoshin chatar,
Salb dillarda, nazarlarda karish siprindiman.

Yaxshi vaqtlar yod etib, (undin ketib, mundin qolib),
Harza tifli ashkdek ayni nazarlardin solib,
Nosara dirham sifatliq rad qilib, qo'lga olib,
Dasta farsuda, yuzi qaytib, oyoqlarda qolib,
Ko'hna tig'i tah-batah g'am zangi tutg'on kundiman.

Oh, bu umri kiromi sarfi g'aflat ayladim,
G'ussayi behuda asbobi nadomat ayladim,
Bilmadim o'z aybimi, xalqqa mazammat ayladim.
Shukr shahdin bilmadim, kufroni ne'mat ayladim,
Zaxmi nishi ro'zgor ahlini talx-u tundiman.

Hukm jori, so'z qabuli, bir dun dargo'sh edim,
Ahli davlatlar bilan yor-u harif, hamdo'sh edim,
Hoy-hoyi bazmlarda shahd no'sho-no'sh edim,
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarpo'sh edim,
Bu zamon yavg'on qozon ostida qolg'on yundiman.

Charxi dun qildi manga javr-u jafolar behisob,
Gardishi davron berur har lahza yuz ming pech-u tob,
Har sori yeldim-yugurdim suv sonib mavji sarob,
Tashna lab, gardi kudurat zeri poyinda xarob,
Bahri davlatdin yiroq gardanshikasta mo'ndiman.

Kasrati yo'qluq, tama' kettirdi qadr-u qiymatim,
Yuz sarig'liq yerga urdi obro'-yu izzatim.
G'ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim,
Aql zoyil, umr kam, besh o'ldi dard-u mehnatim,
Davlat urgan pushti po, baxti (qaro suprindiman).

Man kimam, gumnom-u nokom-u jahon ovarayi,
Diyda namnok-u giribon chok-u bag'ri porayi,
Noqabuli marhami, nosur bitmas yorayi,
Bekasi, mushti xasi, bir bandayi bechorayi,
Sobiram, ro'zi qazo, tiyri balog'a ko'ndiman.

Xeshman, darvish miskin, mustahiq devonadin,
Bahramand et iltifot-u himmati mardonadin,
San turub loyiqmidur, qilmoq tama' begonadin,
Qiblagoho, mandin ikroh etma er mayxonadin,
Jo'sh purxum sof maysan, man g'ubor-u durdiman.

Yuz farozidin ozib, tushdum nishibi qirqqa,
Xavf-u biym-u vahm arosinda qaribi qirqqa,
Dona deb pobast o'lub, domi firibi qirqqa,
Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldim firibi qirqqa,
Hokimi Dizzax muti'u payravi jurqundiman.

Lug'at

1. **Rind sarxayli** – rindlar sardori; mayparastlar davraboshisi.
2. **Halqayi ushshoq** – oshiqalar halqasi.
3. **Mushti xokam** – bir siqim tuproqman.
4. **Harif** – do'st, ulfat.
5. **Durd** – quyqa.
6. **Juz** – bo'lak, boshqa.
7. **Musohib** – suhbatdosh.
8. **Tafriqa** – ajralish, parishon bo'lish.
9. **Xonumon** – bor-budi, barcha narsasi.
10. **Havodis** – hodisalar.
11. **Nozil** – tushirilgan, yuborilgan.
12. **Qazo** – taqdir.
13. **Ahli hole** – bir hol ahli; haqiqatni anglagan, hol darajasiga ko'tarilgan orif inson.
14. **Sunnat** – yo'l, odat, qoida.
15. **Qat' etmadi** – kesmadi.
16. **Raf' etmadi** – o'rtadan ko'tarmadi, yo'qotmadi.
17. **Voqife yo'q** – xabardor yo'q.
18. **Ro'z** – kunduz.
19. **O'zmag'ay** – o'tmagay, oshmaydi.
20. **Aqrabo** – yaqinlar, birodarlar.

21. **Salb dil** – dildan tongan, inkor etgan.
22. **Karih** – jirkanch.
23. **Harza** – behuda.
24. **Tifl** – bola.
25. **Ashk** – ko'z yosh.
26. **Nosara** – sara emas.
27. **Farsuda** – eskirgan; horg'in.
28. **Tah-batah** – qatma-qat.
29. **Kund** – o'tmas.
30. **Kirom** – aziz.
31. **Mazammat** – yomonlash, tergash, uyaltirish.
32. **Kufroni ne'mat** – noshukrlik
33. **Zaxm** – yara, jarohat.
34. **Talx-utundi** – achchiq.
35. **Jori** – joriy; yuruvchi, o'tuvchi.
36. **Dargo'sh** – quloqda.
37. **Hamdo'sh** – yelkadosh.
38. **No'sho-no'sh** – ichho-ich.
39. **Sarpo'sh** – qopqoq.
40. **Yundi** – yuvindi.
41. **Charxi dun** – teskari, tuban dunyo.
42. **Gardishi davron** – zamonlar o'tishi, davr o'zgarishi.
43. **Pech-u tob** – to'lg'anish, iztirob.
44. **Kudurat** – g'am.
45. **Zeripoy** – oyoq osti.
46. **Gardan shikasta** – bo'yni egik.
47. **Kasrat** – mo'llik.
48. **Fitrat** – tug'ma tabiat.
49. **Zoyil** – so'nish.
50. **Besh** – ko'p.
51. **Pushti po** – oyoqning orqasi.
52. **Gumnom** – nom-nishonsiz.
53. **Nokom** – nochor, baxtsiz.
54. **Diyda namnok** – ko'zi yoshli.

- 55. **Giribon chok** – yoqasi vayron.
- 56. **Marham** – malham, dori.
- 57. **Nosur** – bitmaydigan yara.
- 58. **Mushti xasi** – bir hovuch xas.
- 59. **Tiyri balo** – balo o'qi.
- 60. **Mustahiq** – loyiq.
- 61. **Ikroh etma** – jirkanma.
- 62. **Faroz** – balandlik.
- 63. **Nishib** – pastlik.
- 64. **Qarib** – yaqin.
- 65. **Dona** – don, yemish.
- 66. **Pobast** – oyog'i bog'langan.
- 67. **Dom** – tuzoq.
- 68. **Dizzax** – Jizzax.
- 69. **Muti'** – tobe, qaram, itoat etuvchi.
- 70. **Payrav** – ergashuvchi, izdosh.
- 71. **Jurqundi** – anqov, lallaygan; gunohkor.

Nasriy bayon

Kim meni eslar: yaxshi zamonlar ko'rganman, mayparastlarga bosh bo'lib dam-badam xush aysh surganman, oshiqlar davrasida bazm-u majlislar qurganman, bir siqim tuproq bo'lsam-da, davr-u davronlar ko'rganman, ulfatlarning dimog'ni yayratuvchi sof mayining durdi – quyqasi (cho'kindisi)man.

Shukrona qilmadim, shu bois oshimga tuproq soldirdi, qoshimda dard-u g'amdan boshqa hamdam, suhbatdosh qolmadi, Haqning o'zi saharda oh chekib to'kkan yoshimga rahm aylagay, zamona ajralish toshini boshimga yog'dirdi, bor-budi ovvora bo'lgan, hodisalar seli surib ketgan narsaman.

Hech kim taqdir yuborgan hukmni rad etmadi, biror kimsa bo'yniga solingan bu rishtani kesmadi, hol (yuksak ma'rifat)ga erishgan biror inson topmaganim uchun boshdan baloni daf etmadi, turli odat-u ishlari kulfat-u g'urbatni yo'qotmadi, xor-u

beqadrman, shu sabab, o'rtanib, jabr chekkanman.

Bu musofirlikda ichimdan nimalar o'tayotganidan biror voqif kimsa yo'q, kunlar yuz xil o'tib, yana ketar, balo bundan o'tmas, bundan battar bo'lmas, yaqinlarim suhbatimdan or etar, qoshin uyar, inkor etuvchi dillarda, ularning nazarlarida jirkanch supurindi (supirilgan narsa)man.

Yaxshi vaqtlarni yod etib, undan ketib, bundan qolib, bolaning behuda yoshidek nazar bulog'idan oqib, eski chaqadek rad etib, qo'lga olib, dastasi eski, yuzi qaytib, oyoqlar ostida qolib, ko'hna tig'i qat-qat zang bosgan o'tmasman.

Oh, bu aziz umrni g'aflatga sarf qildim, uni behuda g'ussa, nadomat vositasi qildim, o'z aybimni bilmadim, xalqni uyaltirdim, shohga shukr qilish kerakligini bilmadim, ne'matini rad etdim, shu bois ro'zg'or ahli nishidan yarador bo'lgan darg'azab, sarkashman.

Hukmi amalga oshuvchi, so'zi doim qabul bo'luvchi bir pastkash edim, davlat amaldorlari bilan do'st-u yor, yelkadosh edim, bazmlarning shovqinida tinmay asal ichardim, yaxshi zamonlar yuz urug'ining qozoni boshida qopqoq edim, hozir esa yovg'on (go'shtsiz suyuq ovqat) qozon ostida qolgan yuvundiman.

Razil falak menga behisob jafolar qildi, davrning o'zgarib turishi har lahza yuz ming azob-uqubat berar, sarob mavjini suv sanab, har tomon yeldim-yugurdim, tashna lab, g'am gardanining oyog'i ostida xarob, davlat daryosidan yiroq, bo'yni egik, siniq ko'zaman.

Yo'qchilikning ortiqligi, tama qadr-u qiymatimni ketkazdi, yuzimning sariqligi obro'-yu izzatimni yerga urdi, pastkash tabiatim begonaga tilagini izhor etdi, aql so'ngan, umr kam, dard-u mehnatim ko'paydi, davlat (to'kinchilik) urgan, oyog'osti, baxtiqaroman.

Men kimman – nom-nishonsiz, iqbolsiz-u jahon ovvorasi, ko'zi yoshli, yoqavayron, bag'ri pora, malhami davo bo'lmas, jarohati bitmas, hech kimi yo'q, bir hovuch xas, bir bechora

bandasiman, shunday bo'lsa-da sabr qiluvchi, taqdir ko'rsatgan kunga, balo o'qiga ko'nganman.

Yaqin kishiman, miskin darvish, munosib devonalardan, mardlarning iltifot-u himmatidan meni bahramand et, sen turganda begonadan tama qilish loyiqmi, axir, jo'sh (harakatga kel), xum to'la sof maysan, men esa g'ubor-u durdi(may quyqasi)man.

Yuz (urug'i) mansabidan ozib, Qirq (urug'i)ning pastiga tushdim, xavf-u qo'rquv-u vahm orasida qirqning yaqiniga, qut (oziq) tilab qirq firibining domiga oyog'im ilindi, voy, yuz ming voy, qirqning firibiga ro'baro bo'ldim, Jizzaxning hokimiga tobe, anqovning izdoshiman.



ADABIYOT

(DARSLIK)

11-SINF



QISM

BOBUR

G'AZALLAR

Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ordim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim.

Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayoqingg'a tushub, bargi xazondek muncha yolbordim.

Latofat gulshanida gul kibi sen sabz-u xurram qol,
Men archi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim.

Xazondek qon yoshim, sorig' yuzumdin el tanaffurda,
Bahar range, bihamdillah, ulusdin o'zni qutqordim.

Ne tole'dur mangakim, axtari baxtim topilmaydi,
Falak avroqini har nechakim daftardek axtardim.

Ulusning ta'n-u ta'rifi manga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.

Lug'at

1. **Xazon** – kuz; kuzda sarg'ayib to'kilgan barg.
2. **Lolarux** – lola yuzli, qizil yuzli, qizil yanoqli.
3. **Zard** – sariq, sariqlik.
4. **Sarkashlik** – o'jarlik, o'zboshimchalik.
5. **Sarv** – tik o'suvchi daraxt; yorga o'xshatiladi.
6. **Sabz** – yashil; ho'l bargning rangi.
7. **Archi** – garchi.
8. **Tanaffur** – jirkanish, nafratlanish.
9. **Bahar range** – har rang bilan.
10. **Bihamdillah** – Allohga shukr.
11. **Ulus** – xalq.

12. **Axtar** – yulduz.
14. **Avroq** – varaqlar, sahifalar.
14. **Ta'n-u ta'rif** – ta'na-yu maqto'v.
15. **O'tkardim** – o'tkazdim.

Nasriy bayon

Gul yuzing hajrida kuzgi yaproqdek sarg'aydim, ey qirmizi yanoq, bu sariq yuzimni ko'rib rahm etgin.

Ey gul, oyog'ingga yotib, xazon bargidek shuncha yolvorsam ham, sen sarv daraxtidek o'jarligingni sira qo'ymading.

Men garchi dunyo bog'idan qurigan yaprog'dek ketsam ham, sen latofat gulshanida gul kabi yam-yashil va xurram bo'lib qol.

Kuz kabi qonli yoshim, sarig' yuzimdan el nafratlanadi, Allohga shukr, har xil rang bilan bo'lsa ham o'zimni xalqdan qutqardim.

Menga qanday tole nasib qilganki, falak varaqlarini daftardek har qancha axtarsam ham baxt yulduzim topilmaydi.

Bobur, xalqning ta'nasi-yu maqto'vi men uchun barobar, o'zimni bu olamda yaxshi-yomondan o'tkazdim.

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Jonimdek o'zga jonni dilafgor ko'rmadim,
Ko'nglum kibi ko'ngulni giriftor topmadim.

Usruk ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi mubtalo,
Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.

Nochor furqati bila xo'y etmisham, netay,
Chun vaslig'a o'zumni sazovor topmadim.

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.

Bobur, o'zungni o'rgatako'r yorsizki, men
Istab jahonni muncha qilib yor topmadim.

Lug'at

1. **Mahram** – yaqin qarindosh, sirdosh, xos kishi.
2. **Asror** – sirlar.
3. **Dilafgor** – dili xasta, dili vayron.
4. **Giriftor** – tutilgan, yo'liqqan.
5. **Usruk** – mast.
6. **Hargiz** – sira, hech ham.
7. **Furqat** – ayriliq, hijron.
8. **Xo'y etmoq** – odatlanmoq.
9. **Bore** – bir bor.

Nasriy bayon

Jonimdan o'zga vafodor yor topmadim, ko'nglimdan o'zga sirdosh topmadim.

Boshqa bir jonni jonimdek xastadil holda ko'rmadim, o'z ko'nglimdek asir biror ko'ngil topmadim.

Ko'ngil mast ko'ziga muhtalo bo'lgach, bu telbani yana hech ham hushyor topmadim.

Chorasiz ayrilig'iga odatlandim, nima qilay, zero, vasliga o'zimni loyiq topmadim.

Ey ko'ngil, bu safar eshigiga yana bir boray, necha marta eshigiga borib uni u yerdan topolmadim.

Bobur, o'zingni yorsizlikka o'rgat, chunki men jahonni izlab bir yor topmadim.

Xating aro uzoring – sabza ichinda lola,
Ul chashmi purxumoring loladagi g'azola.

Barcha parilar, ey jon, girdingda zor-u hayron,
Go'yo erur namoyon oy tegrasida hola.

Mehr-u vafoni, ey yor, ko'p ko'rdi sendin ag'yor,
Javr-u jafoni bisyor qilding manga havola.

Hajringda, ey parirol, ko'zumdin uchdi uyqu,
Har kecha tongga degru ishimdur oh-u nola.

Yuz safhasinda xatlar yoshdinki, har taraf bor
Ishqingda Bobur aylar bu nav' yuz risola.

Lug'at

1. **Xat** – lab ustidagi mayin tuklar yoki umuman yuzdagi mayin tuklar.
2. **Uzor** – yuz, chehra; yanoq.
3. **Sabza** – maysa, yashil tusli o't.
4. **Pur xumor** – xumori, mast; ko'zi suzilgan.
5. **G'azola** – lola ichidagi kiyik boshiga o'xshash uzv.
6. **Hola** – Oy yoki Quyoshning qo'rg'onlashi, gardish bog'lashi.
7. **Ag'yor** – begonalar, g'ayrlar; raqiblar.
8. **Parirol** – pari yuzli, go'zal.
9. **Degru (tegru)** – ko'makchi, muayyan zamon yoki makondagi chegarani anglatadi (qadar, -gacha ma'nolarini beradi).
10. **Safha** – sahifa, bet.
11. **Risola** – kichik hajmli kitob.

Nasriy bayon

Yuzing mayin tuklar ichida, xuddi, maysa ichida turgan lolaga o'xshaydi, suzuk ko'zlaring esa lolaning kiyiksimon qismiga o'xshaydi.

Ey jon, barcha parilar atrofingda zor-u hayron, go'yo oy tegrasida gardish, aylana namoyon bo'lganga o'xshaydi.

Ey yor, raqiblar sendan mehr-u vafoni ko'p ko'rdi, ammo menga juda ko'p jabr-u jafoni ravo ko'rding.

Ey pariyuzli, hajring tufayli ko'zimdan uyqu uchdi, har kecha ishim tongga qadar oh-u noladir.

Yuz sahifasining har tarafida yoshdan xatlar (ko'z yoshidan yozilgan yozuvlar) bor, Bobur ham ishqingda ana shunday risoladan yuzlab yozar (ya'ni tinimsiz yig'lar).

RUBOIYLAR

Ko'pdin berikim, yor-u diyorim yo'qdur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qdur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdur.

Lug'at

1. **Qaror** – tinchlik, orom.
2. **Sori** – sari, tomon.

Nasriy bayon

Ko'pdan beri yor-u diyorim yo'q, bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'q.

Bu tomon o'z ixtiyorim bilan keldim, lekin bu yerdan ketishda ixtiyorim yo'q.

Necha bu falak solg'usi g'urbatqa meni,
Har lahza tugangusiz mashaqqatqa meni.
Ne chora qilay, netayki, Tengri go'yo
Mehnatni menga yaratdi, mehnatqa – meni.

Lug'at

1. **G'urbat** – g'ariblik, musofirlik, kimsasizlik.
2. **Tugangusiz** – tunganmas, oxiri yo'q.
3. **Mehnat** – mashaqqat, azob.

Nasriy bayon

Bu falak juda ko'p meni g'urbatga soladi, har lahza tuganmas mashaqqatga yo'liqtiradi.

Qanday chora qilay, nima ham qilay, go'yo Tangri mashaqqatni men uchun, meni esa mashaqqat uchun yaratgan.

Asru ko'p emish jur'at-u himmat sizga,
Ro'zi qilg'ay Xudoy nusrat sizga.
Mardonalig'ingizni bori el bildi,
Rahmat sizga, hazor rahmat sizga.

Lug'at

1. **Asru** – juda, g'oyat.
2. **Himmat** – niyat, biror ishga kirishish.
3. **Ro'zi qilg'ay** – nasib qilgay.
4. **Nusrat** – g'alaba, zafar.
5. **Hazor** – ming.

Nasriy bayon

Sizda jur'at-u iroda nihoyatda qat'iy emish, Xudo sizga g'alabani nasib qilgay.

Barcha el mardonaligingizni biladi, sizga rahmat, ming bor rahmat.

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.
Sarrishtayi ayshdin ko'ngulni zinhor
Uz, oh, Zahiriddin Muhamrnad Bobur.

Lugʻat

1. **Tuz oh** – oh chek, oh qil, oh tort.
2. **Yuz oh** – yuz bora oh tortmoq.
3. **Sarrishtayi aysh** – aysh, ishratga bahona, sabab.
4. **Zinhor** – aslo, sira, butunlay.
5. **Uz** – kesmoq, uzmoq, yakun yasamoq.

Nasriy bayon

Zahiriddin Muhammad Bobur oh chek, yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Oh, Bobur, ko'ngilni aysh bahonasidan butunlay uz.

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki ish muyassar o'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Nasriy bayon

Kishi ko'ngli tilagan murodiga yetsa yo barcha murodlarni tark etsa.

Bu ikki ish olamda nasib qilmasa, kishi boshini olib biror tomon ketsa.

Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz!
Jam'iyatingiz borini davlat tutungiz!
Chun gardishi charx bu durur, Tengri uchun
Bir-birni necha kun g'animat tutungiz!

Lugʻat

1. **Ahbob** – doʻstlar, yaqinlar.
2. **Farogʻat tutungiz** – rohat, istirohat deb biling.
3. **Gardishi charx** – falakning aylanishi, beqarorligi, buqalamunligi.

Nasriy bayon

Doʻstlar, yigʻilmoqni rohat deb biling, davrangiz, birodarlaringiz borligini davlat deb biling.

Zero, bu oʻzgarib turuvchi falakdir, shunday ekan bir-biringizni bir zumlik hayotda tangri uchun gʻanimat tutingiz.

Ahbobgʻa har xatki savod etgaysen,
Bizni dagʻi ul bitikda yod etgaysen,
Maqsudki qoside agar kelsa bu yon,
Bir noma bila koʻngulni shod etgaysen.

Lugʻat

1. **Ahbob** – doʻstlar.
2. **Savod etmoq** – yozmoq, bitmoq.
3. **Dagʻi** – yana, ham.
4. **Bitik** – yozilgan narsa, xat, maktub.
5. **Maqsud** – maqsad, niyat.
6. **Qoside** – bir elchi, xabarchi.

Nasriy bayon

Sen doʻstlarga har safar xat yozganingda bizni ham u maktubda yod etgin.

Maqsad shuki, agar bir xabarchi bu tarafga kelsa, bir noma bilan koʻngilni shod etgaysan.

TUYUQLAR

Ulki har ko'zi g'izoli Chin durur,
Qoshida payvasta oning chin durur.
Chunki ul ko'p yolg'on aytti ul menga,
Gar desam yolg'onchi oni, chin durur.

Lug'at

1. **G'izoli Chin** – Chin kiyigi.
2. **Payvasta** – tutash, ulangan.
3. **Chin** – buram, tirish.
4. **Durur** – turur, -dir.
5. **Chin** – rost.

Nasriy bayon

U yorning har ko'zi Chin kiyigidir, uning qoshida doim buram (tirish) turadi.

Qachonki, u menga ko'p yolg'on aytdi, agar uni yolg'onchi desam, chin(rost)dir.

Qish bo'ldi-yu, bo'ldi barcha tom-u tosh qor,
Jamiyati bor kishiga bordur xush qor,
Bu qishda yomon yo'l-u parishon holim,
Yo Rab, meni yaxshiliq sarig'a boshqor.

Lug'at

1. **Qor** – yog'inning bir turi, qor.
2. **Jamiyati** – davrasi, do'stlari.
3. **Boshqor** – boshqar, rahnamolik qil.

Nasriy bayon

Qish keliboq barcha tom-u toshlar oq bo'ldi, ulfatlari (davradi) bor kishi uchun qor xush keladi.

Bu qishda yo'l yomon-u holim parishon, yo Rab, meni yaxshilik sari boshqar.

Qadimni firoq mehnati yo qildi.
Ko'nglum g'am-u anduh o'tig'a yoqildi.
Holimni sabog'a aytib erdim, ey gul,
Bilmon, senga sharh qilmadi yo qildi.

Lug'at

1. **Qadimni** – qaddimni, qomatimni.
2. **Firoq** – ayriliq.
3. **Yo qildi** – yoy kabi qildi, ya'ni kamondek egdi.
4. **Yoqildi** – yondi.
5. **Bilmon** – bilmayman.
6. **Yo qildi** – yoki qildi (bajardi).

Nasriy bayon

Ayriliq mashaqqati qaddimni kamondek egdi, ko'nglim g'am-u anduh o'tida yondi.

Ey gul, holimni tong shabadasiga aytgan edim, bilmayman, senga holimni sharh qildi (tushuntirdi) yo qilmadi.

MASHRAB

G'AZAL

Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!
Bo'lmasa qoshimda jonon, bu jahonni na qilay?!

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!
Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni na qilay?!

Urayinmu boshima sakkiz behisht-u do'zaxin,
Bo'lmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay?!

Zarraye nuri quyoshdek bu jahon ichra tamom,
Oshkoro bo'lmasa, sirri nihonni na qilay?!

Arshning kungurasin ustig'a qo'ydim oyog'im,
Lomakondin xabar oldim, bul makonni na qilay?!

Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,
Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikanni na qilay?!

Lug'at

1. **Tani xok** – tuproqdan yaratilgan tana, badan.
2. **Ruhi ravon** – jon, hayot, harakatdagi ruh.
3. **Na qilay** – nima qilay.
4. **Boda** – may, sharob, mast qiluvchi ichimlik; tasavvufda muhabbat.
5. **Makka** – ka'ba joylashgan shahar.
6. **Ibrohim** – ka'bani qurdirgan payg'ambar.
7. **Eski do'kon** – ka'ba nazarda tutilmoqda.
8. **Behisht** – jannat.
9. **Zarraye** – bir zarra.
10. **Arsh** – osmonning eng yuqori qismi.

11. Kungura – qal'a, baland devor, tom ustidagi to'siq, panjara.

12. Lomakon – makonsizlik.

13. G'alat – xato, yanglish, chalg'ish.

Nasriy bayon

Jonon qoshimda bo'lmasa, bu jahonni nima qilay, bu tuproq badanni-yu undagi tirik jonni na qilay?

Yorsiz va boda(ishq)siz Makkaga borish nega kerak, axir, bularsiz Ibrohimdan qolgan u eski do'konni nima qilaman?

Sakkiz jannat-u do'zaxini boshimga uramanmi, yorning vasli menga nasib bo'lmasa, ikki jahon ham ahamiyatsiz.

Bir zarrasi olamda quyosh nuridek oshkora bo'lmasa, yashirin sirni nima qilaman?

Arshning toqiga qadam qo'yib, lomakon (makonsizlik)dan xabar oldim, shunday bo'lgach endi bu makonni nima qilaman?

Ey Mashrab, Xudodan o'zga barchasi(ga e'tibor) chalg'ishdir, modomiki gul qo'limda ekan, tikonni nima qilaman?!

Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar.

Kishig'a ishq o'tidin zarraye yetsa, bo'lur giryon,
Bo'lub besabr-u betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rtar.

Nechuk toqat qilay, do'stlar, bu dard ila bo'lub hayron,
G'amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig'on o'rtar.

Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,
"Nigoro!" deb oting aytsamki, shavqingdin zabon o'rtar.

Qayu til birla, ey jono, sening vasfing bayon aylay,
Tilim lol-u ko'zum giryon, so'ngaklarni nihon o'rtar.

Na qattig' kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo'lmoq,
Mening ohim o'tig'a bul zamin-u osmon o'rtar.

Yurakda dard-u g'am qat-qatki, menda qolmadi toqat,
Agar bir zarrasin bul vaqt desam, ishq bayon o'rtar.

Bu dard ila xarob o'ldum, kelib holimni so'rmassan,
Unum chiqsa yurakdin, bu tan-u jon, ustixon o'rtar.

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshig'a solma,
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon o'rtar.

Lug'at

1. **O'rtar** – yondirar, kuydirar.
2. **Taqi** – tag'in, yana.
3. **Xonumon** – uy-joy; bor-bud.
4. **Giryon** – yig'lovchi, yig'lab turgan.
5. **Chunon** – shu qadar, shunchalar.
6. **Fig'on** – nola, oh-u zor, faryod.
7. **Bexonumon** – darbadar, sarson; faqir.
8. **Firoq** – ayriliq.
9. **Nigoro** – ey nigor, ya'ni ey yor.
10. **Shavq** – zo'r havas, qattiq intilish.
11. **Zabon** – til, lison.
12. **Qayu** – qaysi (so'roq olmoshi).
13. **So'ngak** – suyak.
14. **Nihon** – yashirin, pinhon.
15. **Un** – ovoz, sas, tovush.
16. **Ustixon** – suyak, so'ngak.
17. **Mahshar** – to'planadigan maydon; qiyomat.
18. **Bihisht** – jannat.
19. **Jovidon** – abadiy, mangu, boqiy.

Nasriy bayon

Agar oshiqligimni aytsam, jon kuyib, jahonga o't ketar, bu ishq sirrini bayon etsam, u yana borliqni kuydirar.

Ishq o'tidan kishiga bir zarra tushsa, (tinmay) ko'z yoshi to'kar, besabr-u betoqat bo'lib, yurak-bag'ri qattiq o'rtanar.

Do'stlar, bu dard bilan hayron qolib, qanday toqat qilay, g'amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig'on kuydirar.

Men bir bechora yo'qsil har dam firoqingda tinmay "ey, nigor" deb oting aytsam, shavqingdan tilim kuyar.

Ey jon, vasfingni qaysi til bilan bayon qilay, tilim lol-u ko'zim yoshli, suyaklarni pinhon o'rtar.

Dilbar, visolingdan judo bo'lmoq qanday qattiq kun, ohim o'tidan bu zamin-u osmon kuyar.

Yurakda dard-u g'am qat-qat, shu bois menda toqat qolmadi, bordiyu hozir bir zarrasi haqida aytsam, ishqil tilimni kuydirar.

Bu dard bilan xarob bo'ldim, kelib holimni so'ramaysan, mobodo yurakdan tovushim chiqsa, bu tan-u jon, suyaklar kuyar.

Ey jon, Mashrab dardini hech kimning boshiga solma, agar qiyomatda oh ursam, abadiy jannatga o't tushar.

MURABBA'

Bulbuidayinkim faryod etarman,
Ishq daftarini bunyod etarman.
Ko'ngullarimni man shod etarman,
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

G'am bahri qildi mavjini bunyod,
Ishqingda qildim yuz oh-u faryod.
O'tti nigorim chun sarvi ozod,
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

Hajr ahli keldi tutti yoqamdin,
Bag'rimni tilg'il paykoni g'amdin,
Ming dod-u faryod ushbu alamdin!
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

Sham'i firoqing ko'ksunda yondi,
Ko'z yoshim oqib bag'ring'a tom-di,
G'aflatda qolg'on Mashrab uyondi,
Yorg'a yetar kun bormu, yoronlar?

Lug'at

1. **Ishq daftari** – ishq kitobi, dostoni.
2. **Yoron** – yorlar, do'stlar.
3. **Bahr** – dengiz.
4. **Sarvi ozod** – tik sarv, chiroyli sarv; go'zal qomatli yor.
5. **Paykon** – kamon o'qining uchi; tikon; kiprik.
6. **Sham'i firoq** – firoq shami, ayriliq shami.

Nasriy bayon

Bulbul kabi faryod etarman, ishq dostonini yaratarman, shu bilan ko'ngillarimni shod etarman, do'stlar, yorga yetadigan kun bormi?

G'am dengizi mavjlar bunyod qildi, ishqingda yuz oh-u faryod qildim, ammo nigor(yor)im tik sarvdek (beparvo) o'tdi, yoronlar, yorga yetar kun bormi?

Hijronda qolganlar kelib, yoqamdan tutdi, g'am o'qidan bag'rimni tilgin, ushbu alamdan ming dod-u faryod, yorga yetar kun bormi, do'stlar?

Ayriliq shami ko'ksimda yondi, ko'z yoshim oqib, ko'ksimga tomidi, g'aflatda qolgan Mashrab uyg'ondi, yorga yetar kun bormi, do'stlar?

MUXAMMAS

Na g'urbatlarni chektim charxi bebunyod dastingdin,
Mudom motamda o'ttum, bo'Imadim dilshod dastingdin,
Tamomi xonumonim bo'ldi chun barbod dastingdin,
Hama obod bo'ldi, bo'Imadim obod dastingdin,
Ki man har qayga borsam dod etarman, dod dastingdin.

Chamanning bulbuli bebol-u parman, oshyonim yo'q,
Misoli chug'zdek vayronalarda ham makonim yo'q,
Azizimdin judodurman, boshimda soyabonim yo'q,
Hama obod bo'ldi, bo'Imadim obod dastingdin,
Ki man har qayga borsam dod etarman, dod dastingdin.

Dilimning quvvati, ruhi ravonimdin ayurdilar,
Anisim, munisim, dilbandi jonimdin ayurdilar,
Ko'zumning ravshani ul mehribonimdan ayurdilar,
Hama obod bo'ldi, bo'Imadim obod dastingdin,
Ki man har qayga borsam dod etarman, dod dastingdin.

Bu olamda meningdek dil parishon o'lmasun hech kim,
Ko'zi ham termulub, cho'llarda sarson o'lmasun hech kim,
Xaloyiq diydasig'a torikiston o'lmasun hech kim,
Hama obod bo'ldi, bo'Imadim obod dastingdin,
Ki man har qayga borsam dod etarman, dod dastingdin.

Ilohiy, menga yetkurgaymusan xurshedi matlabni,
Saodat vaqtida baxting'a chun iqboli kavkabni,
Ilohiy, sen yetur himmat yo'lig'a xasta Mashrabni,
Hama obod bo'ldi, bo'Imadim obod dastingdin,
Ki man har qayga borsam dod etarman, dod dastingdin.

Lugʻat

1. **Chektim** – tortdim, boshdan o'tkazdim.
2. **Charxi bebunyod** – omonat dunyo ma'nosida.
3. **Dastingdin** – qo'lingdan; seni deb, sen tufayli.
4. **Mudom** – har doim, doimo.
5. **Dilshod** – ko'ngli shod, xursand.
6. **Xonumon** – uy-joy; bor-budi, barcha narsasi.
7. **Bebol-u par** – qanotsiz va patsiz.
8. **Chug'z** – boyqush, boyo'g'li.
9. **Ruhi ravon** – jon, kezuvcchi ruh; hayot.
10. **Anis** – ulfat, do'st, yaqin; yoqimli.
11. **Munis** – hamdam, ulfat.
12. **Dilbandi jon** – jon dilbandi, jonni o'ziga rom etuvchi; yor, farzand.
13. **Torik** – qorong'ulik.
14. **Xurshedi matlab** – talab quyoshi, maqsad oftobi.
15. **Iqbol kavkab** – iqbol yulduzi, baxt yulduzi.
16. **Himmat** – iroda, niyat, qat'iy qaror; javonmardlik.

Nasriy bayon

Ey omonat dunyo, sening dastingdan qanchadan-qancha g'urbat chekdim, sen tufayli doim motamda o'tib, dilim sevinmadi, butun borlig'im go'yoki yelga sovrildi, hamma obod bo'ldi-yu faqat men obod bo'lmadim, shu bois qayga borsam dod qilaman, dod dastingdan!

Chaman bulbuliman, ammo qanot-u par(pat)im ham, oshyonim ham yo'q, hech bo'lmasa boyqushdek vayronada makonim yo'q, azizimdan judo bo'lganman, boshimda soyabonim yo'q, hamma obod bo'ldi-yu faqat men obod bo'lmadim, shu bois qayga borsam dod qilaman, dod dastingdan!

Dilimning quvvati, tirik jonimdan ayirdilar, do'stim, ulfatim, jonimning dilbandidan ayirdilar, ko'zimning nuri bo'lgan mehribonimdan ayirdilar, hamma obod bo'ldi-yu faqat men

obod bo'lmadim, shu bois qayga borsam dod qilaman, dod dastingdan!

Bu olamda hech kimning men kabi dili parishon bo'lmasin, ko'zi ham termilib, cho'llarda sarson bo'lmasin, hech kim xalq ko'ziga zulmat bo'lib ko'rinmasin, hamma obod bo'ldi-yu faqat men obod bo'lmadim, shu bois qayga borsam dod qilaman, dod dastingdan!

Yo lloh, talabim quyoshini menga yetkazasanmi, saodat vaqtida (qiyomat kuni) toleyimda baxt yulduzini ko'rsatasanmi, Allohim, sen xasta Mashrabni himmat yo'liga sol, hamma obod bo'ldi-yu faqat men obod bo'lmadim, shu bois qayga borsam dod qilaman, dod dastingdan!

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

ADABIYOT (DARSLIK) 5-SINF 2-QISM

Zahiriddin Muhammad Bobur.....	5
--------------------------------	---

ADABIYOT (DARSLIK), 6-SINF 2-QISM

Avaz O'tar.....	18
-----------------	----

ADABIYOT (DARSLIK), 7-SINF, 2-QISM

Uvaysiy.....	24
Zavqiy.....	30

ADABIYOT (DARSLIK), 8-SINF, 1-QISM

Lutfiy.....	40
Alisher Navoiy.....	56
Nodira.....	82

ADABIYOT (DARSLIK), 9-SINF, 1-QISM

Bobur.....	90
Mashrab.....	94
Ogahiy.....	99
Furqat.....	118

ADABIYOT (DARSLIK), 10-SINF, 1-QISM

Yassaviy.....	133
Atoyi.....	140
Navoiy.....	145
Turdi Farog'iy.....	159

ADABIYOT (DARSLIK), 11-SINF, 1-QISM

Bobur.....	170
Mashrab.....	181

Maktab darsliklaridagi mumtoz asarlar lug'ati va izohi [Matn]:
Metodik qo'llanma / D.To'xliyeva. – Toshkent: Bayoz, 2020. –
192 b.

ISBN 978-9943-5626-1-5

UDK: 821.512.133.09-1
BBK 83.3(5Y)

Dilfuza To'xliyeva

MAKTAB DARS LIKLARIDAGI MUMTOZ ASARLAR LUG'ATI VA IZOHI

Muharrir
Texnik muharrir
Dizayner
Sahifalovchi

Ilyos Ismoilov
Mirkomil Shamsiyev
Bahodir To'xliyev
Bekzod Raxmatov

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11. 02. 2013.

Bosishga ruxsat etildi: 07.01.2020.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$.





Arial garniturası. Ofset bosma.

Hisob nashriyoti t.: 8. Shartli b. t.: 12.

Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 1.

“BAYOZ” nashriyotida nashrga tayyorlandi

“BAYOZ” MChJ matbaa korxonasida chop etildi.
Toshkent. Lutfkor 1-tor ko'chasi, 1-uy.



ISBN 978-9943-5626-1-5



9 789943 562615